

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT KAFEDRASI

Olimpiya va Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari

(o'quv qo'llanma)

CHIRCHIQ – 2019

Muallif: Sobirova L.B. O`zDTvaSU Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o`qituvchisi

Taqrizchilar:

Raxmatova D.N. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

Latipov R.I. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur o`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining “Adaptiv jismoniy tarbiya va sport” yo`nalishida, “Olimpiya va paralimpiya xarakatining tarixi” fani o`quv dasturi asosida yaratilgan. Ushbu o`quv qo`llanmada olimpiya va paralimpiya sport turlari va qoidalariga oid masalalar ochib berilgan bo`lib, bunda Xalqaro olimpiya va paralimpiya qo`mitalari tashkil etilishi, faoliyati, O`zbek sportchilarining olimpiya va paralimpiya o`yinlaridagi ishtiroki va natijalari to`g`risida, nogironlik sport turlari va chiniqtirish masalalari keng yoritilgan.

O`quv qo`llanma O`zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ilmiy – uslubiy Kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan (20__ yil “__” iyundagi “__” sonli bayonnoma)

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharofati bilan barcha sohalarda xar tamonlama yuksalish yuz berayotganini jismoniy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar umuminsoniy qadriyatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy extiyohlari, talablari va ma'nfaatlari birinchi o'ringa ko'tarilayotganini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy- axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Shu munosabat bilan yangi insonni tarbiyalashning murakkab va ko'p qirrali muommosining muxim yo'nalishi xar bir kishida o'z sog'lig'i to'g'risida o'zi qayg'urish madaniyatni singdirishdir. Uni tarkib topish uchun oila, maktabgacha muassasalar, maktab, o'rta maxsus kasb xunar ta'lim tizimi, maxalla, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport tizimlarining xodimlari butun kuch quvvatini, g'ayratini ishga solib, bolaning ongiga yoshlikdan jismoniy tarbiyaga bo'lgan muxabbatni singdirib qo'yishlari darkor.

Nogiron tug'g'ilgan yoki taqdir toqozasi bilan nogiron bolib qolgan bolani yoki qobilyatini yo'qotgan shahsni salomatligi to'g'risida ota-onasidan, qarindoshkaridan oila a'zolaridan xam ko'proq qayg'uradigan odam bo'lmaydi/ Bugungi kunda ijtimoiy ximoya qilish masalasi "Nogironligi bo'lgan shahslarni davlat tamonida qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdaqi farmoni asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Oxirgi yillarda Respublikamizda eng asosiy, muhum vazifalardan biri ommoviy sportni rivojlantirish masalasi turadi. Mustaqil O'zbekistonning ma'naviy sog'lom avlodlarni, bo'lajak vatanparvarlarni tarbiyalash vazifasi pirovard o'qituvchilar, mutaxassislar zimmasiga tushadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va mehr muhabbatini

singdirishining g'oyat muhim sharti ommoviy sportni rivojlantirishdir."Kadrlar tayyorlash milliy dasturini"ni hayotga tadbiiq etishning ustuvor yo'nalishidan biri OO'YU va akademik litsey,kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatayotgan pedagogic xodimlar salohiyatiga zamon talablari darajasiga ko'tarishdan iborat.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari,sport mutaxassislarining, ustoz-murabbiylarning chuqur bilim, yuksak malaka, boy tajriba va mahoratga ega bo'lishi har tamonlama yetuk,ma'naviy barkamol kadrlar tayyorlashning garovidir.Zero ustozlar xar jixatdan shogirtlarga namuna bo'la olsagina kelajakka ishonchli zamin tayyorlanadi.Bunga erishish uchun o'qituvchilar tinimsiz izlanishlari, o'z bilim va malakalarini oshirib borishning barcha imkoniyat va vositalaridan samarali foydalanishlari zarur. Rivojlangan mamlakatlar o'quv muassasalaridagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ilg'or tajribalari bilan tanishishlari, uni o'quv yurtlarida qo'llay bilishlari lozim.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar orasida kuchli zakovot egalari, ma'naviy boy, ilmiy salohiyatini oshirishga hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan yoshlar ko'plab topiladi. Qo'l-oyoqsiz ko'zi yoki organizmining qaysidir a'zosi ishlamasada, kuchli asar yoki sher yozadigan, kompyuter,televizor sozlash yoki me'yoriga yetkazib kuy yaratadigan yoshlarimizni ko'plab uchratamiz.To'rt muchasi sog' bo'la turib oilasiga, mahallasiga jamiyatga foydadan ko'ra ko'proq ziyon keltiradigan ma'naviy qashshoq yoshlarni ham uchratishimiz mumkin.

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng nogironlar sportiga kata e'tibor berilmoqda. Nogiron sportchilarimiz Osiyo hamda olimpiya va paralimpiya o'yinlarida yaxshi natijalarga erishib, O'zbekiston bayrog'ini yuqori ko'tarishmoqda.Nogironlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni muntazam rivojlantirish hamisha Prezident va davlatimiz diqqat markazida turibdi.

Nogiron bolalarning biror mashg'ulot bilan uzoq vaqt va muntazam shug'illanishi natijasida mushaklarda yuzaga keladigan o'zgarishlar morfologik va biokimyoviy xususiyatlar bilan belgilanadi. Organizmdagi moddalar almashinuvi jarayoni bajarilayotgan ish darajasiga moslahsadi.Mustaqil O'zbekiston Respublikasining strategic vazifalaridan biri-kelajakdagi barcha ezgu ishlarni

amalga oshirishga qodir bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol shahsni voyaga yetkazishdan iborat.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarixni chuqur o'rganishimiz, sport turlari qoidalarini bilishimiz, o'quv ishlarini rejalashtirishga hamda ularni samarali olib borishga yangicha va ijodiy qarashimiz, ishga tashabbuskorlik bilan yondoshmog'imiz kerak.

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma Olimpiya va paralimpiya tarixi va o'yinlari qoidalari haqida bolib, o'quv qo'llanma beshta bobda mavzular yoritilgan birinchi bobda Olimpiya va paralimpiya harakati tarixi faniga kirish va O'zbekistonda Olimpiya va paralimpiya harakatining rivojlanishga oida ma'lumotlar keltirilgan 2-3boblarda yozgi va qishki Olimpiya va paralimpiya sport musobaqalari haqida yozilgan. 4 bobda esa adaptiv sport musoboqalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Oxirgi bob Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va Paralimpiya assotsiyasining tashkil qilinishi haqida.

АННОТАЦИЯ

Этот учебник посвящен олимпийской и паралимпийской истории и играм, а первый раздел посвящен пяти главам, знакомящим с историей олимпийского и паралимпийского движения и развитием олимпийского и паралимпийского движения в Узбекистане. В главах 2-3 описываются летние и зимние олимпийские и паралимпийские спортивные соревнования. Глава 4 дает обзор адаптивного спорта. Последняя глава - о создании Международного олимпийского комитета и Паралимпийской ассоциации.

ANNOTATION

This tutorial book is about Olympic and Paralympic history and games, and the first section covers the five chapters, introducing the history of the Olympic and Paralympic Movement and the development of Olympic and Paralympic movement in Uzbekistan. Chapters 2-3 describe the summer and winter Olympic and Paralympic sports competitions. Chapter 4 gives an overview of adaptive sports. The last chapter is about the establishment of the International Olympic Committee and the Paralympic Association.

I –BOB Olimpiya va paralimpiya xarakati tarixi faniga kirish

1.1 Olimpiya xarakati tarixi

Olimpiya harakati tarixi qadimgi zamonlardan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jahon xalqlarining jismoniy tarbiya va sport tarixi, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini o'rganadi. Olimpiya harakati tarixi turli davrlarda jismoniy tarbiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

«Olimpiya va paralimpiya harakati tarixi» ixtisoslikka oid maxsus fan sifatida, milliy qadriyatlar, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot natijalari, mustaqillik yillarida joriy etilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar, nizomlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida asoslab berilgan g'oyalarga tayanadi.

Ularni jismoniy madaniyat ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'ziga metodologik asos qilib olgan.

Olimpiya va paralimpiya harakati tarixi fanining **maqsadi** –Olimpiya va paralimpiya sport turlari to'g'risida tushinchalar xosil qilish va nogironlik toifalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, talabalarda jismoniy tarbiya va sportning turli tarixiy davrlarda rivojlanish qonuniyatlari, g'oyalari, tizimlari, asosiy shakllari, usullari va vositalari to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirishdir.

Fanning asosiy **vazifalari** – talabalarga olimpiya va paralimpiya tarixini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, jismoniy tarbiya usullari, shakllari, vositalari, sport sohasida erishilgan yutuqlar va eng ilg'or tajribalardan foydalanishni hamda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixini o'rgatishdan iborat.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari. Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi. Qadimgi olimpiya o'yinlari haqidagi afsonalar. Qadimgi olimpiya o'yinlarining dasturi va ularning xususiyatlari. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahamiyati. Qadimgi yunon olimpiya o'yinlarining ta'qiqlanish sabablari.

Mustaqillik tufayli ma'naviy ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy an'analarga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish

kontsepsiyasi ishlab chiqildi, Vatan ravnaqini ta'minlab beruvchi milliy istiqlol g'oyasi shakllandi. O'zbek mentaliteti, milliy xarakter mazmunida yangi jihatlar tarkib topdi. Bu bevosita siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'rifiy sohada tub yangilanishlarga ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risi"dagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni asosida joriy etilgan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy omillar davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylandi.

Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Bu yo'nalishdagi ishlar talaba-yoshlarda zamonaviy dunyoqarash, ularning ongiga vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, o'z Vataniga xizmat qilish kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishga qaratilgan.

Mavzuni o'rganish asosiy maqsadi – Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixini chuqur va atroflicha o'rganish orqali qadimgi Olimpiya o'yinlari ahamiyatini tushunish.

Nazariy mashg'ulotlar mazmunida fanning asosiy vazifalari –

- Qadimgi Olimpiya o'yinlari xususiyatlarini tahlil qilish;
- olimpiya sporti tarixi, jahon xalqlarining sport sohasidagi yutuqlari bilan tanishtirish;
- olimpizmning insonparvarlik qadriyatlari ahamiyatini ifodalash;

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar va mutaxassislardan - olimpizm tushunchalari va ularning mohiyatini bilish; olimpiya bilimlarini targ'ibot qilish vositalaridan foydalanish shakllarini o'rganish; mustaqil fikr yuritish, bilimlarga ijodiy yondoshish talab etiladi.

Olimpiya o'yinlari tarixini o'rganish manbalariga:

- qadimgi Olimpiya o'yinlariga oid ash'yoviy yodgorliklar va arxeologik topilmalar;

- olimpiya sportiga doir arxiv materiallari, ilmiy kitoblar va boshqa yozma manbalar;
- olimpiya sportiga oid tasviriy san'at asarlari, badiiy kitoblar, xalq rivoyatlari va afsonalari, kino, foto, fonomateriallar;
- turli mamlakatlarda sport rivojlanishi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlar, yani sport yutuqlari, sport rekordlari;

Qadimgi Olimpiya o'yinlari

Qadimgi Gretsiyaning Olimpiya shahri Olimpiada o'yinlarining vatani hisoblanadi. Olimpiya shahri Peloponnes yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan. Qadimgi yunonlar Olimpiya o'yinlarini buyuk xudolari - qudratli va dono Zevsga bag'ishlaganlar. Yunonlar oliy iloh Zevsni "yashin chaqnatuvchi", "bulutlarni haydovchi", beqiyos qudrat timsoli, "hayot baxsh etuvchi", "xaloskor" ma'budi sifatida e'zozlaganlar. Miloddan avvalgi V asrda yunon me'mori Libon loyihasi asosida Olimpiya shahrida Zevs maqbarasi qurilgan. Bu yerda o'rnatilgan Zevsning juda katta, oltin va fil suyagidan yasalgan haykali dunyodagi etti mo'jizaning biri, deb tan olingan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining tarixi to'rt davrdan iborat bo'lib, ular Qadimgi Gretsiyaning afsonaviy badiiy merosiga asoslanadi.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining **birinchi davri** – qahramonlik davri hisoblanib, rivoyatlarga ko'ra bu musobaqalarda ma'budlar, shohlar, afsonviy qahramonlar o'zaro kuch sinashganlar. Gomerining mashhur "Illiada" dostonida Qadimgi Gretsiyada Troya urushining buyuk qahramoni Axilles tashkil etgan o'yinlarda ot aravalardagi poygalarda Frakiya shohi Diomed, Miken shohi Menelay, Pilos shohi Nestor marraga birinchi bo'lib etib kelganlar. Gomer ularning musht jangida teng keladiganlar topilmagan Evrial, kurashda barcha raqiblarining kuragini yerga tekkizgan shoh Ayaks Telamanid, yugurishda Odissey, nayza uloqtirishda yunon qo'shinlari lashkarboshisi Agamemnon, kamon otishda Odisseyning eng sodiq xizmatkori Evmey va boshqa afsonaviy qahramonlarning fazilatlarini madh etgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining **ikkinchi** – afsonaviy davri Geraklga bag'ishlab tashkil etgan umumellin musobaqalari to'g'risidagi rivoyatlarga asoslangan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining **uchinchi** – yarim afsonaviy davr miloddan avvalgi IX asrga to'g'ri kelib, bunda olimpiya o'yinlari Likurg va Ifit tomonidan tashkil etilganligi to'g'risidagi haqiqiy voqealar rivoyatlarda saqlanib kelgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining **to'rtinchi** – qadimgi olimpia o'yinlarining tarixiy davri. Miloddan avvalgi 776 yilda birinchi qadimgi olimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan va olimpiya o'yinlari tog'risida yozma manbalar topilgan. Bu aniq ma'lumotlarga asoslangan sana Olimpiya o'yinlari vujudga kelgan yili, deb qabul qilingan.

Qadimgi olimpiya o'yinlari haqida juda ko'p afsonalar va rivoyatlar mavjud. Birinchi afsonada xudo Kronos o'g'illaridan birining qo'lidan halok bo'lishini bashorat qiluvchi tushga ishonib, yangi tug'ilgan farzandlarini yutib yuborishni boshlagan. Uning rafiqasi Reya navbatdagi yangi tug'ilgan farzand o'rniga yo'rgakka tosh o'rab, uni berahm otaga beradi. O'g'lini esa cho'ponga berib yuboradi, bola o'sib-ulg'ayadi, chaqmoq va momaqaldiraq xudosi qudratli Zevsga aylanadi. Zevs shavqatsiz otasini jangga chaqiradi va g'alaba qozonadi, shu orqali aka-singillarini qutqaradi, ular keyinchalik xudolarga aylanishadi. Zevs g'alaba sharafiga musobaqalar o'tkazishni buyurgan. Bu o'yinlar o'tkazilgan joy nomi bilan Olimpiya o'yinlari deb atalgan. Yana boshqa afsonaga ko'ra o'yinlarni Zevsning o'g'li Gerakl tashkil qilgan. Olimpiya o'yinlari Geraklning eng shavkatli g'alabalaridan biriga bag'ishlangan. Gerakl yugurish masofasini belgilab bergan va u 600 ta oyoq qadamiga (192m 27sm) to'g'ri kelgan. Qadimgi Gretsiyada bu o'lchov «stadiy» deb yuritilgan, shundan «stadion» so'zi kelib chiqqan. Ko'p yillar davomida yugurish bo'yicha g'olib aynan shu masofada aniqlangan.

Olimpiya o'yinlari Zevsning nevarasi Pelops tomonidan tashkil qilingan degan afsona ham bor. Podshoh Enomayning juda go'zal qizi bo'lgan. Enomay o'z kuyovining qo'lidan halok bo'lishini tushida ko'rgan va bunga ishonib, qizini

qo'lini so'rab kelgan yigitlarga shart qo'yib, ular bilan ot aravada poyga o'ynagan. Poygada mag'lub bo'lgan yigitlarni o'limga hukm qilgan.

Pelops Enomayning qiziga o'n to'rtinchi kuyov edi. Oldingi o'n uchta kuyov ot aravada poyga o'ynashda Enomay qo'lidan halok bo'lgan edi. Enomayning qizi Gippodamiya Pelops bilan birga Enomay ot aravasining boshqaruvchisi Mirtilosni g'ildiraklarni ushlab turuvchi bronzali ushlagichni mumlisiga almashtirib qo'yishga ko'ndirishadi. Poyga paytida g'ildiraklar chiqib ketadi va Enomay halok bo'ladi. Xudolarga minnatdorchilik bildirib, Pelops Olimpiya o'yinlarini ta'sis etadi va ot aravada poyga asosiy musobaqalardan biriga aylangan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari doimiy **ravishda har 4 yilda bir marta kabisa yilida** o'tkazilgan. Yunon rivoyatlari va ko'plab afsonalarida kabisa yili ofat keltiruvchi yil, deb ifodalangan. Shuning uchun qadimgi davrda yunonlar kabisa yilida xudolardan rahm-shavqat so'rab, ular sharafiga bayramlar uyushtirganlar va qurbonliklar qilganlar. Yozma manbalarga ko'ra bu bayramlarning boshlanishi ikki yunon davlati – Elida va Sparta davlatlari o'rtasida tinchlik o'rnatilishi bilan bog'langan.

Olimpiya shahrida maxsus hay'at har to'rt yilda bir marta olimpiya o'yinlari tantanali ochiladigan sanani belgilab bergan. An'anaga binoan, bu sana yozda quyosh eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilib, osmonda to'lin oy paydo bo'ladigan birinchi kun bo'lgan.

“Olimpiada” atamasi ikki olimpiya o'yinlari oralig'idagi to'rt yil – 1447 kuni bildirgan. Yunonlar uchun bu taqvim sitsiliyalik tarixchi Timey tomonidan miloddan avvalgi 264 yilda kiritilgan.

O'yinlar o'tkaziladigan vaqtda Qadimgi Gretsiyada muqaddas tinchlik **“ekexeyriya”** e'lon qilingan va 3 oy davom etgan. Maxsus jarchilar muqaddas tinchlik kuchga kirganini hammaga ma'lum qilib chiqqanlar. Muqaddas tinchlik davrida, ya'ni ellinlar taqvimini bo'yicha ikki apolloniy va perfiniy oylarida har qanday jangovar harakatlar to'xtatilgan. Bu qat'iy qonunni buzganlarga ma'budlar tomonidan kulfat yog'dirilishi haqidagi har bir yunonga ma'lum bo'lgan aqida dahshati eng urishqoq elatlarni ham to'xtatgan. Bu davrda Olimpiya shahriga qurol-

yarog' bilan kirish taqiqlangan. Polis hukmronlari olimpiya o'yinlari paytida musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar va barcha tomoshabinlarning xavfsizligini kafolatlagan.

Sulh shu qadar muqaddas hisoblanganki, olimpiya o'yinlari o'tkazilgan bir necha yuzlab yillar davomida unga atigi ikki marotaba rioya etilmagan hol bo'lgan. Birinchisi, Filipp Makedonskiy lashkari askarlari olimpiya o'yinlariga ketayotganlarni yo'lda tunaganlar. Bosqinchilar nafaqat ularning pul va mollarini qaytarib berishga majbur qilinganlar, balki musobaqa tashkilotchilariga juda katta miqdorda jarima ham to'laganlar. Makedonskiy o'zining lashkarlari sulhni buzganliklari uchun olimpiya o'yinlari tashkilotchilaridan rasmiy kechirim ham so'rashga majbur bo'lgan. Ikkinchisi, miloddan avvalgi 420-yilda spartaliklar muqaddas sulh amal qilib turgan vaqtda Lepreya shahrini qamal qilganliklari uchun olimpiya kengashi tomonidan O'yinlar ishtirokchilari ro'yxatidan chiqarilgan.

Olimpiya o'yinlari dastlab **bir kun** bo'lgan va bayram o'tkazilgan kunlar "iyeromeniya" – "muqadas oy", deb nomlangan. Bu bayram vujudga kelgan paytida diniy xarakterga ega bo'lgan, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, qadimgi Olimpiya o'yinlari **5 kun** davom etgan.

Birinchi kun. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimi bo'lgan. Olimpiya bayramining boshlanishi to'rt marotaba karnay chalinishi bilan bildirilgan. Musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar va hakamlar Zevs xudosiga qasamyod aytganlar.

Tantanali ochilish marosimi davomida jangchi tomonidan qatnashuvchi atletlarning ismi, kasbi, kelgan shahri e'lon qilingan. Olimpiadaning birinchi kunida xudolarga qurbonliklar keltirilgan.

Ikkinchi kun. Yoshlar o'rtasida yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, qo'l jangi bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Uchinchi kun. Olimpiadaning eng katta kuni – katta yoshli atletlarlar o'rtasida yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurash, qo'l jangi bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

To'rtinchi kun. Eng nufuzli hisoblangan ot aravalarda poyga boyicha hamda qurol aslaha bilan yugurish musobaqalari o'tkazilgan.

Beshinchi kun. G'oliblar e'lon qilingan, taqdirlash marosimi bo'lgan. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining g'oliblari **olimpionik** deb nomlangan va ular sharafiga qo'shiqlar aytilgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarga **ellanodik** - hakamlar rahbarlik qilgan. Ellanodiklar Elida fuqarolari orasidan o'yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida 9 nafar kishidan 18 nafar kishigacha saylangan. Ellanodiklarning vazifasi musobaqalar joyini tayyorlash, musobaqa ishtirokchilarini tanlash, musobaqalarning borishini kuzatib turish va musobaqa g'oliblariga mukofotlar berishdan iborat bo'lgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining dasturi ko'p yillar mobaynida o'zgarmagan va musobaqalarning eng qadimgi turi 1 stadiyga (stadiodrom) yugurishdan iborat bo'lgan. Qadimgi 14-o'yinlardan boshlab musobaqalar dasturiga 2 stadiyga yugurish - diaulos, 15-olimpiada o'yinlaridan boshlab esa chidamliligini sinash uchun 24 stadiyga yugurish - dolixodrom kiritilgan.

Qadimgi 18-Olimpiya o'yinlardan boshlab dasturga pentatlon (beshkurash) bo'yicha musobaqalar kiritilgan.

Pentatlon – yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurash mashqlaridan iborat bo'lgan. 25-o'yinlarda – ot aravalarda poyga, 33-o'yinlarda – **pankration** (qo'l jangi va kurash) musobaqalari dasturga kiritilgan. Olimpiya shahrining sharqiy qismida o'sha davrlarda ot aravalar poygasi o'tkaziladigan ulkan gippodrom joylashgan va 730x336 metr kattalikda bo'lgan. Bundan tashqari, bu yerda xususiy sport maktabi - gimnaniya, uning o'rtasida 66x66 metr kattalikdagi palestra joylashgan. Gimnasiya yaqinida esa olimpiya o'yinlari paytida atletlar yashaydigan “olimpiya qishlog'i” ham bo'lgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlariga faqat ozod yunon fuqarolari qatnashishi huquqiga ega bo'lganlar. O'yinlarga qullar, ayollar, bolalar, horijiyalar, jinoyatchilar va qurollangan odamlar kiritilmagan. Miloddan avvalgi 632 yildan qadimgi 37-

Olimpiya o'yinlardan boshlab o'yinlarida bolalar qatnashgan va ularning chiqishlari uchun alohida kun ajratilgan.

Qadimgi yunonlar Olimpiya o'yinlari qahramonlari nomlarini Alfey daryosi yaqinida o'rnatilgan marmar ustunlarga o'yib yozishgan. Birinchi Olimpiya o'yinlarining g'olibi Elida shahridan oshpaz Koroibos to'g'risida ana shu marmar ustundagi yozuvlardan ma'lum bo'lgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ular Qadimgi Gretsiyaning ko'pgina shaharlarini birlashuviga, quldorlarning o'zaro shartnomalar asosida tinchlik haqidagi kelishuvlariga, iqtisodiy jipslashuviga sabab bo'lgan. Olimpiya o'yinlari millatni birlashtiradigan va o'zaro totuvlikka xizmat qiladigan umumyunon bayram hisoblangan. Bu o'yinlar polis quldorlarining harbiy qudratini ham namoyish qilgan.

Olimpiya o'yinlari qadimdan eng e'zozlangan bayramlardan biri bo'lgan. Mashhur tarixchi Gerodot bu yerga Afinadan yayov kelgan. Matematik Pifagor umumellin sport musobaqalarida qo'l jangi bo'yicha g'olib bo'lgan. Gippokrat kuchli kurashchi va mohir chavandoz edi. Faylasuf Aflotun mashhur Istma o'yinlarida kurash bo'yicha musobaqalarda g'olib chiqqan. Olimpiadalarda dramaturglar Sofokl va Evripid, yozuvchi Lukian, notiq Demosfen, qadimgi yunon madaniyati va san'atining barcha ko'zga ko'ringan namoyandalari bevosita musobaqalar, tanlovlar ishtirokchilari, tomoshabin sifatida qatnashganlar.

Qadimgi Gretsiyada har yili Demetra yoki "Sog'lom farzand" tanlovlarini o'tkazish an'anasi kiritilgan edi. Mazkur ko'rikda eng sog'lom va ko'rkam bolalar aniqlanib, ularning onalari taqdirlangan.

Olimpiya o'yinlarining asosiy g'oyasi inson barkamolligi, aqliy va jismoniy yetukligini namoyishi bo'lgan. Shuning uchun ilk umumellin bayramlarida kuchlilik, chaqqonlik, epchillik bo'yicha musobaqalar musiqa, she'riyat tanlovlariga ulanib ketgan. Olimpiadalarda jismoniy go'zallikka aqliy salohiyat, musiqiy, badiiy, tasviriy iste'dod ruhi uyg'un bo'lgan. Olimpiya o'yinlari doirasida san'at, adabiyot, musiqa, me'morchilik bo'yicha tanlovlar o'tkazilgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining ta'qiqlash sabablari xristian dinining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Rim imperatori Feodosiy I xristianlikni majburiy joriy etib, ko'p xudoliklar bayramlarini man etish to'g'risida farmon chiqargan. Muqaddas Olimpiya shahriga o't qo'yib, yondirib yuborishga buyruq bergan. Qadimgi davrda jami 293 ta olimpiya o'yinlari o'tkazishgan. Olimpiya o'yinlari 12 asr davom etgan.

Qadimgi davrda olimpiya o'yinlarining jamiyatdagi o'rni va nufuzi juga yuqori bo'lib, ular Qadimgi Gretsiyaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Gretsiya davlatlarida ta'lim-tarbiya tizimi barcha to'la huquqli fuqarolarga mo'ljallangan edi. Tarbiya tizimi harbiy-jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, har tomonlama tarbiya bergan. Qadimgi yunonlar insonning barkamol rivojlanishi aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy tarbiyadan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar.

Qadimgi Gretsiyada jismoniy mashqlarning ikki xil usuli bo'lgan: **gimnastika** - umumiy jismoniy tarbiya; agonistika – maxsus tayyorgarlik va musobaqalarda ishtirok etish. **Agonistika** (*agon* – musobaqa) gimnastik o'yinlar va musiqa musobaqalaridan (musiqa, raqs, she'riyat sohalari bo'yicha) iborat bo'lgan. Qadimgi davrda Nemey o'yinlari, Istma o'yinlari, Pifiya o'yinlari, Panafina o'yinlari kabi musobaqalar keng tarqalgan edi.

Nemey o'yilari Zevs xudosiga bag'ishlangan bo'lib, ilk bor milloddan avvalgi 573 yilda Argolida shahrida o'tkazilgan. Nemey o'yilari har ikki yilda bir marta – olimpiadaning ikkinchi yilida kuz faslida va to'rtinchi yilida - qishda o'tkazilgan. O'yilar dasturida yugurish, kurash, pentatlon va pankration bo'lgan. G'oliblar selderey barglari bilan taqdirlangan.

Pifiy o'yinlari Delfa shahrida Apollon xudosiga bag'ishlab o'tkazilgan. Apollon sozanda, raqqos xofizlar rahnamosi bo'lganligi uchun, dastlab o'yinlar dasturiga musiqa musobaqalari kiritilgan. Tarixiy ma'lumotlar asosida mil.av.586 yilda yunon shaharlari o'rtasidagi urushlar qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan ot arava poygalari ilk bor o'tkazilganligi aniqlangan. Delfa shahridagi mahalliy

bayramlar mil av.582 yildan boshlab umumyunion o'yinlarga aylangan. Pifiy o'yinlari g'oliblari Apollon xudosiga bag'ishlab ekilgan daraxtdan uzib olingan olmalar bilan taqdirlangan, keyinchalik esa lavr daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar berilgan.

Istma o'yinlari dengiz xukmdori Poseydon xudosiga bag'ishlangan. Bu o'yinlar mil.av.572 yildan boshlab har ikki yilda bir marta – olimpiada yilining birinchi va uchinchi yillari – bahorda Korinf qurfasida o'tkazilgan. Istma o'yinlari dasturi yugurish, kurash, qo'l jangi, pentatlon, pankration, ot arava poygalari va ot poygalari bo'yica musobaqalardan iborat bo'lgan. Bundan tashqari musiqa dasturi bo'yicha nay va kifara cholg'u ijrochilarning chiqishlari namoyish qilingan. Korinf shahri boy va badavlat bo'lganligi sababli Istma bayramlari katta tantanalar bilan tashkil qilingan. Istma o'yinlari g'oliblari qarag'ay daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar bilan taqdirlangan va she'rlarda sharaflangan. Mil.av.228 yildan boshlab O'yinlarda rimliklar ham ishtirok etgan.

Olimpiya o'yinlari – Qadimgi Gretsiyaning eng mashhur va eng ommaviy musobaqalari hisoblanib, alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Olimpiya o'yinlari qadimdan eng e'zozlangan bayramlardan biri bo'lgan. Qadimgi yunonlar insonning barkamol rivojlanishi aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy tarbiyadan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining asosiy va pirovard maqsadi ham shu bo'lgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati

Iqtisodiy ahamiyati	Olimpiya shahri savdo sotiq markaziga aylangan va polislararo shartnomalar tuzilgan.
Siyosiy ahamiyati	Ekexeyriya tufayli polislar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar yaxshilangan.
Harbiy ahamiyati	Qadimgi o'yinlarda davlatlar o'z harbiy qudrati va jangchilarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini namoyish qilganlar.

Madaniy ahamiyati	O'yinlarning madaniy dasturida faylasuflar, matematik, tarixchi olimlar, shoyir va yozuvchilar o'z asarlari bilan qatnashganlar.
-------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Bir yarim ming yildan so'ng esa Olimpiya o'yinlarini yana qayta tiklash g'oyalari paydo bo'lgan. 1824 yilda lord Stankof Olimpiya shahrida arxeologik qazilmalarni olib bordgan va uning chizmasini tuzgan. Bu esa Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini rivojlantirishga turtki bo'lgan. zamonaviy Olimpiya o'yinlarining ham mafkuraviy g'oyasi asoslaridan biri inson barkamolligidir. Pyer de Kuberten tashabbusi bilan Olimpiya o'yinlari qayta tiklanib, zamonaviy Olimpiya o'yinlari doirasida ham san'at, adabiyot, musiqa, me'morchilik bo'yicha tanlovlar o'tkazilgan. Hozirgi davrda Olimpiya shahrida ma'buda Gera maqbarasi poyida Olimpiya o'yinlari mash'alasini yoqish an'anasi saqlanib qolingan.

XX asrning ikkinchi yarmida sport o'yinlarining ko'plab zamonaviy turlari yuzaga keldi va rivojlandi. Turli mamlakatlarda sport turlari bo'yicha klublar tashkil etildi, muntazam tarzda musobaqalar o'tkaziladigan bo'ldi, sport inshootlari qurildi. Asta-sekinlik bilan zamonaviy Olimpiya o'yinlarining xalqaro miqyosda o'tkazishiga zamin yaratildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda chet el mamlakatlarida olimpiya sporti keng miqyosda rivojlanib ketdi. Bunga, asosan, ushbu mamlakatlarda yozgi va qishki sport turlari bo'yicha Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi sabab bo'ldi. Shu asosda Yaponiyada gimnastika, dzyu-do va qishki sport turlari; Kanada va Skandinaviya mamlakatlarida konkida uchish, chang'i sport turlari, xokkey; Fransiya, GFR va Avstraliyada konkida figurali uchish, tog' chang'i sporti; Braziliya, Angliya, GFR, Gollandiya, Italiya, Argentina va boshqa mamlakatlarda futbol rivoj topdi.

Xalqaro sport harakati va olimpiya sportining rivojlanishi. G'arb davlatlarida olimpiya sport turlarini rivojlantirishda bir qator asosiy yo'nalishlar vujudga kelgan. *Birinchi*dan, olimpiya sportini rivojlantirishda davlatlarning roli o'sib bordi. *Ikkinchi*dan, olimpiya sportiga ta'sir etuvchi monopoliyalar,

korporatsiyalar, firmalarning moliyaviy ta'minoti davlat bilan birgalikda amalga oshirildi. *Uchinchidan*, katta sportda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari keng qo'llanila boshladi. *To'rtinchidan*, sportchilarni tayyorlash maqsadida maxsus markazlar, bir necha davlatlar birlashib mashg'ulotlar o'tkazish joylari amalda qo'llanildi. Bunda Oliy o'quv yurtlaridagi Milliy assotsiatsiya, Havaskorlik atletika jamiyati, Milliy Olimpiya qo'mitasi faol ishtirok etgan. Uzoq vaqtlar bu uch tashkilot o'rtasida mustahkam aloqa bo'lmagan, chunki o'zaro kelishmovchiliklar kuchli bo'lgan edi. Moliyaviy ta'minot, milliy jamoani tarkib toptirish, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, boshqa xalqaro musobaqalarda qatnashish kabi masalalarda o'zaro kelisha olmaganlar. Bunday holatlarni tugatishga AQSHda «Havaskorlik sporti haqida»gi qonunning qabul qilinishi (1978) sabab bo'lgan. Shu qonun asosida AQSH MOQ mamlakatdagi barcha havaskorlik sport uyushmalarini o'ziga birlashtirib olgan. Shu sababdan, barcha masalalarni MOQ hal etadi. AQSHda Olimpiya va Panamerika o'yinlarida jamoalarning qatnashish-qatnashmasligini ham MOQ hal etadi.

AQSH MOQ Olimpiya va Panamerika o'yinlariga jamoalarni tayyorlash, qatnashish va barcha faoliyatlarga rahbarlikni amalga oshiradi. Bunda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, sportchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish, ilmiy-uslubiy tavsiyalar tarqatish va boshqalar muhim o'rin tutadi. AQSHda olimpiya sportining deyarli barcha turlari mavjud. Ular orasida suzish, velosport, o'q otish, boks, yengil atletika kabi turlar kengroq tarqalgan. Ma'qul bo'lgan sport turlaridan ot sporti va yelkanli sport, golf, qilichbozlik kabilar hisoblanadi. Bu turlar bilan ko'pincha xususiy sport klublari shug'ullangan edi. Ularga badavlat kishilar a'zo bo'ladilar. Shular qatorida baliq ovi, sayohat, sokker, beysbol va regbi ko'p qo'llanilgan. Amerika terma jamoalarini tayyorlash o'quv mashg'ulot markazlari Kolorado-Springs va Skvo-Vellida o'tkaziladi. Kolorado-Springs sport majmuida bir yo'la 800 sportchi shug'ullanishi mumkin. Olimpiya sportining yuqori natijalarga ko'maklashuvchi masalalarini Agoya, Arizona, Janubiy Kaliforniya universitetlarining laboratoriyalarida o'rganiladi.

Xalqaro sport harakati va Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi yoshlarni sportga jalb etish, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va ularning sport mahoratlarini oshirishda katta rag'batlantiruvchi kuch bo'ldi. Bu jarayonlar AQSH, GFR, Fransiya, Italiya, Skandinaviya mamlakatlari hamda Sharqda Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlarda keng rivojlandi.

Yaponiya sportchilari xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib keldilar. Ular 1912 yilgi V Olimpiadadan 1936 yildagi XI Olimpiyadagacha doimiy ravishda ishtirok etgan. 1932 yilgi Olimpiya o'yinlarida (Los-Anjeles) yaponiyaliklar suzish bo'yicha 6 turdan beshtasida g'alabaga erishgan edi. 100 m. masofaga erkin suzish bo'yicha 15 yoshli Ya.Miyazaki birinchi o'rinni egallagan. 1500 m.ga erkin suzish bo'yicha 14 yoshli K.Kitamura g'olib chiqqan edi. U yosh bo'lsa-da, bu masofani 19 daqiqa 12,4 soniyada bosib o'tib, jahon rekordini o'rnatgan. Bu natijani boshqalar faqat 20 yildan keyin o'zgartirishga muvaffaq bo'lgan. Yaponiyalik chavandoz T.Insi o'yinlarda oltin medal sohibi bo'lgan. 1936 yilgi Olimpiadada Yaponiya sportchilari suzish bo'yicha 11 ta medalga ega bo'lib (4-2-5), bu sport turida peshqadam bo'lgan.

Germaniya, Italiya, Yaponiya uchligidagi siyosiy munosabatlar va urush harakatlari bosqinchilik hamda fashistlashish darajasiga ko'ra bir-birini to'ldirgan edi. O'quvchilar va yoshlarni harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash, harbiy xizmatlarning jangovarligini oshirishda sport-gimnastika tashkilotlari davlat hokimiyatiga yaqindan yordam bergan. Xalqaro sport harakati va uning g'oliblariga ma'lum darajada itoat etgan bu davlatlar Olimpiya o'yinlarida ustunlik bilan ishtirok etib keldi. Bunday jihatlar har bir mamlakatdagi sportchi yoshlarning qiziqishlarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.

AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport-gimnastika harakati birmuncha o'zgacha rivojlangan.

Rossiya. 1951 yil 7 mayda Venadagi XOQning sessiyasida Sovet mamlakati Milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan tan olingan. 1952 y. Xelsinkida (Finlyandiya) sovet sportchilari ilk bor Olimpiya o'yinlarida qatnashgan. Shu davrdan boshlab sovet sportchilari Xalqaro sport va olimpiya o'yinlarining eng faol ishtirokchilariga aylangan edi. 1980 yilda XXII yozgi

Olimpiya o'yinlari Rossiyaning markazi Moskvada o'tkazilgan. Bu o'yinlar sotsialistik tizimdagi barcha mamlakatlar uchun birinchi bo'lgan. O'sha vaqtdagi siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, harbiy tahdid haqidagi turli xil uydirmalarning ortib borishi sovetlar va AQSH o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirgan edi. AQSH hukumatining Moskvadagi Olimpiya o'yinlariga boykot qilishiga olib kelgan. Shu sababli AQSH va bir qator boshqa davlatlarning sportchilari o'yinlarda qatnashmaganlar.

1984 yil Los-Anjelesda (AQSH) o'tkazilgan XXIII Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ishtirok etmagan, chunki yuqorida qayd etilgan siyosiy tahdidlar, AQSH sportchilarining Moskvadagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmaganligiga javob tariqasida shunday xulosalarga kelingan edi. 1988 y. yozgi XXIV Olimpiya o'yinlari Seulda (Janubiy Koreya) tashkil etilgan. Sovet va AQSH sportchilari jahondagi eng kuchli sportchilarning raqobati yana davom etdi. 1992 y. Barselona (Ispaniya) shahrida XXV Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Bunda sobiq sovet sportchilari so'nggi bor uyushgan terma jamoa sifatida o'yinlarda ishtirok etgan. Keyingi davrlardagi Olimpiya o'yinlarida Rossiya va sobiq respublikalar mustaqil ravishda ishtirok etgan.

Nazorat savollari.

1. Qadimgi olimpiya qanday davrlardan iborat?
2. Olimpiya xarakatining maqsad va vazifalari nima?
3. Qadimgi olimpiya o'yinlarining to'xtatilishiga sabab bo'luvchi omillarni ko'rsating?
4. Sog'lom avlod tanlovi qaysi davlatda o'tkazilgan?

Adabiyotlar

1. Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi, "Nasaf", 2004.
2. Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. T.: 2006.
3. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Sharq", 2002.
4. Ernazarov E. Olimpiada—jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: 2008.

1.2. O'ZBEKISTONDA OLIMPIYA HARAKATINING RIVOJLANISHI

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining asoschisi Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan olimpiya g'oyalari, olimpiya ruhi va qadriyatlarining barhayotligi isbotlandi, sportning bugungi kunda insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyati katta ekanligi tasdiqlandi. Bugungi kunda ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go'yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targib etishga xizmat qilmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmalari shakllandi. O'zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya o'yinlari va xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida qatnashish huquqiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o'rin egallashga bor imkoniyatlarini namoyon etmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari ko'pgina nufuzli xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar. O'zbekiston sportchilarining Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya o'yinlaridagi g'alabasi sharafiga O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi va Davlat bayrog'i ko'tariladi.

O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi ikki bosqichdan iborat va o'ziga xos xususiyatlarga ega

I. 1952-1992 yillarni o'z ichiga olgan birinchi davrda mamlakatimiz olimpiya sporti 1991 yilgacha sobiq Ittifoq bo'yicha amal qilgan hukmron tizimning bir qismi bo'lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo'lmagan. O'zbekiston sobiq Ittifoq davrida jahon sport hamjamiyatlariga a'zo bo'lmagan. Sharq va G'arb mamlakatlari bilan sport aloqalar faqat sovet hukumati ruxsati va nazorati ostida o'tkazilgan.

II. 1992 yildan – hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ikkinchi davrda mustaqil O'zbekiston Respublikasida olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmasi tarkib topdi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tashkil qilindi va xalqaro olimpiya harakatiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o'rin egallashga imkoniyatlar yaratildi.

Nazorat savollar:

1. Olimpiya xarakati asoschisi kim?
2. O'zbekisonda olimpiya xarakatining rivojlanishi bosqichlari xaqida aytib bering?
3. Birinchi bosqich nechinchi yillarni o'z ichiga oladi?
4. Mustaqillikdan keyin olimpiya xarakatida qanday o'zgarishlar bo'lganini aytib bering?

Adabiyotlar

1. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.:«Sharq», 2002.
2. Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. T.: 2006.
3. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik.T.: 2017.
4. Djalilova L.A. Olimpiya bilimlari asoslari. Darslik.T.: 2018.

1.3. Paralimpiya xarakati tarixi.

“Paralimpic” atamasi yunoncha “para” old qo'shimchasi (“veside” – “alongside” – “yonida, tashqarida, tashqari” va “atrofida, parallel tarzda”) va “Olympics” so'zlaridan hosil bo'lgan, ya'ni Olimpiya o'yinlari bilan bir qatorda parallel tarzda paralimpiya o'yinlari o'tkaziladi.

“Paralympic” so'z dastlab ikki xil o'qilishiga ega bo'lib, u ikkita so'zning birikishidan hosil bo'lgan: “paraplegic” va “Olympic”, ya'ni paraplegic – shol bo'lib qolgan (shol kasaliga duchor bo'lgan) va Olympic – olimpiya.

Biroq, keyinchalik paralimpiya o'yinlari dasturiga boshqa nogironlar guruhi kiritilishi natijasida, shuningdek, olimpiya va paralimpiya harakati yaqinligi tufayli “paralympic” atamasining oxirgi ma'nosi uning tarkibini tashkil etuvchi so'zlar: “parallel” (parallel) va Olympic (olimpiya) so'zlari ma'nosidan kelib chiqib o'zgartirildi.

Nogironlar sportining rivojlanish tarixi yuz yildan ziyod davrni o'z ichiga oladi. Harakat faolligi nogironlarni tiklashning asosiy omillaridan biri ekanligi XVIII va XIX asrlar dayoq aniqlangan edi. Nogironlarni sportga jalb qilishga dastlabki urinishlar XIX asrda, 1888 yilda Berlinda karlar uchun birinchi sport klubi

shakllantirilganida amalga oshdi. Ilk bor karlar uchun Olimpiada o'yinlari Parijda 1924 yil 10-17 avgust kunlari o'tkazildi. Ularda Belggiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Polsha, Frantsiya va CHexoslovakiyaning rasmiy milliy federatsiyalari vakillari bo'lgan sportchilar ishtirok etdilar. O'yinlarga bunday federatsiyalari mavjud bo'lmagan Italiya, Ruminiya, va Vengriyadan ham sportchilar keldi. O'yinlar dasturi yengil atletika, velosport, futbol, o'q otish va suzish bo'yicha musobaqalarni uz ichiga olgan edi.

Xalqaro karlar sport qo'mitasi 1924 yilning 16 avgustida tashkil topdi. Unga eshitish qobiliyati buzilmagan sportchilarni birlashtiruvchi federatsiyalar kiritildi (XKSQ). XKSQning birinchi kongressi 1926 yil 31 oktabrida Bryusselda bo'lib o'tdi va unda mazkur tashkilotning nizomi qabul qilindi. 1924 yildan boshlab har turt yilda yozgi Butunjahon karlar o'yinlari optkaziladi.

Ikkinchi jahon urush boshlanguniga qadar XKSQ tarkibiga Germaniya, SHveytsariya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Avstriya, AKSH va Yaponiya kirdi.

Paralimpiya sportini rivojlantirish masalasi oltmishinchi yillardan so'ng yangi sifat darajasiga ko'tarildi. Jismoniy tarbiya va sportda bo'lgani kabi, uning asosiy vazifalari - nogironlarning sog'lig'ini saqlash, zamonaviy hayot sharoitlariga moslashishga qaratilgan. Paralimpiya sportining asosiy maqsadi - tanlangan sport turida yuksak sport mahorati, kasbiy mahoratga erishishdir.

Ko'pgina adabiyotlar taxliliga ko'ra sport va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari o'rtasida farq juda katta.

"Nogiron bu – sog'lom odamdir" tushunchasi tibbiyot nuqtai nazaridan 1975 yilda nemis tabibi Zyunderom tomonidan asoslab berilgan. "Biz vaziyatdan kelib chiqamiz," deb yozgan u, "Nogironlar, bir yoki bir necha nuqsonlardan azob chekishlariga qaramay, aslida kasal bo'lmagan odamlardir. Ular faqat jarohati, tug'ma nuqsoni, kasallik yoki jarohat sabab azob chekishadi. Tana va tananing qolgan qismlari deyarli sog'lom va jismoniy stressga bardosh berishi mumkin, agarda organizmning boshqa qismlarni ishlata olsak yaxshi natijalarni qo'lga kiritishimiz muqarrardir. Shu sababli, bu odamlarni sport bilan shug'ullanmaslik

uchun hech qanday sabab yo`q, aksincha, jismonan iloji boricha ko`p harakat qilish funksional organlarning va boshqa qismlarining yaxshi holatini saqlash uchun juda zarurdir"(Zinger, 1975).

Bu nazariya, keyinchalik rivojlanib borgan holda, Xalqaro sport va tibbiy tasnif uchun asos bo`lgan.

Nogironlar sportining asosiy maqsadi nogironlarning qolgan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini kamolga etkazish asnosida sportning yuqori natijalarini namoyish etishga qaratiladi (E. Kochman, 1975).

Uzoq muddatli amaliy tajriba shuni ko`rsatadiki, muskul-skelet tizimida sport bilan shug'ullanadigan nogironlar o`zlarining jismoniy kasalliklariga chidashga, tezda ortopedik protezda harakatlanishi uchun yordam beradi, ijtimoiy foydali ishlarga qaytishadi va jamiyatga integratsiyalashadi. Albatta, barcha yosh guruhlari, ayniqsa bolalar va o`smirlar uchun sport juda zarur.

Paralimpiya o'yinlari – tayanch-harakat appararati funksiyalari va intellektual imkoniyatlari cheklangan sportchilarning oliy xalqaro sport anjumanidir. Ular Xalqaro paralimpiya qu'mitasi tomonidan tan olingan, paralimpiya o'yinlariga mutlaqo mulkchilik qilish huquqiga, jumladan o'yinlarni tashkil qilish, foydalanish, ommaviy axborot vositalari orqali yoritish, shuningdek, uning konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa mutlaq huquqlarga ega milliy paralimpiya qo'mitalari nomidan ishtirok etadilar.

Paralimpiya sporti sportning tarkibiy qismi bo`lib, tayanch-harakat appararati funksiyasi, ko`rish yoki intellektual imkoniyatlari cheklangan shaxslarni sport musobaqalariga tayyorlash va jismoniy rehabilitatsiya, ijtimoiy moslashish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va maxsus yaratilgan sharoitlar asosida sport natijalariga erishish maqsadida musobaqalarda qatnashish maxsus nazariyasi va amaliyoti shaklida paydo bo`ldi.

Birinchi jahon urushigacha paralimpiya sporti va nogironlar sporti kabi tushunchalar yo`q edi. Musobaqalar faqat kar sportchilar orasida o`tkazilar edi. Aravachada o`tiradigan nogironlar uchun sport va ko`rlar sporti endi rivojlanayotgandi.

Germaniyadan Angliyaga 1936 yilda kelgan nevroxirurg Lyudvig Guttman nogironlar uchun tayanch-harakat apparati shikastlangan shaxslarni davolashda reabilitatsiya sportiga bebaho hissa qo`shgan. 1944 yilda Stok-Mandvildagi ingliz milliy reabilitatsiya markazi ochildi, ushbu markaz 20 yil davomida professor Guttman tomonidan boshqarildi. SHuningdek, u Stok-Mandvill ingliz va xalqaro nogironlar tashkilotlarining prezidenti bo`lgan. Ular birinchi bo`lib sport bilan shug`ullanadigan odamlar bilan mashg`ulotlar olib borishgan va ilmiy isbotlab berishgan.

Bularning barchasi nogironlar uchun "Stock-Men-Dvale" o`yinlarini tashkil qilish va o`tkazish uchun turtki bo`ldi. 1948 yil 28-iyul Reabilitatsiya markazida davolanish uchun kelgan bemorlar orasida birinchi sport musobaqalari tashkil qilindi va unda ikkinchi jahon urushida yaralangan 16 kishi (2 ayol va 14 erkak), sobiq askarlar ishtirok etishdi. Mazkur musobaqalarning ochilishi Londondagi sog`lomlar uchun o`tkaziladigan olimpiada o`yinlarining boshlanishiga to`g`ri keldi. Bu o`yinning ochilishida, Lyudvig Guttman shunday dedi: (D. Milcheva, 1984), "Bu yangi sport voqeasi, men oldindan aytaman bu o`yinlar kelajakda xalqaro musobaqalarga aylanadi". Sportchilar ishtirok etgan sport turlari orasida kamondan o`q otish, stol tennisi, aravachalarda basketbol ham bor edi. Bir yil o`tgach, qatnashuvchilar soni 60 kishiga etdi, uch yil o`tgach nogironlar jamoalari sezilarli darajada ko`payib qoldi. Bu Stok-Mandvil o`yinlarini xalqaro miqyosda rivojlantirishga turtki bo`ldi. 1957 yilda 24 mamlakat o`z jamoalarini o`yinlarda qatnashish uchun yubordi, bu o`yinlarda 360 nafar nogiron sportchilar qatnashishdi. Ushbu musobaqalarga 48 mamlakat o`z kuzatuvchilarini yubordi. 1959 yilda musobaqa ishtirokchilari soni 400 nafardan oshdi. "Stock-Men-Dvale" o`yinlari Buyuk Britaniyada keng ommalashib Xalqaro Olimpiya qo`mitasiga qo`shilish g`oyasini keltirib chiqardi.

Professor Guttmanning ta`siri shundaki, u dunyoda birinchi marta jismoniy tarbiya va sport bilan nogironlarni reabilitatsiya qilish uchun tizim yaratdi. Hayotlari umidsiz bo`lgan ko`plab odamlarga umid berdi. U tayanch-harakat apparatida turli

shikastliklarga uchragan nogironlarni jismoniy, aqliy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish uchun sportni kuchli vosita deb atagan.

Professor Guttman dunyodagi nogironlar sportining asoschisi va Paralimpiya harakatining asoschisidir. U Rim Papasi tomonidan "Paralij Kuberten" deb nom oldi. Fond-Mandvill qo`mitasining qaroriga binoan har to`rt yilda bir marta, Olimpiya o`yinlari o`tkaziladigan mamlakatlarda tayanch harakat tizimi shikastlangan nogironlar uchun musobaqalar o`tkazilishi rejalashtirildi . Ushbu taklif Xalqaro Olimpiya Qo`mitasi tomonidan qo`llab-quvvatlandi va 1960 yilda Rimda nogironlar uchun birinchi Paralimpiya o`yinlari bo`lib o`tdi.

Nazorat savollari

- 1.Paralimpiya so`ziga tarif bering?
- 2.Nogironlar sport turlari rivojlanish tarixini aytib bering?
- 3.Nogiron tushinчасiga tariff bering?
- 4.Paralimpiya asoschisi tog`risida aytib bering?
- 5.Stok mandevel o`yinlari to`g`risida gapirib bering?

Adabiyotlar

1. R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov - Jismoniy imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sport mashg`ulotlariga moslashishi o`quv uslubiy qo`llanma.T-2014
2. M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o`yin qoidalari. Ch-2019
3. Horne, Garry Whannel. Understanding The Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London And New York. 2012.
4. Rachel Bladon. The Story Of Olympics: An Unofficial History. Oxford, Macmillan Publishen Limited, 2012.

1.4. O`ZBEKISTONDA PARALIMPIYA HARAKATINING RIVOJLANISHI

Assotsiatsiya o`z faoliyatini boshlagandan beri qator spartakiadalar, chempionatlar, turli xil birinchiliklar va o`rtoqlik uchrashuvlari o`tkazib kelinadi.

2004-yilda Gretsiyada o'tkazilgan parolimpiya o'yinlarida ilk bor O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi. Bugungi kunda sportchilarimiz butunjahon musobaqalarda ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Nogiron sportchilarimiz g'alabalariga misollar keltirib o'tishimiz mumkin. Jumladan, futbol bo'yicha ikki karra jahon chempioni – "Baynal-Minal" jamoasi. Bu jamoa 2007-yilda futbol bo'yicha amputantlar o'rtasida o'tkazilgan Yevropa chempionatida (Moskva) bronza medali sohibi bo'lgan.

Sog'lom sportchilar orasida armrestling bo'yicha 8 karra jahon chempioni Umidjon Ahmedov, yunon-rum va erkin kurash bo'yicha ikki karra Deflimpiya (kar sportchilar o'rtasida) chempioni Po'lat Jo'rayev, Deflimpiya o'yinlari bronza medali sohibi (erkin kurash) Qobil Umbayev, kar o'smirlar o'rtasida shaxmat bo'yicha jahon chempioni Sirojiddin Zayniddinov, kar sportchilar o'rtasida shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni Alisher Anarqulov, kar sportchilar o'rtasida voleybol va basketbol bo'yicha Markaziy Osiyo xalqaro turniri g'olibi – O'zbekiston Respublikasi kar ayollar terma jamoasi, XIV Osiyo o'yinlari (Pusen, Janubiy Koreya) chempioni Yusuf Qodirob va boshqalar.

2006-yilda Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida Osiyo o'yinlari o'tkazildi. O'yinlarda 18 nafar sportchimiz qatnashdi, ulardan 2 nafari sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Sportchilarimizning matonati va irodasi ular erishayotgan g'alabalarda aks etmoqda. 2007-yilda Preshov shahrida (Slovakiya) 16 yoshgacha bo'lgan kar bolalar o'rtasida o'tkazilgan futbol bo'yicha xalqaro turnirda (turnir kar bolalar o'rtasida jahon chempionatiga tenglashtirilgan) yosh futbolchilarimiz bronza medalini qo'lga kiritdilar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yil 25-fevraldagi 1923-sonli "O'zbekiston sportchilarining 2016-yil Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) o'tkaziladigan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlari hamda XV Parolimpiya o'yinlariga tayyorgarlik to'g'risida"gi Qarori hisoblanadi. Aynan shu muhim hujjat tufayli sportchilarimizning o'quv-mashq yig'inlarini zamonaviy me'yorlar asodida o'tkazish, ularning tajribasi va mahoratini oshirish,

musobaqalarga puxta tayyorlash va munosib ishtirok etishlarini ta'minlash uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berildi.

Bizning sportchilarimiz sharafiga ko'plab marotaba Respublika madhiyasu yangrab, bayrog'imiz baland ko'tarilgan, yirik xalqaro musoba-qalarda, Paralimpiya, Deflimpiya, Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida ular g'olib va sovrindor bo'lganlar.

Xullas, nisbatan qisqa davr ichida o'zbek paralimpiyachilari yirik muvaffaqiyatlarga erishib, Osiyo qit'asida paralimpiya harakati yetakchisiga aylandilar. O'zbekistonda paralimpiya sportini rivojlantirishga davlat rahbarining shaxsiy e'tibori bunday yutuqlarni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratmoqda.

Rio-de-Janeyroda O'yinlar davom etgan 11 kun davomida 22 sport turi bo'yicha medallarning 528 komplekti uchun bellashuvlar o'tkazildi. Deyarli 160 mamlakatdan 4000 dan ziyod sportchi maydonga chiqdi. O'zbekistondan Braziliyaga 32 kishidan iborat sport delegatsiyasi yuborildi, O'zbekiston 2016-yilda yozgi Paralimpiya o'yinlariga o'zining 32 nafar vakilini jo'natdi. Sportchilarimiz 16-o'rinni egallab, 5 sport turi bo'yicha 31 ta medal (8 ta oltin, 6 ta kumush va 17 ta bronza) bilan Vatanimizga qaytdilar.

Rio-2016. SOVRINDORLAR

OLTIN

1. Sherzod Namozov — dzyudo (60 kg);
2. O'tkirjon Nigmatov — dzyudo (66 kg);
3. Xusniddin Norbekov —disk uloqtirish;
4. Odil Tulindebaev — dzyudo (100+ kg.);
5. Fotimaxon Amilova —batterfly usulida suzish 100 m;
6. Firdavsbek Musabekov —brass 100 m.

KUMUSH

1. Kirill Pankov —batterfly usulida suzish 100 m;
2. Muslima Odilova — batterfly usulida suzish 100 m;
3. Xaitjon Alimova — dzyudo (70+ kg.);
4. Fotimaxon Amilova — kompleks suzish 200 m.








BRONZA

1. Sevinch Salaeva — dzyudo (62 kg);
5. Muzaffar Tursunxujaev — batterfly usulida suzish 100 m;
6. Fotimaxon Amilova — batterfly usulida suzish 100 m;
2. Tursunposha Nurmatova — dzyudo (63 kg.);
3. Feruz Saidov — dzyudo (73 kg.);
4. Server Ibragimov — o'q otish 10 m;
5. SHirin Sharipov — dzyudo (100 kg.);
6. SHuxrat Boboev — dzyudo (90 kg.);
7. Gulrux Raximova — dzyudo (70 kg.);
8. Shoxsanam Toshpulatova — kompleks suzish 200 m;
9. Doniyor Saliev — uzunlikka sakrash.
10. Axror Bozorov — pauerlifting;
11. Dmitriy Xorlin — erkin usulida suzish 400 m;
12. Miran Saxatov (Jaloliddin Xamrokulov bilan birgalikda), Mansur Abdurashidov, Doniyor Soliev, Faxriddin Xamroev — yugirish 4×100 m.

Paraosiyo o'yinlari. O'zbekiston 77 ta medal bilan musobaqani yakunladi Indoneziya poytaxti Jakarta shahrida III Paraosiyo o'yinlari O'zbekiston sport delegatsiyasi uchun nihoyasiga yetdi, deb xabar beradi MOQ matbuot xizmati. O'zbekistonlik sportchilar tomonidan umumiy hisobda 77 ta medal qo'lga kiritildi. Ularning 35 tasi oltin, 24 tasi kumush va 18 ta bronza medallaridir. O'zbekiston medallar sifati bo'yicha umumjamoa hisobida beshinchi o'rinni egallab turibdi. To'rt yil oldin Incheonda bo'lib o'tgan Paraosiyo o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar 22 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza, umumiy hisobda esa 31 ta medal qo'lga kiritgandilar. Bu safar esa Paraosiyo o'yinlaridagi rekordlar mutlaq yangilandi va O'zbekiston uchun eng yaxshisi bo'lib tarixga kirdi. Bugun musobaqaning so'nggi kunida badminton, velosport va basketbol bo'yicha bellashuvlar o'tkaziladi. Sportning ushbu turlarida o'zbekistonlik sportchilar ishtirok etmaydi.

	MOK	O	K	B	Umumiy
1	Xitoy Respublikasi	162	84	55	301
2	Korea Respublikasi	50	43	42	135
3	Islamic Republic of Iran	50	42	43	135
4	Yaponiya	45	68	76	189
5	Uzbekistan	35	24	18	77
6	Indonesia	33	42	48	123
7	Thailand	23	29	50	102
8	Malaysia	15	24	21	60
9	India	13	24	30	67
10	Hongkong, China	11	15	21	47

O'zbekiston

Sport turlari	 Oltin	 Kumush	 bronza	Umumiy medallar
 <u>Para suzish</u>	15	13	6	34
 <u>Para Atletika</u>	14	6	7	27
 <u>Dzyudo</u>	5	5	5	15
 <u>Para pauerlifting</u>	1	0	0	1
Umumiy	35	24	18	77

SUZISH



Oltin = 15



Kumush = 13



Bronza = 6

№	Sana va vaqti	Sport turi	Sportchilar F.I.Sh.
1	07 / okt / 2018 17:58	Erkaklar 400M erkin uslubda S13 (11-13) - erkak	Horlin Dmitriy
2	07 / okt / 2018 17:58	Erkaklar 400M erkin uslubda S13 (11-13) - erkak	Aslanov Islam
3	07 / okt / 2018 18:11	Ayollar 400M erkin uslubda S13 (11-13) - Ayol	Toshpulatova Shokhsanamkhon
4	07 / okt / 2018 18:11	Ayollar 400M erkin uslubda S13 (11-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
5	08 / okt / 2018 19:03	Ayollar 100M erkin uslubda S13 (12-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
6	08 / okt / 2018 19:03	Ayollar 100M erkin uslubda S13 (12-13) - Ayollar	Toshpulatova Shokhsanamkhon
7	08 / okt / 2018 19:09	Erkaklar 100M erkin uslubda S13 (12-13) - erkak	Aslanov Islam
8	08 / okt / 2018 19:09	Erkaklar 100M erkin uslubda S13 (12-13) - erkak	Tursunkhujaev Muzaffar

9	08 / okt / 2018 19:09	Erkaklar 100M erkin uslubda S13 (12-13) - erkak	Horlin Dmitriy
10	09 / okt / 2018 18:00	Erkaklar 200M Individual Medley SM13 (12-13) erkak	Horlin Dmitriy
11	09 / okt / 2018 18:00	Erkaklar 200M Individual Medley SM13 (12-13) erkak	Musabekov Firdavsbek
12	09 / okt / 2018 18:08	Ayollar 200M Individual Medley SM13 (12-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
13	09 / okt / 2018 18:08	Ayollar 200M Individual Medley SM13 (12-13) - Ayol	Toshpulatova Shokhsanamkhon
14	10 / okt / 2018 18:40	Erkaklar 100M Breaststroke SB13 (12-13) erkak	Musabekov Firdavsbek
15	10 / okt / 2018 18:40	Erkaklar 100M Breaststroke SB13 (12-13) erkak	Aslanov Islam
16	10 / okt / 2018 18:47	Ayollar 100M Breaststroke SB13 (11-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
17	10 / okt / 2018 18:47	Ayollar 100M Breaststroke SB13 (11-13) - Ayol	Toshpulatova Shokhsanamkhon
18	10 / okt / 2018 18:47	Ayollar 100M Breaststroke SB13 (11-13) - Ayol	Mirzokhidova Nigorakhon
19	11 / okt / 2018 17:06	Erkaklar 100M Butterfly S13 (11-13) erkak	Aslanov Islam
20	11 / okt / 2018 17:06	Erkaklar 100M Butterfly S13 (11-13) erkak	Pankov Kirill
21	11 / okt / 2018 17:06	Erkaklar 100M Butterfly S13 (11-13) erkak	Horlin Dmitriy
22	11 / okt / 2018 17:13	Ayollar 100M Butterfly S13 (11-13) - Ayol	Toshpulatova Shokhsanamkhon
23	11 / okt / 2018 17:13	Ayollar 100M Butterfly S13 (11-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
24	11 / okt / 2018 17:13	Ayollar 100M Butterfly S13 (11-13) - Ayol	Mirzokhidova Nigorakhon
25	11 / okt / 2018 19:29	Erkaklar 100M Backstroke S13 (12-13) erkak	Pankov Kirill
26	11 / okt / 2018 19:29	Erkaklar 100M Backstroke S13 (12-13) erkak	Tursunkhujaev Muzaffar
27	11 / okt / 2018 19:36	Ayollar 100M Backstroke S13 (11-13) - Ayol	Toshpulatova Shokhsanamkhon
28	11 / okt / 2018 19:36	Ayollar 100M Backstroke S13 (11-13) - Ayol	Mirzokhidova Nigorakhon
29	11 / okt / 2018 19:36	Ayollar 100M Backstroke S13 (11-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon
30	12 / okt / 2018 17:45	Erkaklar 50M erkin uslubda S12 - erkak	Horlin Dmitriy
31	12 / okt / 2018 19:10	Erkaklar 50M erkin uslubda S13 - erkak	Aslanov Islam
32	12 / okt / 2018 19:10	Erkaklar 50M erkin uslubda S13 - erkak	Tursunkhujaev Muzaffar
33	12 / okt / 2018 19:16	Ayollar 50M erkin uslubda S13 (11-13) - Ayol	Amilova Fotimakhon

34	12 / okt / 2018 19:16	Ayollar 50M erkin uslubda S13 (11-13) - Ayol	Aslanov Islam
----	--------------------------	-------------------------------------------------	---------------

PARA ATHLETICS



GOLD = 14



SILVER = 6






BRONZE = 7

№	Sana va vaqti	Sport turi	F.I.Sh.
1	08 / okt / 2018 09:00	Ayollar uzunkikka sakrash T45/46/47 - Ayol	Abdullaeva Kamolaxon
2	08 / okt / 2018 09:04	Erkaklar nayza uloqtirish F12/13 - erkak	Svechnikov Aleksandr
3	08 / okt / 2018 10:24	Ayollar o'q otish F11/12 - Ayol	Burxanova Safiya
4	08 / okt / 2018 17:06	Erkaklar o'q otish F35 - erkak	Norbekov Xusniddin
5	08 / okt / 2018 18:02	Ayollar nayza uloqtirish F46 - Ayol	Ergasheva Rozyaxon
6	08 / okt / 2018 19:12	Ayollar 200M T37 - Ayol	Suxanova Sabina
7	08 / okt / 2018 21:01	Erkaklar 200M T13 - erkak	Axmedov Dong'orjon
8	09 / okt / 2018 11:16	Erkaklar o'q otish F12 - erkak	Sultonov Elbek
9	09 / okt / 2018 17:00	Ayollar nayza uloqtirish F55/56 - Ayol	Semyonova Natalya
10	09 / okt / 2018 18:46	Erkaklar 100M T13 - erkak	Axmedov Dong'orjon
11	10 / okt / 2018 10:00	Erkaklar balandlikka sakrash T44/64 - erkak	Giyazov Temurbek
12	10 / okt / 2018 10:11	Ayollar 100M T37 - Ayol	Suxanova Sabina
13	10 / okt / 2018 17:18	Ayollar nayza uloqtirish F57 - Ayol	Xamdamova Moxigul
14	10 / okt / 2018 18:00	Erkaklar o'q otish F41 - erkak	Omonov Bobirjon
15	10 / okt / 2018 19:25	Erkaklar 100M T12 - erkak	Abdirashidov Mansur
16	11 / okt / 2018 09:00	Erkaklar uzunlikka sakrash T12 - erkak	Saliev Dong'or
17	11 / okt / 2018 10:48	Ayollar disk uloqtirish F12 - Ayol	Burxanova Safiya
18	11 / okt / 2018 17:04	Erkaklar o'q otish F42/61/63 - erkak	Rixsimov Muxammad
19	11 / okt / 2018 18:20	Erkaklar 400M T11 - erkak	Saxatov Miran
20	11 / okt / 2018 18:43	Ayollar 400M T37 - Ayol	Suxanova Sabina
21	11 / okt / 2018 18:50	Erkaklar uzunlikka sakrash T36 - erkak	Turgunov Izzat
22	11 / okt / 2018 20:51	Erkaklar 1500M T12/13 - erkak	Xamraev Faxriddin

23	12 / okt / 2018 08:32	Ayollar uzunlikka sakrash T11/12 - ayol	Mirzayorova Asila
24	12 / okt / 2018 09:00	Erkaklar disk uloqtirish F12 - erkak	SULTONOV Elbek
25	12 / okt / 2018 10:23	Erkaklar 1500M T45/46 - erkak	Murodullov Marafjon
26	12 / okt / 2018 17:08	Ayollar uzunlikka sakrash T37/38 - Ayol	Suxanova Sabina
27	12 / okt / 2018 19:25	Erkaklar 5000M T12/13 - erkak	<u>Xamraev Faxriddin</u>

JUDO  oltin = 5  kumish = 5  BRONZA = 5

№	Sana va vaqti	Sport turi	F.I.Sh.
1	08/Oct/2018 15:12	Ayollar Up to 48.00 kg – ayol	Khurramova Lobar
2	08/Oct/2018 15:24	Erkaklar Up to 60.00 kg – erkak	Namozov Sherzod
3	08/Oct/2018 15:32	Ayollar Up to 52.00 kg – ayol	Salaeva Sevinch
4	08/Oct/2018 15:52	Erkaklar Up to 66.00 kg – erkak	Nigmatov Utkirjon
5	09/Oct/2018 11:03	Ayollar Up to 63.00 kg – ayol	Samandarova Parvina
6	09/Oct/2018 15:10	Erkaklar Up to 73.00 kg - erkak	Sayidov Feruz
7	09/Oct/2018 15:25	Ayollar Up to 57.00 kg - ayol	Sheripboeva Nafisa
8	09/Oct/2018 15:40	Erkaklar Up to 81.00 kg - erkak	Mirzaev Nurbek
9	10/Oct/2018 10:58	Ayollar Up to 70.00 kg - ayol	Aliboeva Vasila
10	10/Oct/2018 15:14	Erkaklar Up to 90.00 kg - erkak	Boboev Shukhrat
11	10/Oct/2018 15:20	Erkaklar Up to 100.00 kg - erkak	Khalilov Sharif
12	10/Oct/2018 15:40	Ayollar Over 70.00 kg - ayol	Yusupova Feruzakhon
13	10/Oct/2018 16:14	Erkaklar Over 100.00 kg - erkak	Sharipov Shirin
14	11/Oct/2018 15:00	Erkaklar jamoasi - erkak	Namozov Sherzod, Nigmatov Utkirjon Mirzaev Nurbek, Boboev Shukhrat, Khalilov Sharif
15	11/Oct/2018 15:00	Ayollar jamoasi - ayol	Salaeva Sevinch, Samandarova Parvina, Aliboeva Vasila

PARA POWERLIFTING  GOLD = 1  kumush = 0  BRONZA = 0

№	Sana va vaqti	Sport turi	F.I.Sh.
1	08/Oct/2018 16:35	ayollar Up To 55.00 kg - ayol	Kuzieva Ruza

Nazorat savollari:

1.O'zbekistonda paralimpiyaning rivojlanishi to'g'risida gapirib bering?

2.O'zbekistonlik sportchilarning paralimpiya o'yinlaridagi natijalari to'g'risida gapirib bering?

3.Paraosiyo o'yinlari tog'risida aytib bering?

4. Paraosiyo o'yinlarida O'zbekiston sportchilari natijalarini to'g'risida gapirib bering?

Adabiyotlar

1. R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov - Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma.T-2014
2. M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Ch-2019
3. Horne, Garry Whannel. Understanding The Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London And New York. 2012.
4. Rachel Bladon. The Story Of Olympics: An Unofficial History. Oxford, Macmillan Publishen Limited, 2012.

II-BOB Yozgi olimpiya va paralimpiya sport musobaqalari tarixi.

2.1. Yozgi Olimpiya o'yinlarining rivojlanish tarixi

1896-1912 yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1920-1948 yillardagi Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1952-1988 yillardagi Olimpiadalarning xususiyatlari. 1992 – hozirgi davrgacha o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari.

Yozgi olimpiya o'yinlari - har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan eng yirik xalqaro kompleks sport musobaqalaridir.

I yozgi Olimpiya o'yinlari 1896 yil 6–15 aprelda Afina shahrida (Gretsiya) bo'lib o'tgan. I yozgi Olimpiya o'yinlarida 14 mamlakatdan 295 nafar sportchi ishtirok etgan.

Olimpiya o'yinlari dasturiga **9 ta** sport turlari: **yengil atletika, gimnastika, suzish, og'ir atletika, yunon-rum kurashi, o'q otish, qilichbozlik, velosport va tennis** kiritilgan. Bu o'yinlarda AQSH sportchilari yengil atletika bo'yicha yuqori natijalarni namoyish etganlar.

Garvard universitetining talabasi Jeyms Konnoli sakrash bo'yicha birinchi Olimpiya chempioni bo'lgan. Amerikalik Robert Garret disk uloqtirishda va yadro irg'itishda g'olib bo'lgan, uzunlikka sakrashda ikkinchi va balandlikka sakrashda uchinchi o'rinni egallab, barchaning e'tiborini qozonishga sazovor bo'lgan. Qiziqarli tomoni shundaki, R.Garret umrida disk uloqtirmagan, faqat o'yindan uch kun oldin mashq qilib o'rgangan. Uning tabiiy qobiliyati va sportdagi yutuqlari chempion bo'lishga sabab bo'lgan.

Germaniya sportchisi Karl Shuman yunon-rum kurashi bo'yicha 4 ta oltin medalga sazovor bo'lgan. Gretsiyalik marafonchi Spiridon Luis Olimpiada o'yinlarining qahramoni bo'lgan. Gretsiya sportchilari otish va qilichbozlik bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishganlar.

I (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Gretsiya	10	17	19	46
2	AQSH	11	7	2	20
3	Germaniya	6	5	2	13
4	Frantsiya	5	4	2	11
5	Angliya	2	3	2	7

Gretsiya qiroli Georg I Olimpiya o'yinlarining g'oliblariga medallarni taqdim etgan. Birinchi o'rin uchun kumush medallari, ikkinchi o'rin bronza medallari, zaytun novdalari berilgan. Marafon yugurishini dasturga kiritishni tavsiya etgan akademik Mishel Breal unung g'olibi Spiridon Luisga Olimpiya kubogini taqdim etgan. Taqdirlash marosimidan so'ng atletlar olimpiya madhiyasi sadolari ostida stadiondan tantanali yurib o'tgan edilar. 1896 yildan boshlab Olimpiya o'yinlari g'oliblari sharafiga davlat madhiyasi ijro etilib, davlat bayrog'i ko'tarish an'anasi kiritilgan.

II Olimpiya o'yinlari 1900 yil 14 may – 13 sentabrda Parij shahrida (Frantsiya) o'tkazilgan. Bu o'yinlar Pyer de Kuberten vatanida tashkil etilgan. Olimpiya o'yinlariga **24** davlatdan **1225** nafar (ulardan **22** nafari ayol) sportchilar ishtirok etgan. O'yinlarni o'tkazish uchun tashkiliy qo'mita tuzilib, uning birinchi majlisi 1898 yil 29 mayda bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlari Jahon badiiy ko'rgazmasi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan va bu holat o'yinlar ahamiyatini pasaytirgan. Sport musobaqalari uchun maxsus sport inshootlari qurilmagan. Olimpiya musobaqalari **20** ta sport turi bo'yicha **95** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Amerikalik yengil atletikachilar Elvin Krentslayn (4 ta oltin), Rey Yuri (3 ta oltin) yugurish va sakrash bo'yicha eng yaxshi natija ko'rsatib, Olimpiya o'yinlari qahramoni bo'lganlar. Olimpiya o'yinlarida ilk bor ayollar 1900 yildan boshlab ishtirok etgan. Tennis bo'yicha Sharlotta Kuper, gol'f bo'yicha Margaret Ebbot, Polin Uitter va Darya Prett ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni unvoniga sazovor bo'lganlar.

II (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Frantsiya	26	41	34	101
2	AQSH	19	14	14	47
3	Angliya	15	6	9	30

III Olimpiya o'yinlari 1904 yil 1 iyul–29 oktabrda Sent-Luis shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **13** ta davlatdan **689** nafar (ulardan 6 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Bu Olimpiada Amerika qit'asida bo'lganligi sababli juda kam sportchilar qatnashgan. Yevropa, Osiyo va Avstraliya ko'p jamoalari moddiy qiyinchiliklar tufayli ishtirok etmagan. Olimpiya o'yinlari Jahon texnik ko'rgazmasi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan va bu holat o'yinlar ahamiyatini pasaytirgan, chunki tomoshabinlar ko'prok ko'rgazma bilan qiziqqan edi.

Olimpiya o'yinlarida **18** ta sport turidan **94** ta medallar komplekti uchun musobaqalar o'tkazilgan. Eng yaxshi sport natijalarini amerikalik yengil atletikachilar Rey Yuri, Archi Xan, gimnastika bo'yicha Anton Xeyda (5 ta oltin), Jorj Eyser (3 ta oltin), velosport bo'yicha Markus Xarli (4 ta oltin) ko'rsatgan edi. 1904 yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab g'oliblarga oltin, kumush va bronza medallar berish an'anasi qiritilgan.

III (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	78	82	78	234
2	Germaniya	4	4	5	13
3	Kuba	4	2	3	9

IV Olimpiya o'yinlari 1908 yil 27 aprel – 29 oktabrda London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda **22** ta davlatdan **2035** nafar (ulardan 37 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar **22** ta sport turi bo'yicha **110** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Dasturga ilk bor chim ustida xokkey kiritilgan. Qirol Eduard VII ning talabiga ko'ra marafon yugurish masofasi 40 km 23 m dan 42 km 195 m ga uzaytirilgan, chunki qirolning oilasi Vindzor qal'asi balkonidan marafon startini ko'rishni istagan. Keyingi o'yinlar dasturlarida 42,142 km klassik marafon masofasi bo'lib qolgan.

Londonda sport musobaqalari uchun 70 ming o'rinli stadion, 100 metrli suzish havzasi, velotrek va boshqa maxsus sport inshootlari qurilgan. Bu davrda London shahrida muz ustida uchish maydoni bo'lganligi uchun Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor qishki sport turi konkida figurali uchish kiritilgan. Sport musobaqalari davomida yuqori sport natijalari ko'rsatilib, yengil atletika bo'yicha 3 ta jahon, 13 ta olimpiya rekordlari, suzish bo'yicha 6 ta jahon va olimpiya rekordlari o'rnatilgan.

Angliya sportchisi Genri Teylor suzish bo'yicha 3 ta oltin medalga sazovor bo'lib, Olimpiya o'yinlarining qahramoniga aylangan.

1908 yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab g'oliblarni norasmiy jamoa ochko hisobi bo'yicha aniqlash qoidasi qiritilgan. O'yinlar davrida ingliz ruhoniysi Etel'bert Talbot tomonidan "Eng asosiysi g'alaba emas, ishtirok etishdir" so'zlari aytilgan.

IV (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Buyuk Britaniya	56	51	39	146
2	AQSH	23	12	12	47
3	Shvetsiya	8	6	11	25

V Olimpiya o'yinlari 1912 yil 5 may – 22 iyulda Stokgol'm (Shvetsiya) shahrida bo'lib o'tgan. O'yinlarda **28** ta davlatdan **2547** nafar (ulardan 37 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar **14** ta sport turi bo'yicha **109** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Musobaqalar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan "Qirol" stadioni qurilgan. Olimpiya o'yinlarining eng yaxshi sportchisi deb, amerikalik hindu Jim Torp tan olingan.

V (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Shvetsiya	24	24	17	65
2	AQSH	25	19	19	63
3	Buyuk Britaniya	10	15	16	41

1912 yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish marosimlari kiritilgan. Bu Olimpiya o'yinlarida oxirgi marta sof oltin medallar berilgan. V Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor san'at tanlovi kiritilgan. Pyer de Kuberten san'at tanlovida Martin Eshbax va Jorj Xoxrod taxalluslari ostida ishtirok etgan va "Sport madhiyasi" she'ri uchun oltin medal bilan taqdirlangan.

1896-1912 yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- I yozgi Olimpiya o'yinlari dasturiga ayollar sporti kiritilmagan.
- Olimpiya o'yinlari dasturida yozgi va qishki sport turlari bo'lgan
- sportchilarni va sport rekordlarini ro'yxatga olish bo'yicha tashkiliy hay'at tuzilmagan.
- Olimpiya o'yinlari jihozlanishi past darajada bo'lgan: maxsus sport inshootlari yetishmagan.
- Olimpiya shaharchasi, sportchilarning yetib kelish sanasi va O'yinlar vaqtidagi aniq jadvallar bo'lmagan.
- I-V Olimpiya o'yinlarida faqat mezbon davlat jamoasi g'olib bo'lgan.

VI (yozgi) Olimpiya o'yinlari (1916 y.) Birinchi Jahon urushi sababli o'tkazilmagan.

VII Olimpiya o'yinlari 1920 yil 20 aprel- 12 sentyabr kunlari Antverpen shahrida (Bel'giya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **29** ta davlatdan **2669** nafar (69 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlariga Germaniya kiritilmagan, chunki bu davlat I Jahon urushi sababchisi bo'lgan. Sovet davlati Olimpiya o'yinlarida sovet Milliy Olimpiya qo'mitasi XOQ tomonidan tan olinmaganligi sababli ishtirok etmagan. VII Olimpiya o'yinlarida birinchi marta olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va sportchilarning olimpiya qasamyodi kiritilgan. Belgiyaning eng yaxshi sportchisi Viktor Boen olimpiya qasamyodini aytish sharafiga ega bo'lgan. Olimpiya bayrog'i Pyer de Kuberten tomonidan 1913 yilda tavsiya etilib, 1914 yilda XOQning 20 yilligiga bag'ishlangan Kongressda tasdiqlangan edi.

Sport musobaqalari **26** ta sport turi bo'yicha **154** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Olimpiya musobaqalari natijalari bo'yicha Finlyandiya sportchisi Paavo Nurmi yengil atletikaning 10 000 m va kross yugurish masofalarida 3 ta oltin va 1 ta kumush medallarga ega bo'lib, Olimpiada qahramoni, deb tan olingan.

VII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	41	27	27	95
2	Shvetsiya	19	20	25	64
3	Buyuk Britaniya	16	15	13	44
4	Finlyandiya	15	10	9	34
5	Bel'giya	14	11	11	36

VIII Olimpiya o'yinlari 1924 yil 5-27 iyul kunlari Parij shahrida (Frantsiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **44** ta davlatdan **3092** nafar sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida **17** ta sport turlari bo'yicha **126** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Sport musobaqalarida yengil atletika bo'yicha 8 ta jahon va 14 ta olimpiya rekordlari, suzish bo'yicha 4 ta jahon va 11 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan edi.

Finlyandiya sportchisi Paavo Nurmi yugurish bo'yicha 5 ta oltin medalga sazovor bo'lgan. Paavo Nurmi 1921-1929 yillar oralig'ida 1500 m dan 20 km gacha yugurish masofalari bo'yicha 29 ta jahon rekordlarini o'rnatgan. Amerikalik Jonn Vaysmyuller suzish bo'yicha 3 ta oltin medalga, fransiyalik Roje Dyukre qilichbozlik bo'yicha 5 ta medalga (3 tasi oltin) sazovor bo'lganlar.

1924 yildan boshlab sport musobaqalari natajalarini norasmiy jamoa ochko hisobi asosida aniqlash qoidasi kiritilgan, yani oltita sovrinli o'rinlar uchun ochko belgilangan: birinchi o'rin – 7 ochko, ikkinchi o'rin – 5 ochko, uchinchi o'rin – 4 ochko, to'rtinchi o'rin – 3 ochko, beshinchi o'rin– 2 ochko, oltinchi o'rin – 1 ochko. Bu o'yinlarda ilk bor olimpiya shiori – **“Citius, Altius, Fortius”** – **“Tezroq, Balandroq, Kuchliroq”** so'zlari yangragan. Bu o'yinlar Kuberten rahbarligida o'tkazilgan oxirgi Olimpiya o'yinlari bo'lgan.

VIII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	45	27	27	99
2	Frantsiya	13	15	10	38
3	Finlyandiya	14	13	10	37

IX Olimpiya o'yinlari 1928 yil 17 may - 12 avgust kunlari Amsterdam shahrida (Gollandiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **46** ta davlatdan **3014** nafar (277 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. 1928 yildan boshlab olimpiya mash'alasini yoqish an'anasi kiritilgan. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari mash'alasi Gretsiyaning Alfey daryosi vodiysidagi Kronos tog'i yonida yoqiladi va Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan shaharga keltiriladi. Olimpiya o'yinlari ochilich marosimida tinchlik ramzi sifatida ilk bor oq kabutarlar uchirilgan.

Olimpiya o'yinlarida **14** ta sport turlari bo'yicha **109** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Jonni Vaysmyuller (AQSH) suzish va Paavo Nurmi (Finlyandiya) yengil atletika bo'yicha ikkinchi marta olimpiya chempioni bo'lganlar.

IX (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	22	18	16	56
2	Germaniya	10	7	14	31
3	Finlyandiya	8	8	9	25

X Olimpiya o'yinlari 1932 yil 30 iyul - 14 avgust kunlari Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **37** ta davlatdan **1408** nafar (126 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Xitoy va Kolumbiya sportchilari ilk bor qatnashgan. Olimpiya o'yinlarida **17** ta sport turlari bo'yicha **116** ta medallar komplekti uchun musobaqalar o'tkazilgan. O'yinlar davomida 116 ta olimpiya va 21 ta jahon rekordlari o'rnatilgan. Bunda Yaponiya sportchisi Kusuo Kitamura 14 yoshida 1500 m masofaga suzish bo'yicha ko'rsatgan natijasi (19.12.4.) keyingi 20 yil mobaynida o'zgarmagan. Shvetsiya sportchisi Karl Vestergren sport kurashi bo'yicha uch karra (1920,1924,1932) olimpiya chempioni unvoniga sozovor

bo'lgan. Eng ko'p olimpiya rekordlari suzish (36 ta) va yengil atletika (54 ta) sport turlarida o'rnatilgan. Bu o'yinlarda g'olib sportchilarni podiumga chiqarib taqdirlash an'anasi kiritilgan.

X (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	41	32	30	103
2	Italiya	12	12	12	36
3	Frantsiya	10	5	4	19

Los-Anjeles shahrida sportchilar uchun 700 ta turar uy-joylari qurib berilgan va keyingi davrlarda olimpiya shaharchalarini barpo etish an'anaga aylangan.

XI Olimpiya o'yinlari 1936 yil 1 - 16 avgust kunlari Berlin shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **49** ta davlatdan **4066** nafar (328 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Afg'oniston, Bermud, Boliviya, Kosta-Rika va Lixtenshteyn sportchilari ilk bor qatnashgan.

Olimpiya o'yinlari davomida Adolf Gitler targ'ib etgan irqchilik va millatchilik siyosati yaqqol ko'zga tashlanib turgan. Germaniya natsional-shovinistlari tomonidan Osiyo, Afrika qit'alari vakillari, yahudiylar, turli mamlakatlardan kelgan negr irqiga mansub sportchilar kamsitilgan. Shunga qaramasdan, AQSH sportchisi Jeyms Ouens yengil atletika bo'yicha 4 ta oltin medallarga sazovor bo'lib va 4 ta olimpiya rekordlarini o'rnatib, Olimpiada qahramoniga aylangan. AQSH terma jamoasining yana 10 nafar qora tanli sportchilari 11 medallarni (ulardan 6 ta oltin) egallashga muvaffaq bo'lganlar.

Olimpiya o'yinlarida **19** ta sport turlari bo'yicha **129** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Olimpiya dasturi basketbol, gandbol, baydarkada eshkak eshish sport turlari bilan to'ldirilgan.

XI (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Germaniya	33	26	30	89
2	AQSH	24	20	12	56
3	Vengriya	10	1	5	16

1920 -1936 yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Olimpiya o'yinlarida birinchi marta olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va sportchilarning olimpiya qasamyodi kiritilgan.
- ilk bor olimpiya shiori - "Citius, Altius, Fortius" yangragan.
- Qishki olimpiya o'yinlari alohida o'tkazila boshlagan.
- olimpiya mash'alasini yoqish an'anasi kiritilgan.
- Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari va sportchilar uchun ilk bor maxsus olimpiya shaharchasi qurilgan.

XII (1940) va XIII (1944) yozgi Olimpiya o'yinlari Ikkinchi jahon urushi sababli o'tkazilmagan.

XIV Olimpiya o'yinlari 1948 yil 29 iyul -14 avgust kunlari London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **59** ta davlatdan **4099** nafar sportchi (3714 erkak, 385 ayol) ishtirok etib, **17** sport turidan **136** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalarda qatnashgan. Olimpiya o'yinlariga SSSR, Germaniya va Yaponiya kiritilmagan. O'yinlarda birinchi marta Venesuela, Livan, Birma, Suriya, Puerto-Riko va Shri-Lanka davlatlari jamoalari ishtirok etgan.

XIV (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	38	27	19	84
2	Shvetsiya	16	11	17	44
3	Frantsiya	10	6	13	29

XIV Olimpiya o'yinlarining sport musobaqalari ilk bor milliy televideniya orqali translyatsiya qilingan. Bu Olimpiya o'yinlaridan boshlab volontyorlarning yordam ko'rsatish ishlari tashkil etilgan.

XV Olimpiya o'yinlari 1952 yil 19 iyul – 3 avgust kunlari Xel'sinki shahrida (Finlyandiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **69** ta mamlakatdan **4955** sportchi (518 nafar ayol) ishtirok etib, **21** ta sport turi bo'yicha **149** ta medallar jamlanmasi uchun kurashdilar. Olimpiya o'yinlarida ilk bor Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) jamoasi ishtirok etgan. Lekin Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) jamoasi O'yinlarga kiritilmagan.

Sobiq SSSR Milliy Olimpiya qo'mitasi XOQ tomonidan 1951 yil 7 mayda tan olingan edi. Bu Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ilk bor ishtirok etgan. Sovet sportchilari 2 ta jahon va 6 ta olimpiya rekordlarini o'rnatgan. Olimpiada medallari uchun raqobat kurashi asosan Sovet Ittifoqi, AQSH, Vengriya va Shvetsiya mamlakatlari o'rtasida keskin ravishda o'tgan.

Olimpiada musobaqalari davomida 18 ta jahon va 66 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan. Chexoslovakiya sportchisi Emil Zatopek 5000m, 10000m va marafon yugurish masofalarida birinchi orinni egallab, Olimpiya o'yinlari qahramoniga aylangan.

XV (yozgi) Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	40	19	17	76
2	SSSR	22	30	19	71
3	Vengriya	16	10	16	42

XOQ prezidenti Zigfrid Edstryom Olimpiya o'yinlarining yopilish marosimidagi nutqida "XV Olimpiya o'yinlarini yopiq deb e'lon qilaman" so'zlarini unutib qo'ygan, shuning uchun XV Olimpiya o'yinlari rasman yopilmagan, deb hisoblanadi.

XVI Olimpiya o'yinlari 1956 yilda Mel'burn shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan, ot sporti musobaqalari karantin sababli Stokgol'm shahrida (Shvetsiya) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida yengil atletika, suzish, og'ir atletika, o'q otish turlari bo'yicha 14 ta jahon va 65 ta olimpiada rekordlari o'rnatilgan. Sovet sportchilari 624,5 ochko bilan Olimpiada chempioni bo'ldi. Shu sababli Avstraliya

matbuoti: «Sovet Ittifoqi Amerikaning Olimpiya o'yinlaridagi 60 yillik hukmronligini puchga chiqardi», - deb yozgan edi.

XVI (yozgi) Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	37	29	32	98
2	AQSH	32	25	17	74
3	Avstraliya	13	8	14	35

XVII Olimpiya o'yinlari 1960 yil 25 avgust – 11 sentyabr kunlari Rim shahrida (Italiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida GDR va GFR birlashgan jamoada qatnashgan. Vengriya sportchisi Aladar Gerevich 50 yoshida qilichbozlik bo'yicha 6 karra olimpiya chempioni (1932, 1936, 1948, 1952, 1956, 1960) unvoniga sazovor bo'lgan. Sovet sportchisi Larisa Latinina sport gimnastika bo'yicha 6 ta (3-oltin, 2-kumush, 1-bronza) medallarni olgan. Valeriy Brumel balandlikka sakrashda jahon rekordini o'rnatgan. Yuriy Vlasov uch kurashda 537,5 kg (jahon va olimpiya yangi rekordi) natija bilan Olimpiadaning eng yaxshi sportchi, deb tan olingan. Efiopiya sportchisi Abebe Bikila marafon bo'yicha olimpiya chempioni bo'lgan, masofani oyoq yalang yugurgan. Olimpiya o'yinlari davomida Daniya velosportchisi K.Enemark Yensen doping sababli vafot etgan.

XVII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	43	29	31	103
2	AQSH	34	21	16	71
3	Italiya	13	10	13	36
4	Germaniya	12	19	11	42

XVIII Olimpiya o'yinlari 1964 yil 10 – 24 oktyabrda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlari birinchi marta Osiyo qit'asida o'tkazilgan. Bu o'yinlarda **94** ta mamlakat jamoalari ishtirok etgan: Yevropadan – 28, Afrikadan - 22, Osiyodan - 20, Amerikadan - 21, Avstraliya va Okeaniyadan 2 ta jamoa kelgan. Musobaqalar **23** sport turi bo'yicha **163** medallar jamlanmasi uchun

o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor voleybol va dzyudo kiritilgan. Sport musobaqalari davomida 81 ta olimpiya va 32 ta jahon rekordlari o'rnatilgan.

XVIII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	36	26	28	90
2	Sovet Ittifoqi	30	31	35	96
3	Yaponiya	16	5	8	29
4	Germaniya	10	22	18	50

XIX Olimpiya o'yinlari 1968 yil 12-28 oktyabrda Mexiko shahrida (Meksika) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **112** ta mamlakatdan **5530** nafar (4750 erkak, 780 ayol) sportchi ishtirok etgan. O'yinlarda **20** sport turidan **172** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Mexiko shahri dengiz sathidan 2240 m balandlikda joylashgan bo'lib, uning iqlim sharoiti sportchilarga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramasdan, sport musobaqalari davomida 79 ta olimpiya va 28 ta lahon rekordlari o'rnatilgan. Eng yuqori natijalar engil atletika bo'yicha - 30 ta olimpiya va 14 ta lahon rekordlari - ko'rsatilgan. AQSH sportchisi Robert Bimon uzunlikka sakrashda 8 m 90 sm natija ko'rsatib, jahon rekordini birdaniga 55 sm ga oshirgan. Richard Fosbyuri (AQSH) balandlikka sakrashning yangi texnik usulini birinchi marta namoyish qilgan. Alfred Orter (AQSH) disk uloqtirish bo'yicha to'rt karra (1956,1960,1964,1968) olimpiya chempioni bo'lgan.

XIX (yozgi) Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	45	28	34	107
2	Sovet Ittifoqi	29	32	30	91
3	Yaponiya	11	7	7	25
4	Vengriya	10	10	12	32

XX Olimpiya o'yinlari 1972 yil 26 avgust – 12 sentyabr kunlari Myunxen shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **121** ta mamlakat ishtirok etgan, jumladan 11 ta mamlakat jamoalari yangi kiritilgan. Olimpiya o'yinlariga shovinizm va siyosiy mojarolar sababli Janubiy Rodeziya kiritilmagan. Olimpiya

o'yinlarida **7170** nafar (ulardan 1095 ayol) sportchi **26** sport turidan **195** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalarda qatnashgan. O'yinlarda 46 ta jahon va 94 ta olimpiya rekordi o'rnatilgan. Sovet sportchilari Lyudmila Turisheva va Olga Korbut (gimnastika), Valeriy Borzov (sprint) olimpiada chempioni bo'lganlar. Kuba sportchisi Teofilo Stivenson eng yaxshi bokschi deb tan olingan va Olimpiada Kubogi ham berilgan. AQSH sportchisi Mark Spitts suzish bo'yicha 7 ta oltin medallarni egallab, har bir suzish masofalarida jahon rekordini o'rnatgan. Germaniya sportchisi Ulrike Mayfart balandlikka sakrash bo'yicha 16 yoshda, sobiq Ittifoq sportchisi Anatoliy Roshin yunon-rim kurashi bo'yicha 40 yoshda oltin medallarga sazovor bo'lganlar. Yaponiya sportchisi Savao Kato gimnastika bo'yicha uch karra olimpiya chempioni bo'lgan.

1972 yil 5 sentyabrda olimpiya sporti tarixida eng katta fojia sodir bo'lgan. Falastin "Qora sentyabr" tashkilotining terrorchilari olimpiya shaharchasidagi 31-binoga hujum qilib, Isroil delegatsiyasi a'zolarini garovga olgan. Bavariya politsiyasi bilan otishmalar natijasida 11 kishi halok bo'lgan. O'yinlar vaqtincha to'xtatilgan

XX (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	50	27	22	99
2	AQSH	33	31	30	94
3	GDR	20	23	23	66

XXI Olimpiya o'yinlari 1976 yil 17 iyul - 1 avgust kunlari Monreal shahrida (Kanada) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida **92** ta mamlakatdan **6028** nafar (4781 erkak, 1247 ayol) sportchi **21** sport turi bo'yicha **198** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalarda qatnashdilar. O'yinlarda 34 ta jahon va 82 ta olimpiada rekordlari o'rnatilgan. Yunon-rim va erkin kurash bo'yicha sovet sportchilari 12 ta oltin medallarga ega bo'lgan.

Olimpiya o'yinlari ochilishida Afrika mamlakatlarining 28 jamoasi norozilik ifodasi sifatida chiqib ketgan. Chunki Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) va bu

mamlakat bilan sport aloqalarini o'rnatgan Yangi Zelandiya, irqchilikka yo'l qo'rganligiga qaramasdan, o'yinlarga taklif etilgan edi.

Bu Olimpiya o'yinlarida irqchilik muammosidan tashqari, doping muammosi ham avj olgan edi. O'yinlar davomida doping qabul qilgan 12 nafar sportchi ro'yxatga olingan.

XXI (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	49	41	35	125
2	GDR	40	25	25	90
3	AQSH	34	35	25	94

Olimpiada natijalari Afrikada sportning rivoj topayotganligini namoyish etgan. Efiopiya, Keniya, Tunis va boshqa mamlakatlarning sportchilari yaxshi natijalar ko'rsatgan.

XXII Olimpiya o'yinlari 1980 yil 19 iyul – 3 avgust kunlari Moskva shahrida (Sovet Ittifoqi) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlariga V'etnam, Angola, Zimbabve, Mozambik mamlakatlari birinchi marotaba tashrif buyurgan.

Olimpiya o'yinlari birinchi marta sotsialistik davlatda o'tkazilgan. Biroq "sovuq urush" siyosati olimpiya harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan va bir qator kapitalistik mamlakatlarning sportchilari O'yinlarda qatnashmagan. AQSH boshchiligida GFR, Yaponiya, Kanada, Shveysariya, Norvegiya, Argentina milliy olimpiya qo'mitalari Olimpiya o'yinlariga ishtirok etmagan. Buning sabablari, birinchidan, "sovuq urush" siyosati ta'sirida, ikkinchidan, Jahon hamjamiyati Sovet Ittifoqi harbiy qo'shinlarining Afg'onistondan chiqib ketishini talab qilganligi, lekin bu talab bajarilmaganligi oqibatida sodir bo'lgan. O'yinlarda jami **80** ta mamlakatdan **5179** nafar (1115 ayol) sportchilar **25** sport turi bo'yicha **203** medallar komplekti uchun musobaqalarda qatnashgan. Sport musobaqalari davomida 36 ta jahon, 74 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan. Eng yuqori natijalar og'ir atletika bo'yicha ko'rsatilgan: 23 ta olimpiya va 13 jahon rekordlari.

XXII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	80	69	46	205

2	GDR	47	37	42	126
3	Bogariya	8	16	17	41

XXIII Olimpiya o'yinlari 1984 yil 28 iyul – 12 avgust kunlari Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari va bir qator sotsialistik davlatlar ishtirok etmagan, chunki AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini ta'minlanishiga kafolat bermagan edi. O'yinlarda siyosiy sabablarga ko'ra GDR, Bolgariya, Polsha, Kuba, Mongoliya va boshqa davlatlarning sportchilari ishtirok etmaan. Olimpiya o'yinlarida **140** mamlakatdan **6829** nafar (1566 ayol) sportchilar qatnashqan.

XXIII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	83	61	30	174
2	Ruminiya	20	16	17	53
3	GFR	17	19	23	59

XXIV Olimpiya o'yinlari 1988 yil 17 sentyabr – 2 oktyabr kunlari Seul shahrida (Janubiy Koreya) bo'lib o'tgan. XOQ Prezidenti Xuan Antonio Samaranch va Xalqaro sport uyushmalarining rahbarlari tomonidan olib borilgan faol harakatlar tufayli Sovet Ittifoqi va AQSH sportchilari yana Olimpiya o'yinlarida uchrashdilar. O'yinlarda **159** mamlakatdan **8473** nafar sportchi ishtirok etgan.

Olimpiya o'yinlarida **29** sport turi bo'yicha **237** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga birinchi marta stol tennisi kiritilgan, tennis esa qayta tiklangan. Bu Olimpiya o'yinlarida 101 ta olimpiya va 28 ta jahon rekordlari o'rnatilgan.

XXIV (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Sovet Ittifoqi	55	31	46	132
2	GDR	37	35	30	102
3	AQSH	36	31	27	94

1948-1988 yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Xalqaro olimpiya harakatida “sport va siyosat” muammosi paydo bo’lgan.
- Sobiq Ittifoq terma jamoasi Olimpiya o’yinlarida yetakchi pozitsiyalarni egallab olgan.
- XOQ, MOQ va XSF o’zaro munosabatlari yaxshilangan. Olimpiya kongresslari 43 yillik inqirozdan so’ng yana o’z faoliyatini boshlagan.
- XOQ tomonidan yangi milliy olimpiya qo’mitalarining tan olinishi hisobidan olimpiya harakati saflari yanada kengaygan.
- Xalqaro olimpiya harakatida doping va xaqqoniy hakamlik muammosi paydo bo’lgan.

XXV Olimpiya o’yinlari 1992 yil 25 iyul – 9 avgust kunlari Barselona shahrida (Ispaniya) bo’lib o’tgan. Olimpiya o’yinlariga **172** davlatdan **10563** sportchi (2704 ayol) kelgan. Ular o’rtasida **257** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar olib borilgan. Olimpiya o’yinlari dasturiga badminton, beysbol va ayollar dzyudosi kiritilgan.

Bu Olimpiya o’yinlarida sobiq Yugoslaviya respublikalari – Bosniya va Gertsegovina, Sloveniya, Xorvatiya sportchilari alohida jamoalar sifatida qatnashgan. O’yinlarda Latviya, Litva va Estoniya sportchilari ham ilk bor alohida mustaqil jamoa sifatida ishtirok etgan.

Sobiq Sovet Ittifoqi sportchilari Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi (MDH) terma jamoasiga birlashgan. MDH terma jamoasida jami 483 nafar (312 erkak va 171 ayol) sportchi bo’lib, ulardan 276 nafar sportchi Rossiya, 83 – Ukraina, 53 – Belorussiya, 18 – Qozog’iston, 17– O’zbekiston, 10 – Gruziya va Moldaviya, 5 – Ozarbayjon, 4 – Armaniston, 3 – Qirg’iziston va Tojikiston vakillari bo’lgan.

MDH Birlashgan jamoasi tarkibiga **O’zbekiston Respublikasining 17 nafar** sportchisi kiritilgan edi. Ular **3 ta oltin, 2 ta kumush** va **1 ta bronza** medalini qo’lga kiritganlar. O’zbekistondan sport gimnastikasi bo’yicha Oksana Chusovitina va Rozaliya Galiyeva, yengil atletika bo’yicha 4x400 m estafeta g’olibi Marina Shmonina oltin medallarga sazovor bo’lganlar. Og’ir atletikachi Sergey Sirtsov va o’q otish sporti bo’yicha Anatoliy Asrabayev kumush medalga sazovor bo’lganlar.

Qilichbozlik sportida esa hamyurtimiz Valeriy Zaxarevich jamoa musobaqalarida bronza medali bilan taqdirlangan. MDH Birlashgan jamoa sportchilarining g'alabasi sharafiga olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va olimpiya madhiyasi ijro etilgan.

XXV (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	MDH	45	38	29	112
2	AQSH	37	34	37	108
3	Germaniya	33	21	28	82

XXVI Olimpiya o'yinlari 1996 yil 19 iyul – 4 avgust kunlari AQSHnig Atlanta shahrida bo'lib o'tgan. Bu o'yinlar 19 iyuldan 4 avgustgacha davom etdi. Ularda **197** milliy olimpiya qo'mitalarining **10318** nafar (ulardan 3512 ayol) sportchilari ishtirok etgan. Musobaqalar **35** sport turi bo'yicha **271** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor sohil voleyboli, ayollar futboli, softbol, mauntinbayk kiritilgan.

Bu Olimpiya o'yinlaridan boshlab O'zbekiston, Armaniston, Belorussiya, Gruziya, Moldaviya, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston mustaqil davlatlar sifatida ishtirok etgan. Chexiya, Slovakiya, Makedoniya davlatlari ham ilk bor alohida qatnashgan.

XXVI (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	44	32	25	101
2	Rossiya	26	21	16	63
3	Germaniya	20	18	27	65

XXVI Olimpiya o'yinlari davomida ko'ngilsiz hodisa sodir bo'lgan. 27 iyul kuni Istirohat bog'ida bomba portlagan, 44 yoshli amerikalik ayol va 40 yoshli telekommentator vafot etgan.

AQSH Prezidenti Bill Klinton mintaqaning barcha hududlardagi qo'poruvchilarni qoralagan. XOQ bir daqiqa motam sukutini o'tkazib, O'yinlarni davom ettirishga qaror qilgan edi.

XXVII Olimpiya o'yinlari 2000 yil 15 sentyabr – 1 oktyabr kunlari Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlariga **200** davlatdan **10651** nafar (ulardan 4069 ayol) sportchilar tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Koreya – KXDR va Janubiy Koreya – ilk bor birlashgan jamoa sifatida qatnashgan.

Sport musobaqalari davomida 45 ta jahon rekordlari o'rnatilgan, ulardan 26 ta og'ir atletika va 15 ta suzish sport turlari bo'yicha bo'lgan. Niderlandiya sportchisi Inge de Breyn suzish bo'yicha ayollar o'rtasida 50 m va 100 m erkin usul, 100 m batterflyay masofalarida oltin medallarni olgan. Xitoy sportchilari og'ir atletika musobaqalarida jami 7 ta (ulardan 5 ta oltin) medallarga ega bo'lganlar. Olimpiya dasturiga ayollar o'rtasida og'ir atletika ilk bor kiritilgan. Boks bo'yicha Rossiya va Kuba sportchilari bilan bir qatorda O'zbekiston, Qozog'iston, Tailand, Fransiya, Buyuk Britaniya bokschilari birinchi o'rinlarni egallashga muvafaq bo'lganlar. Bu Olimpiada XX asrning oxirgi O'yini sifatida tarixda qolgan.

XXVII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	40	24	33	97
2	Rossiya	32	28	28	88
3	Xitoy	28	16	15	59

XXVIII Olimpiya o'yinlari 2004 yil 13 – 29 avgust kunlari Afina shahrida (Gretsiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga **202** davlatdan **10625** nafar (ulardan 4392 ayol) sportchilar tashrif buyurgan. Olimpiya musobaqalari **37** ta sport turi bo'yicha **301** ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Afinada Olimpiya o'yinlari ochilishi marosimi katta tantana bilan boshlanib, qadimgi greklarning milliy an'analari namoyish qilingan. Olimpiada mash'alasini yoqish sharafi grek yaxtachisi Nikolas Kaklamanisga nasib etgan. Olimpiya o'yinlarining yopilish marosimida XOQ Prezidenti Jak Rogge: “O'yinlar tinchlik va do'stlik ruhida o'tkazildi”- deb ta'kidlagan edi. Bu Olimpiya o'yinlari XXI asrning ilk O'yini sifatida tarixda qolgan.

XXVIII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	35	38	29	102
2	Rossiya	27	27	38	92
3	Xitoy	32	17	14	63

XXIX Olimpiya o'yinlari 2008 yilda Pekin shahrida (Xitoy) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlarida jahonning **204** davlatidan **11500** nafar sportchi **28** sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan.

Olimpiada-2008 ramziy timsoli "Fuva" – omad farzandlari, deb nomlangan. Ular beshta bo'lib, nomlari xitoy ierogliflarida *bey-bey* –baliq, *tsin-tsin* – panda, *xuan-xuan* – olov, *in-in* – kiyik, *ni-ni*– qaldirg'och ma'nolarini bildiradi. Bu so'zlarni qo'shib o'qiganda "Beyjinga hush kelibsiz" jumlasini kelib chiqadi.

XXIX (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	51	21	28	100
2	AQSH	36	38	36	110
3	Rossiya	23	21	28	72

XXX Olimpiya o'yinlarining rasmiy timsollari

XXX Olimpiya o'yinlari 2012 yilda London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlarida jahonning **205** davlatidan **10500** nafar sportchi **302** komplekt medallari uchun **26** sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiada o'yinlari davomida jami 44 ta jahon va 117 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan.

XXX (yozgi) Olimpiya o'yinlarining umumjamo'a hisobi

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
-------	--------	-------	--------	--------	------

1	AQSH	46	29	29	104
2	Xitoy	38	27	22	87
3	Angliya	29	17	19	65
4	Rossiya	24	25	33	82

1992-2012 yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Olimpiya harakati safiga sobiq Ittifoq tarkibidan ajralqan yangi Mustaqil davlatlar qo'shilgan.
- "Sovuq urush" davri barham topib, sport va siyosat muammosi bartaraf etildi.
- Xalqaro olimpiya harakatida Paralimpiya va Paraosiy o'yinlarining mavqei oshdi.
- Yoshlar olimpiya o'yinlari joriy qilindi va ular umumjahon ahamiyatga ega bo'ldi.
- Olimpiya sporti tayyorgarligining ilmiy-nazariy asoslari, texnik-taktik usullari, tibbiy-biologik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi yanada takomillashdi.

Xabaringiz bor, keyingi yil Yaponiya poytaxti Tokio shahri XXXII yozgi Olimpiya hamda XVI Paralimpiya o'yinlariga mezbonlik qiladi.

Ushbu musobaqalar uchun O'zbekistondan ham eng sara atletlarimiz licenziyalar qo'lga kiritishda davom etmoqda.

Sportchilarimiz va ularning murabbiylari, delegaciyamiz azolari, shuningdek, OAV xodimlari uchun Tokio-2020 tashkilotchilari tomonidan olib borilayotgan tayyorgarliklar va sport obektlarining qurib bitkazilish jarayonlari o'zbekistonlik jurnalistlarga ham dunyoning 200 dan ortiq davlatidan kelgan hamkasblari qatori tanishtirilib, ular haqida malumot berildi.

Malumki, 2018 yil 28 feral kuni butun dunyo XXXII yozgi Olimpiya hamda XVI Paralimpiya o'yinlarining rasmiy ramzlarini bilib olgan edi.

Yaponiya poytaxtida o'tkazilayotgan 2nd World Press Briefing Tokyo 2020 brifingi doirasida Tokio-2020 tashkiliy qo'mitasining maxsus kengashi ramzlar qanday tanlangani haqida batafsil malumot berdi.

Unga ko'ra, musobaqa ramzlari ovoz berish yo'li bilan aniqlangan. Dastavval Olimpiya hamda Paralimpiya o'yinlari uchun o'z variantlari bilan kelgan dizaynerlar soni 2000 dan ortiq bo'lgan, yakuniy bosqichda esa ularning uch nafari qolgan. SHundan so'ng tanlovga olimpiada ramzlarini aniqlash tarixida ilk bor maktab o'quvchilari jalb qilingan.

Yaponiyadagi 17 ming boshlang'ich talim muassasalari o'quvchilari 109 ming ovoz bilan dizayner Ryo Taniguchi taklif etgan ramzlarini maqullashgan.

MIRAITOWA – mazkur dastlabki Olimpiya o'yinlari ramzining so'zma so'z tarjimasi “mirai” – “kelajak”, “towa” – “boqiylik” manolarini anglatib, “o'tmishdan saboq oling va yangi g'oyalarni ishlab chiqing” — yapon maqolidan ilhomlangan holda yaratilgan. U Ido davriga oid Ichimatsu naqshlari bilan bezalgan, va bu hurmatga sazovor ananalar va yapon madaniyatining zamonaviy innovatsiyasi hisoblanadi.

SOMEITY – ushbu ikkinchi ramz esa Paralimpiya o'yinlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, tashqi ko'rinishida oq-pushti katakchalar, bosh qismida sakura gullari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Uning nomi yaponlar orasida eng mashhur gilos turi bo'lmish “Someiyoshino” va “so mighty” – “juda kuchli” so'zining qo'shilmasidan vujudga kelgan. Someity bazan aqliy hamda jismoniy imkoniyatlari chegaralanganligiga qaramasdan paralimpiya sportchilarining istalgan to'siqlarni engib o'tishini isbotlovchi ramz sifatida ifodalangan.

Tokioda o'tkazilayotgan 2nd World Press Briefing Tokyo 2020 doirasida ishtirokchilar XXXII yozgi Olimpiya hamda XVI Paralimpiya o'yinlari o'tkaziladigan sport inshootlarining tayyorgarlik holati bilan ham tanishish uchun bevosita obektlarga olib borildi.

Tashkiliy qo'mita tomonidan turning birinchi obekti sifatida Tokioning qum bilan ko'tarilgan qismidagi yangitdan barpo etilayotgan Tokyo Aquatics Centre bo'ldi.

Majmua er osti qismini inobatga olmaganda 4 qavatdan iborat bo'lib, 15000 tomoshabinga mo'ljallangan. 65 ming kvadrat metr maydonni egallagan inshoot 2020 yilning fevralida topshirilishi rejalashtirilgan, o'yinlar yakunlangach

bu er Tokioning suv sport turlariga ixtisoslashgan markaziga aylanishi kutilmoqda. Ariake Gymnastics Centre – bu erda badiiy gimnastika, trampolin hamda sport gimnastikasi bo'yicha bahslar o'tkazilishi maqsad qilingan. Inshoot 90 foiz tayyor holatda. U o'z bag'riga 12 ming tomoshabinni sig'dira oladi. Binoda yapon milliy ananalarini saqlab qolish maqsadida asosan yog'och mahsulotlaridan foydalanilgan. SHu tariqa majmua yog'ochdan ishlangan eng yirik sport kompleksiga aylanadi. Yog'och konstrukciyalarining mustahkam metall bog'lamalari bilan qotirilganligi esa inshootning er silkinishlari hamda to'fonlarga chidamlilik darajasini oshishiga xizmat qiladi.

Malumot o'rnida, Ariake Gymnastics Centre ning faqatgina so'nggi pardozlash ishlari qolgan bo'lib, shu yilning o'zida sinov musobaqalari o'tkaziladi.

Yoyogi National Stadium – o'ziga xos memorchilik asosida qurilgan ushbu stadionda Olimpiya o'yinlari paytida gandbol, Paralimpiya o'yinlarida esa badminton hamda aravachali regbi bahslari o'tkaziladi

Inshootga 5 mingga yaqin tomoshabin joylasha oladi. SHu jumladan 100 ga yaqin jurnalistning faoliyat olib borishi uchun ana shuncha o'rinli press-lojalar ajratilgan.

Tokyo Metropolitan Gymnasium hamda National Olympic Stadium inshootlari tadbir ishtirokchilarining alohida qiziqishiga sabab bo'lishi tabiiy. Boisi bu erda yonma-yon joylashgan binolarning birida sport tennisi bo'yicha musobaqalar o'tkazilsa, 1964 yilgi Olimpiya o'yinlarida ham asosiy maydon vazifasini o'tab bergan National Olympic Stadium da 2020 yil 24 iyul sanasiga belgilangan Tokio olimpiadasining ochilish marosimi hamda yopilish marosimlari o'tkaziladi.

Bundan tashqari qayta tamirlanayotgan mazkur stadionda olimpiadaning futbol, engil atletika va marafon hamda paralimpiyaning engil atletika bo'yicha bahslari bo'lib o'tadi.

Ariake Tennis Park da mashg'ulotlar o'tkazishga mo'ljallangan 16 ta hamda saralash bellashuvlari uchun 23 ta kord mavjud. SHuningdek, bu erda bevosita tomoshabinlar ishtirokidagi bahslarga mo'ljallangan yana bitta yangi kord

foydalanishga topshirildi. Ushbu kordda oktyabr oyining so'ngi sanalarida bo'lib o'tadigan xalqaro turnir o'ziga xos sinov vazifasini o'tab beradi.

Bundan tashqari Ariake Tennis Park da Ariake Coliseum nomi bilan ataluvchi 10 ming tomoshabinga mo'ljallangan majmua Olimpiada uchun qayta tamirdan chiqarildi. Ilg'or texnologiyali sport inshootining o'ziga xos jihati – tom qismining 24 daqiqa ichida to'liq ochilib, yana shuncha vaqtda qayta yopilish imkoniyatiga egaligi. SHu boisdan bu erda istalgan toifadagi turnirlarni o'tkazish imkoni mavjud.

Olimpiya o'yinlari dasturidan o'rin olgan sportning to'p bilan xokkey turi bo'yicha bellashuvlar Tokiodagi markaziy bog'lardan birida joylashgan Oi Hockey Stadium da o'tkaziladi.

Tashkiliy qo'mitaning malum qilishicha, bu erda mavjud o'rindiqlarga qo'shimcha tomoshabinlarga mo'ljallangan tribunalar tashkil etiladi. Etiborli jihati Tokio-2020 Olimpiadasi uchun bu erda bir necha yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan sport maydoniga qo'shimcha yana bitta o'yingoh barpo etilgan. Albatta, bir necha kunda barcha olimpiya inshootlarini ko'zdan kechirish imkonsiz, lekin Tokio shahri olimpiada o'tkazish amaliyotiga egaligi va taqdimot qaydnomasiga kiritilgan yangi quriladigan obektlarning deyarli tugallangani XXXII yozgi Olimpiya hamda XVI Paralimpiya o'yinlari Tokio-2020 tashkiliy qo'mitasi tomonidan yuqori saviyada o'tkazilishiga shubha qoldirmadi. Shu bilan Yaponiya poytaxtida o'tkaziladigan XXXII yozgi Olimpiya hamda XVI Paralimpiya o'yinlari oldidan OAV vakillari uchun tashkil etilgan media tur o'z ishini yakunladi. Tokio-2020 olimpiadasi boshlanishiga roppa-rosa bir yil qoldi. Bugun 2019 yilning 24 iyul sanasi. Demakki, bizni Tokio-2020 XXXII yozgi Olimpiya o'yinlaridan roppa-rosa bir yil ajratib turibdi. Yurtdoshlarimiz hali sportchilarimizning Rio-2016 olimpiadasida qo'lga kiritgan yorqin g'alabalarini unutishgani yo'q. Biroq, ana mana deguncha oradan uch yil vaqt ham o'tib ketdi. Oldinda esa kunchiqar yurt mezbonlik qiladigan Olimpiya o'yinlari eshik qoqmoqda. Buyog'iga mamlakatimiz sportchi-yu murabbiylarini eng mas'uliyatli palla kutib turibdi.

2017 yil 9 martda qabul qilingan “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori doirasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Yana 366 kundan keyin Yaponiya poytaxti Tokio shahrida XXXII yozgi Olimpiya o‘yinlari tantanali ochiladi. Ochilish marosimida o‘zbekistonlik sportchilardan iborat katta delegatsiya Tokiodagi muhtasham “Olimpiya” stadionida Vatanimiz bayrog‘ini mag‘rur ko‘tarib o‘tishiga barchamiz guvoh bo‘lishga tilakdoshmiz. Umid qilamizki, Tokio olimpiadasida atletlarimiz o‘zbek xalqiga, yurtdoshlarimizga Rio-de-Janeyrodan ham unutilmas va yorqin g‘alabalarni taqdim etadi.

Tokio olimpiadasining ochilish marosimi 2020 yil 24 iyul kuni mahalliy vaqt bilan 20:20da, O‘zbekiston vaqti bilan esa 16:20da, ya’ni xuddi shu vaqtda boshlanadi. Bunga qadar vatanimiz o‘g‘il-qizlari jahon arenalarida munosib ishtirok etgan holda Tokio-2020 yozgi Olimpiya o‘yinlariga har qachongidanda ko‘p yo‘llanmalarni qo‘lga kiritishlariga umid qilib qolamiz.

Nazorat savollari

1. Birinch yozgi olimpiya o‘yinlari to‘g‘risida gapirib bering?
2. XXX-olimpiya o‘yinlari to‘g‘risida ma’lumot bering?
3. XXXI- olimpiya o‘yinlarida O‘zbekistonlik sportchilar ishtiroki to‘g‘risida aytib bering?
4. Yozgi olimpiya o‘yinlaridagi sport turlari to‘g‘risida gapirib bering?

Adabiyotlar

1. Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi, “Nasaf”, 2004.
2. Niyozov I. Olimpiya sport o‘yinlari. Uslubiy qo‘llanma. T.: 2006.
3. Olimpiya bilimlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: “Sharq”, 2002.
4. Ernazarov E. Olimpiada–jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: 2008.
5. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.

2.2. O'zbekiston sportchilari yozgi Olimpiya o'yinlarida.

O'zbekiston terma jamoasining yozgi Olimpiya o'yinlarida mustaqil ishtiroki 1996 yilda boshlangan. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1996 yil 19 iyul – 4 avgust sanalarida Atlanta shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Bu O'yinlarda dunyoning 197 mamlakatidan 10320 sportchi 26 ta sport turi bo'yicha 271 ta medallar komplekti uchun kurash olib borgan. O'zbekiston sportchilari dzyu-do bo'yicha Armen Bagdasarov kumush, boks bo'yicha Karim To'laganov bronza medallarini qo'lga kiritganlar. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 197 mamlakat orasida 58-o'rinni egallagan.

XXVII yozgi Olimpiya o'yinlari 2000 yil 16-30 sentabrda Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan.

XXVII Olimpiya o'yinlariga 199 davlatdan 10651 nafar sportchi qatnashib, ular 37 ta sport turi bo'yicha 300 ta medallar komplekti uchun bellashgan. Mamlakatimiz terma jamoasi tarkibidagi 77 nafar sportchi Olimpiya o'yinlari dasturining 13 sport turi bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarida Muhammadqodir Abdullaev boks bo'yicha oltin, Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha kumush, Rustam Saidov va Sergey Mixaylov boks bo'yicha bronza medallari sovrindori bo'lganlar. Olimpiya terma jamoamiz norasmiy umumjamoasi hisobida 199 ta mamlakat orasida 41-o'rinni egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi sportchilarini Afina shahrida (Gretsiya) o'tkaziladigan XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida (2004 y.) munosib ishtirok etishlarini ta'minlash to'g'risida»gi qarori 2004 yil 7 iyunda qabul qilingan.

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimizdan 69 nafar sportchi o'yinlar dasturiga kiritilgan sportning 37 turidan 15 ta turi bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha Olimpiada chempioni bo'lgan.

Olimpiya musobaqalarida yunon-rum kurashi bo'yicha 74 kg vaznli sportchilar orasida Aleksandr Doktorashvili oltin medalga sazovor bo'lgan. Erkin kurash

bo'yicha 96 kg vaznli sportchilar o'rtasida Magamed Ibragimov kumush medal sovrindori bo'lgan. Boks bo'yicha O'tkir Haydarov 81 kg, Bahodir Sultonov 51 kg vaznli boks ustalari o'rtasida bronza medallariga sazovor bo'lganlar.

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya jamoasi 202 davlat o'rtasida 34-o'rinni egallagan. Mamlakatimiz vakillari norasmiy umumjamo'a hisobida Sidney Olimpiadasiga nisbatan yetti, 1996-yilgi Atlantadagi o'yinlarga nisbatan esa yigirma to'rt pog'ona yuqoriga ko'tarilgan edilar. Bu Olimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha O'zbekiston sportchilari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida beshinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi o'rinni egallagan.

XXX yozgi Olimpiya o'yinlari 2012 yil 27 iyul - 16 avgust kunlari London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida jahonning 205 davlatidan 10500 nafar sportchi 302 komplekt medallari uchun 26 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etishdi. Olimpiya o'yinlari davomida jami 44 ta jahon va 117 ta olimpiya rekordlari o'rnatildi.

Olimpiya musobaqalarida O'zbekiston sportchilaridan 4 nafari sovrindor, 14 nafari kuchli sakkizlikka kirgan. Olimpiya o'yinlarida jahon chempioni Artur Taymazov uchinchi marta Olimpiada chempioni nomiga sazovor bo'lgan, bronza medallar bilan taqdirlangan Rishod Sobirov (dzyudo), Abbas Atoyev (boks) yuksak mahorat va matonat namunasini ko'rsatgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 14 avgust kuni qabul qilingan "London shahrida bo'lib o'tgan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgan sportchilarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilar taqdirlandi.

Olimpiya o'yinlarida erishgan yutuqlari bilan Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun bronza medallari sohiblari bo'lgan Rishod Sobirov "O'zbekiston iftixori", Abbas Atoyev "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

London Olimpiadasi chempioni Artur Taymazov yurtimizning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish ishiga qo'shgan ulkan hissasi, Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgani uchun "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi. Davlatimiz Birinchi rahbari I.A. Karimov tomonidan Artur Taymazovga mashhur sportchimizning O'zbekiston bayrog'ini baland tutib turgan oltin suvi yuritilgan haykalchasi taqdim etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013 yil 25 fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016 yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiyada va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarligi to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari 2016 yil 5 - 21 avgust kunlari Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tdi. Rio-2016 Olimpiadasida O'zbekiston boks terma jamoasi 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallar bilan umumjamoada hisobida 1-o'rinni egalladi. O'zbekistonlik bokschi Hasanboy Do'smatov esa texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschi beriladigan "Vel Barker Kubogi" taqdim etildi va mazkur sovrinni qo'lga kiritgan birinchi O'zbekistonlik bokschi bo'ldi. "Vel Barker Kubogi" 1920 yilda Xalqaro yarimprofessional boks assotsiatsiyasi tomonidan ta'asis etilgan bo'lib, 1936 yildan buyon Olimpiada o'yinlarida texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschi beriladigan mukofotdir.

O'zbekiston sportchisi Ruslan Nurudinov og'ir atletikaning 105 kg vazni bo'yicha jami 431 kg og'irlikni yengib, Olimpiada chempioni bo'ldi va yangi olimpiya rekordini o'rnatdi.

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medallari bilan umumjamoada hisobida 207 davlat orasida 21-o'rinni egalladi (*10-12 jadvallar*). Ushbu natijalar bo'yicha O'zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni, MDH davlatlari orasida 2-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o'rinni egalladi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlar o'rtasida olimpiya harakatini targ'ib etishdagi faol ishtiroki, Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlaridagi yuksak sport mahorati

va mardligi, xalqaro spor maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tborini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 12 iyuldagi PQ-2558-sonli qaroriga muvofiq g'olib sportchilar pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

Nazorat savollari

- 1.O'zbekiston terma jamoasining yozgi Olimpiya o'yinlarida mustaqil ishtiroki haqida gapirib bering.
- 2.XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya jamoasi ishtiroki haqida nimalarni bilasiz?
- 3.“Vel Barker Kubogi” haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

- 1.Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi,“Nasaf”, 2004.
- 2.Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. T.: 2006.
- 3.Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: “Sharq”, 2002.
- 4.Ernazarov E.Olimpiada–jahon sporti bayrami.Ilmiy-ommabop risola.T.:2008.
- 5.Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.

2.3. Yozgi paralimpiya o'yinlari

1960 yil. Rim–Italiya.

Bu yil professor LyudvigGuttman g'oyalari to'liq amalga oshdi. Sog'lom odamlar uchun o'tkazilgan Olimpiadadan so'ng, Nogironlar uchun olimpiada o'yinlari start oldi. Ularda 400 ishtirokchi va 300 ta yordam beruvchi shaxslar ishtirok etishdi.

23 mamlakatdan kelgan nogiron sportchilar 7 sport turi bo'yicha kuch sinashdi. Bular: engil atletika, suzish, kamondan o'q otish, kolyaskada basketbol, qilichbozlik, stol tennis va billiard.

Nogironlar aravachasida basketbol o'yini 1942 yilda AQSHda asos solingan shuning uchun Amerika sportchilari bu o'yinlarda tengsiz xisoblanishgan.

Paralimpiya o`yinlari birinchi tajribasi bu sohada ko`plab muammolar borligini ko`rsatib berdi. Olimpiyada o`yinlari bo`lib o`tgan inshootlar nogironlar uchun moslashtirilmagan edi. Nogironlar uchun maxsus sport inshootlari barp oetish, nogironlar uchun qulay sharoit yaratish masalasi kelib chiqdi.

1964 yil. Tokio–Yaponiya.

Tokiodagi Olimpiya o`yinlarida nogiron sportchilar jasorat va g`alabaga bo`lgan irodasi borligini butun dunyoga isbotladi. Ikki hafta davomida ular medallar uchun baxs olib bordilar. Shuni ta`kidlash kerakki, o`sha vaqtda yaponiyalik mutaxassislar nogiron sportchilarni qabul qilishga tayyor emasdilar, chunki Yaponiyada sport reabilitatsiya vositasi hisoblanmasdi. Professor Guttmanning salohiyati va tajribasi tufayli tashkilotning vazifasi muvaffaqiyatli bajarildi. Paralimpiyada o`yinlarida 23 mamlakatdan 400 nafar sportchi ishtirok etdi. Yangi sport turlari sinovdan o`tkazildi: aravachalarda slalom, shtanga ko`tarish, engil atletika sport turlaridan disk uloqtirish kabi 10 turdagi sport turlari bo`yicha baxslashishdi. Yangi rekordlar o`rnatildi, 100 000 dan ortiq tomoshabinlar stadionlarga tashrif buyurishdi va jasorat guvohlari bo`lishdi. Do`stona muhit, tomoshabinlar va ishtirokchilar o`rtasida o`zaro tushunish va xurmat aks etib turdi. Tokiodagi Paralimpiya o`yinlari turli mamlakatlardagi odamlar, dinlar, siyosiy yo`nalishlardagi xalqaro hamkorlikning ajoyib namoyondasi bo`ldi.

Ushbu musobaqalar Yaponiyada nogironlar sportini rivojlanishiga turtki bo`ldi. Paralimpiya o`yinlarining amaliy natijasi nogironlarni sportga jalb qilish zarur ekanligi amaliy isbotlandi.

Bu davr mobaynida dunyoning ko`plab davlatlari Belgiya, Fransiya, Gollandiya, SHvetsiya, SHveytsariya, GDR, Polg`sha, CHexoslovakiya va Kanadada Stok-Mandvilsonga o`xshagan qo`mitalar tashkil etilib, musobaqalar o`tkazish boshlanib ketdi. Ba`zi mamlakatlarda nogironlarning barcha toifalarini birlashtiradigan milliy uyushmalar shakllantirildi.

Xalqaro nogironlar sporti tashkiloti (ISOD) 1963 yilda tashkil etilgan bo`lib, hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Bundan tashqari, Stok-Mandvil qo`mitasi Tokioda bo`lib o`tgani Parolimpiya o`yinlari uchun yangi nomi jahon Olimpiya harakatiga "Qo`shilgan" sog'lom olimpiyalarga parallel ravishda o`tkazilganligi uchun Parolimpiyada o`yinlari deb nomlanishni taklif qilishdi. Musobaqalar Olimpiya o`yinlari singari bir xil sport inshootlarida o`tkazilishi belgilab olingandan beri, ushbu atama hozirgi kunga qadar o`z nomini saqlab qolgan.

Tokioda bo`lib o`tgani Parolimpiya o`yinlarida AQSH terma jamoasi 47 oltin medalni qo`lga kiritib umum jamoa xisobida birinchi o`rinni qo`lga kiritgan bo`lsa, ikkinchi o`rinni 24 oltin medalni qo`lga kiritgan Buyuk Britaniya terma jamoasi, uchinchi o`rinni 11 oltin medal bilan Italiya va Rodeziya mamlakat sportchilari qo`lga kiritib g`olib bo`lishdi.

1968 Parolimpiya o`yinlari Meksikada rejalashtirilgan edi, ammo mamlakat Davlat Qo`mitasi bunday musobaqalarni o`tkazishga tayyor emasligini ma'lum qilgach, Tel-Avivdan uzoqroqda joylashgan Ramat-Tan shahriga ko`chirilgan. Ushbu musobaqalarda 45 mamlakatdan 750 nafar sportchi ishtirok etdi. AQSH jamoasi 30 oltin medal bilan birinchi o`rinni qo`lga kiritdi (M. Bashkirova, 1991).

1976 yilda birinchi qishki Parolimpiya o`yinlari Ornskoldsvik shahrida (Shvetsiya) bo`lib o`tdi, unda nafaqat kolyaskoli nogironlar, balki boshqa nogironlik toifalari bo`lgan sportchilar ham ishtirok etdilar.

Shu yili 1976 yilda Toronto shahrida bo`lib o`tgani yozgi Parolimpiya o`yinlari 40 mamlakatdan 1600 nafar ishtirokchini, shujumladan, ko`r va ko`rish qobiliyati zaif bo`lgan, amputatsiya qilingan sportchilarni, umurtqa jaraxoti va boshqa jismoniy nogironligi bor sportchilarni xam birlashtirdi.

Dastlab nogironlarni davolash va reabilitatsiya qilish maqsadida tashkil qilingan musobaqalar yuqori darajadagi sport tadbiriga aylandi va xalqaro boshqaruv tizimini yaratish zarur bo`ldi. 1982 yilda Nogironlar uchun Xalqaro Sport Tashkiloti, Muvofiqlashtiruvchi Kengashi- ICC tashkil etildi. 1988 yildan YOzgi Parolimpiya o`yinlari Olimpiya o`yinlari bilan bir xil shaharlarida bo`lib o`tdi. Bu Xalqaro Olimpiya qo`mitasi (XOQ) va Xalqaro Parolimpiya qo`mitasi (XPQ)

o`rtasida erishilgan kelishuv natijasi bo`ldi. 1993 yildan buyon muvofiqlashtiruvchi kengash o`z vakolatlarini ushbu tashkilotga to`liq topshirdi.

Paralimpiya sport turlari.

Yozgi turlari.

- Akadem eshkak-eshish;
- kolyaskada basketbol;
- Bochche (nishonga tekkazish);
- velosport;
- Ot sporti;
- Golbol;
- Baydarkada eshkak-eshish;
- Dzyudo;
- Engil atletika;
- Stol tennisi;
- Paratriatlon;
- Elkanli sport;
- Suzish;
- O`q otish;
- Kolyaskada regbi;
- O`tirgan holda voleybol;
- Kamondan o`q otish;
- Kolyaskada tennis;
- Pauerlifting;
- Kolyaskada qilichbozlik;
- Futbol 5x5;
- Futbol 7x7.

Yozgi o`yinlar

O`yinlar	Yil	Musobaqaning ochilishi	Musobaqaning yopilishi	O`tkazilgan davlat va shahar
I	1960	18 sentyabr	25 sentyabr	Rim, Italiya
II	1964	3 noyabr	12 noyabr	Tokio, YAponiya

III	1968	8 noyabr	13 noyabr	Telg'-Aviv, Izrailg'
IV	1972	2 avgust	11 avgust	Geydelg'berg, Federativ Respublika Germaniya (1949—1990) Germaniya
V	1976	3 avgust	11 avgust	Toronto, Ontario, Kanada
VI	1980	21 iyun	5 iyul	Arnem, Niderlandiya
VII	1984	22 iyul/17 iyun	1 avgust/30 iyun	Stok-Mandevilg', Buyuk Britaniya va Ng'yu-York, AQSH
VIII	1988	15 oktyabr	24 oktyabr	Seul, Janubiy Koreya Respublikasi
IX	1992	3 avgust	14 avgust	Barselona, Ispaniya
X	1996	15 avgust	26 avgust	Atlanta, Djordjiya, AQSH
XI	2000	18 oktabr	29 oktyabr	Sidney, Avstraliya
XII	2004	17 sentabr	28 sentyabr	Afini, Gretsiya
XIII	2008	6 sentabr	17 sentyabr	Pekin, Xitoy
XIV	2012	29 avgust	9 sentyabr	London, Buyuk Britaniya
XV	2016	7 sentabr	18 sentabr	Rio-de-Janeyro, Braziliya
XVI	2020	25 avgust	6 sentabr	Tokio, YAponiya
XVII	2024	28 avgust	8 sentabr	Parij, Frantsiya
XVIII	2028	23 avgust	3 sentabr	Los-Andjeles, AQSH

Nazorat savollari

- 1.Yozgi paralimpiya sport musobaqalarining tarixi haqida ma'lumot bering?
- 2.Yozgi paralimpiya sport musobaqalarida sport turlari haqida gapirib bering?
- 3.O'tkazilgan birinchi yozgi paralimpiya sport musobaqalaridagi asosiy muammolar nimalardan iborat?
4. Nogironlarni davolash va rehabilitatsiya qilish maqsadida tashkil qilingan musobaqalar va ularning yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

- 1.R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov - Jismoniy imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sport mashg`ulotlariga moslashishi o`quv uslubiy qo`llanma.T-2014
- 2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o`yin qoidalari. Ch-2019
3. Horne, Garry Whannel. Understanding The Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London And New York. 2012.
- 4.Rachel Bladon. The Story Of Olympics: An Unofficial History. Oxford, Macmillan Publishen Limited, 2012.

III- BOB Qishki olimpiya va paralimpiya sport musobaqalari tarixi.

3.1. Qishki olimpiya o'yinlari va sport musobaqalari tarixi.

Qishki olimpiada o'yinlari. Qishki Olimpiya o'yinlarining umumiy tavsifi. 1924-1936 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1948-1992 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1994 yildan o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. Qishki olimpiya sport turlarining tavsifi va xususiyatlari. Olimpiya o'yinlari musobaqalarining o'sish darajasi. Olimpiya sport turlarining dasturga kiritilish mezonlari.

Qishki Olimpiya o'yinlari – qishki sport turlari bo'yicha har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan kompleks musobaqalardir. I Qishki Olimpiya o'yinlari 1924 yilda Xalqaro sport haftaligi sifatida tashkil qilingan. Sport haftaligi yuqori saviyada tashkil qilingan. Qishki O'yinlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror XOQning 1925 yilda Praga shahrida bo'lib o'tgan sessiyasida qabul qilingan. 1992 yilga qadar qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari bir yilda o'tkazilgan, 1994 yilda ularning oralig'i 2 yilni tashkil etishi to'g'risida qaror qabul qilingan.

1924 – 2014 yillarda o'tkazilgan Qishki Olimpiya o'yinlari

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamla kat	Sport -chi	1-o'rin (davlat)
I	1924	Shamoni, Frantsiya	16	293	Norvegiya
II	1928	Sankt-Morits, Shveysariya	25	464	Norvegiya
III	1932	Leyk-Plesid, AQSH	17	252	AQSH
IV	1936	Garmish-Partenkirxen, Germaniya	28	646	Norvegiya
V	1948	Sankt-Morits, Shveysariya	28	669	Shveysariya
VI	1952	Oslo, Norvegiya	30	694	Norvegiya

VII	1956	Kortina-d’Ampettso, Italiya	32	821	SSSR
VIII	1960	Skvo-Velli, AQSH	30	665	SSSR
IX	1964	Insbruk, Avstriya	36	1091	SSSR
X	1968	Grenobl, Frantsiya	37	1158	Norvegiya
XI	1972	Sapporo, Yaponiya	35	1006	SSSR
XII	1976	Insbruk, Avstriya	37	1123	SSSR
XIII	1980	Leyk-Plesid, AQSH	37	1072	SSSR
XIV	1984	Sarayevo, Yugoslaviya	49	1274	GDR
XV	1988	Kalgari, Kanada	57	1634	SSSR
XVI	1992	Albervil, Frantsiya	64	1801	Germaniya
XVII	1994	Lillexammer, Norvegiya	67	1923	Rossiya
XVIII	1998	Nagano, Yaponiya	72	2176	Germaniya
XIX	2002	Solt-Leyk-Siti, AQSH	77	2399	Germaniya
XX	2006	Turin, Italiya	84	2573	Germaniya
XXI	2010	Vankuver, Kanada	82	2574	Kanada
XXII	2014	Sochi, Rossiya	88	2800	Rossiya

I qishgi Olimpiya o‘yinlari 1924 yil 25 yanvar – 4 fevral kunlari Shamoni shahrida (Frantsiya) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **16** ta davlatdan **293** nafar (11 ayol) sportchi ishtirok etgan. Dastlab bu musobaqalar “VIII yozgi Olimpiya o‘yinlariga bag‘ishlangan Xalqaro sport haftaligi” sifatida tashkil qilingan. Musobaqalar yuqori saviyada tashkil etilganligi va katta qiziqish uyg‘otganligi sababli XOQ qarori bilan I qishgi Olimpiya o‘yinlari, deb hisoblangan. Dasturga bobsley, chang`i sporti, trampindan sakrash, konkida tez yugurish, xokkey, konkida figurali uchish kiritilgan. Ayollar uchun faqat konkida figurali uchish musobaqalari o‘tkazilgan.

Kyorling va harbiylar o'rtasida chang'i sporti bo'yicha ko'guzmali musobaqalar tashkil qilingan.

Norvegiya va Finlyandiya sportchilari chang'i sporti turlarida eng yuqori natijalarga erishgan edi. Norvegiya sportchisi Turleyf Xaut 3 ta oltin va 1 ta bronza medallarga sazovor bo'lgan. Finlyandiya sportchi Klas Tunberg chang'i sportining 1500m va 5000m masofalarida hamda ko'pkurashda birinchi orinlarni egallagan.

I qishki Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	4	7	7	18
2	Finlyandiya	4	3	3	10
3	AQSH	1	2	0	3
4	Avstriya	2	1	0	3

II qishki Olimpiya o'yinlari 1928 yil 11-19 fevral kunlari Sent-Morits shahrida (Shveysariya) o'tkazilgan. O'yinlarda 25 ta davlatdan 464 nafar (26 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Dasturga bobsley, chang'i sporti, trampindan sakrash, konkida tez yugurish, xokkey, skeleton, konkida figurali uchish kiritilgan. Harbiylar o'rtasida chang'i sporti bo'yicha ko'guzmali musobaqalar o'tkazilgan.

II qishki Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	6	4	5	15
2	AQSH	2	2	2	6
3	Shvetsiya	2	2	1	5
4	Finlyandiya	2	1	1	4

III qishgi Olimpiya o'yinlari 1932 yil 4-15 fevral kunlari Leyk-Plesid shahrida (AQSH) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarini Nyu-York shtatining gubernatori Franklin Delano Ruzvelt rasmiy ochib bergan. O'yinlarda 17 ta davlatdan 464 nafar (21 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishgi Olimpiya

o'yinlari birinchi marta Shimoliy Amerikada tashkil qilingan. Leyk-Plesidga yo'l haqqi narxining qimmatligi sababli davlatlar ishtiroki va sportchilar soni oldingi o'yinlarga nisbatan keskin qisqargan. Qishgi sport turlari rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olgan Shvetsiya – 12 nafar sportchi, Finlyandiya – 7 nafar sportchidan iborat delegatsiyalari qatnashgan. AQSH va Kanada sportchilari o'yin ishtirokchilarining 50 foizini (150 nafar) tashkil etgan.

III qishki Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	AQSH	6	4	2	12
2	Norvegiya	3	4	3	10
3	Kanada	1	1	5	7
4	Shvetsiya	1	2	0	3

Musobaqalarda AQSH sportchilari konkida tez yugurish bo'yicha eng ko'p medallarga sazovor bo'lgan, chang'i sporti bo'yicha esa Norvegiya sportchilari eng yuqori natijalarni ko'rsatgan. Avstriya sportchilari konkida figurali uchish, Kanada jamoasi shaybali xokkey bo'yicha olimpiya chempioni bo'lganlar.

IV qishki Olimpiya o'yinlari 1936 yil 6-16 fevral kunlari Garmish-Partenkirxen shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda **28** ta davlatdan **646** nafar (80 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Birinchi marta qishki Olimpiya o'yinlarida Avstraliya, Bolgariya, Gretsiya, Ispaniya, Lixtenshteyn va Turkiya sportchilari qatnashgan. Jahonning progressiv sport jamoatchiligi Olimpiya o'yinlari fashistik davlatda o'tkazilishiga qarshi bo'lgan. Lekin XOQ o'z qarorini o'zgartirmagan. Olimpiya o'yinlarini Germaniya kansleri Adolf Gitler rasman ochib bergan.

Dastlabki qishki olimpiada musobaqalarida asosan Skandinaviya mamlakatlari, ayniqsa Norvegiya sportchilari katta muvaffaqiyatlarga erishgan. 1932 va 1936 yillardagi o'yinlarda g'alaba qozongan norvegiyalik figurachi Soniya Xen olimpiya chempioni bo'lgan. Shveysariya sportchilari bobsley, Germaniya sportchilari chang'i sporti bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan.

IV qishki Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	7	5	3	15
2	Shvetsiya	2	2	3	7
3	Germaniya	3	3	0	6
4	Finlyandiya	1	2	3	6

V qishgi Olimpiya o'yinlari 1948 yil 30 yanvar – 8 fevral kunlari Sankt-Morits shahrida (Shveysariya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda **28** ta davlatdan **669** nafar (77 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlarida birinchi marta Daniya, Islandiya, Livan, Chili, Janubiy Koreya sportchilari qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Shveysariya prezidenti Enriko Selio rasman ochib bergan. Sport musobaqalarida Ikkinchi jahon urushida qatnashmagan davlatlarning terma jamoalari yaxshi natijalarga ega bo'lgan. Shvetsiya sportchilari chang'i sporti va konkida tez yugurish, Shveysariya - bobsley va tog' chang'isi sporti, AQSH sportchilari konkida figurali uchish bo'yicha eng yaxshi natijalar ko'rsatgan.

V qishki Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Shvetsiya	4	3	3	10
2	Norvegiya	4	3	3	10
3	Shveysariya	3	4	3	10
4	AQSH	3	4	2	9

VI qishgi Olimpiya o'yinlari 1952 yil 14 – 25 fevral kunlari Oslo shahrida (Norvegiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda **30** ta davlatdan **694** nafar (109 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlarida ilk bor Yangi Zelandiya, Portugaliya va GFR sportchilari tashrif buyurgan. Olimpiya dasturiga to'pli xokkey bo'yicha ko'rgazma uchrashuvlari o'tkazilgan. Sport musobaqalarida eng ko'p medallarni Norvegiya sportchilari olgan.

VI qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	7	3	6	16
2	AQSH	4	6	1	11
3	Finlyandiya	3	4	2	9
4	Avstriya	2	4	2	8

VII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1956 yil 26 yanvar – 5 fevral kunlari Italiyaning Kortina-d’Ampettso shahrida o‘tkazilgan. O‘yinlarda **32** ta davlatdan **821** nafar (134 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o‘yinlarida ilk bor sobiq SSSR, Boliviya va Eron terma jamoalari ishtirok etgan. 1956-1964 yillarda GDR va GFR sportchilari Birlashgan Germaniya jamoasi sifatida qatnashgan edi.

VII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	7	3	6	16
2	Avstriya	4	3	4	11
3	Shvetsiya	2	4	4	10
4	Finlyandiya	3	3	1	7

VIII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1960 yil 18-28 fevral kunlari Skvo-Velli shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **31** ta davlatdan **665** nafar (144 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o‘yinlarini AQSH vitse-prezidenti Richard Nikson rasman ochib bergan.

VIII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	7	5	9	21
2	AQSH	3	4	3	10
3	Germaniya	4	3	1	8
4	Finlyandiya	2	3	3	8

IX qishgi Olimpiya o‘yinlari 1964 yil 29 yanvar – 9 fevral kunlari Insbruk shahrida (Avstriya) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **37** ta davlatdan **1091** nafar (199 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Bu Olimpiya o‘yinlarida ilk bor Hindiston va Mongoliya terma jamoalari ishtirok etgan. Olimpiya o‘yinlarini Avstriya prezidenti Adolf Shyurf rasman ochib bergan.

IX qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	11	8	6	25
2	Norvegiya	3	6	6	15
3	Avstriya	4	5	3	12
4	Finlyandiya	3	4	3	10

X qishki Olimpiya o‘yinlari 1968 yil 6 -18 fevral kunlari Grenobl shahrida (Fransiya) o‘tkazilgan. O‘yinlarda **37** ta davlatdan **1158** nafar (211 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o‘yinlaridan boshlab GDR va GFR sportchilari alohida jamoalar bo‘lib qatnashgan, Marokash terma jamoasi ilk bor ishtirok etgan. Olimpiya o‘yinlarini Fransiya prezidenti Sharl de Goll rasman ochib bergan.

X qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	6	6	2	14
2	SSSR	5	5	3	13
3	Avstriya	3	4	4	11
4	Frantsiya	4	3	2	9

XI qishgi Olimpiya o‘yinlari 1972 yil 3 – 13 fevral kunlari Sapporo shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **35** ta davlatdan **1006** nafar (206 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishgi Olimpiya o‘yinlari ilk bor Osiyo qit‘asida o‘tkazilgan. Bu Olimpiya o‘yinlarida Filippin sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o‘yinlarini Yaponiya imperatori Xiroxito rasman ochib bergan.

XI qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	8	5	3	16
2	GDR	4	3	7	14
3	Norvegiya	2	5	5	12
4	Shveytsariya	4	3	3	10

XII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1976 yil 4-15 fevral knlari Insbruk shahrida (Avstriya) o‘tkazilgan. O‘yinlarda **37** ta davlatdan **1123** nafar (231 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. XOQ ikkinchi marta Incbruk shahrini tanlagan va bu safar ham olimpiya musobaqalari yuqori darajada tashkil etilgan edi. Bu Olimpiya o‘yinlarida Andorra va San-Marino sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o‘yinlarini Avstriya prezidenti Rudolf Kirxshlayger rasmiy ochib bergan.

XII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	13	6	8	27
2	GDR	7	5	7	19
3	AQSH	3	3	4	10
4	GFR	2	5	3	10

XIII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1980 yil 13-24 fevral kunlari Leyk-Plesid shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **37** ta davlatdan **1072** nafar sportchi qatnashgan. Qishgi Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish uchun Leyk-Plesid shahri ikkinchi marta tanlangan. Bu Olimpiya o‘yinlarida Kipr, Xitoy va Kosta-Rika sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o‘yinlarini AQSH vitse-prezidenti Uolter Mondeyl rasman ochib bergan.

XIII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	10	6	6	22
2	GDR	9	7	7	23
3	AQSH	6	4	2	12
4	Norvegiya	1	3	6	10

XIV qishgi Olimpiya o‘yinlari 1984 yil 8-19 fevral kunlari Sarayevoda (Yugoslaviya) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **49** ta davlatdan **1272** nafar (ulardan 274 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarini Yugoslaviya prezidenti Mika Spilyak rasman ochib bergan.

Finlyandiya sportchisi Mar‘ya Liisa Xyamyalyaynen chang‘i poygasi va estafeta bo‘yicha birinchi o‘rinlarni egallab, Olimpiada o‘yinlari qahramoniga aylangan. Shvetsiya sportchisi Gunde Svan 15, 30 va 50 km poyga musobaqalarida oltin medallarga sazovor bo‘lgan.

XIV qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	6	10	9	25
2	GDR	9	9	6	24
3	Finlyandiya	4	3	6	13
4	Norvegiya	3	2	4	9

XV qishgi Olimpiya o‘yinlari 1988 yil 13-28 fevral kunlari Kalgari shahrida (Kanada) bo‘lib o‘tgan. O‘yinlarda **57** ta davlatdan **1423** nafar (ulardan 301 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarini Kanada general-gubernatori Jan Savve ochib bergan.

XV qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	SSSR	11	9	9	29
2	GDR	9	10	6	25
3	Shveysariya	5	5	5	15
4	Avstriya	3	5	2	10

XVI qishgi Olimpiya o‘yinlari 1992 yil 8-23 fevral kunlari Albervil shahrida (Frantsiya) o‘tkazilgan. O‘yinlarda **64** ta mamlakatdan **1801** nafar (ulardan 488 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarini Fransiya prezidenti Fransua Mitteran rasman ochib bergan.

Bu Olimpiya o‘yinlarida Sloveniya, Xorvatiya, Braziliya, Irlandiya, Jazoir, Bermud orollari, Svazilend va Gonduras sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Sobiq SSSR sportchilari MDH Birlashgan terma jamoasi sifatida qatnashgan. MDH Birlashgan terma jamoasi tarkibiga 129 nafar sportchi: 110 – Rossiya, 8 – Qozog‘iston, 7 – Ukraina, 4 – Belorussiya, 1 nafari O‘zbekiston vakillari bo‘lgan. Latviya, Litva va Estoniya ilk bor mustaqil davlat sifatida qatnashgan. Musobaqalar **12** ta sport turida **57** ta medallar jamlanmasi uchun o‘tkazilgan. O‘zbekiston sportchisi Lina Cheryazova fristayl bo‘yicha ko‘rgazmali musobaqalarda ishtirok etib, fahrli 5-o‘rinni egallagan.

XVI qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Germaniya	10	10	6	26
2	MDH	9	6	8	23
3	Avstriya	6	7	8	21
4	Norvegiya	9	6	5	20

XVII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1994 yil 12-27 fevral kunlari Lillexammer shahrida (Norvegiya) o‘tkazilgan. O‘yinlarida **68** ta mamlakatdan **1737** nafar (522 ayol) sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o‘yinlarida sobiq Ittifoq respublikalari

Belorussiya, Ukraina, Qozog‘iston va O‘zbekiston mustaqil davlatlar sifatida ilk bor tashrif buyurgan. Olimpiya o‘yinlari dasturida **12** sport turi bo‘lib, ular qatoriga fristayl, 500 m va 1000 m short-trek kiritilgan. Norvegiya xalq ertaklarining qahramonlari aka-singil “Xakon va Kristin” o‘yinlarning ramziy belgisi sifatida tanlangan.

O‘zbekiston terma jamoa tarkibi **7** nafar sportchidan iborat bo‘lib, ular Alik Sergiadu, Dinara Nurbaeva, Muslim Sattarov, Yuris Razgulyaev – figurali uchish; Larisa Udodova, Dmitriy Brener va Lina Cheryazova – fristayl bo‘yicha musobaqalarda qatnashgan.

Mustaqil O‘zbekiston olimpiya harakati tarixida Lina Cheryazova olimpiya oltin medaliga sazovor bo‘lgan. XVII qishki Olimpiya o‘yinlarida umumjamoa hisobida O‘zbekiston terma jamoasi **68** ta mamlakat orasida 14-o‘rinni egallagan. Fristayl bo‘yicha 13 ta mamlakatdan kelgan 22 nafar sportchilar orasida L.Cheryazova birinchi o‘rinni egallagan.

XVII qishgi Olimpiya o‘yinlarining fristayl bo‘yicha g‘oliblari

O‘rin	Sportchining ismi-sharifi	Davlat	Ball
1	L.Cheryazova	O‘zbekiston	166,84
2	M.Lindgren	Shvetsiya	165,88
3	X.Lid	Norvegiya	164,13
4	M.Shmid	Shvetsiya	156,88

XVII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Norvegiya	10	11	5	26
2	Germaniya	9	7	8	24
3	Rossiya	11	8	4	23
4	Italiya	7	5	8	20
5	AQSH	6	5	2	13
6	Kanada	3	6	4	13
7	Shveytsariya	3	4	2	9
8	Avstriya	2	3	4	9
9	Janubiy Koreya	4	1	1	6
10	Shvetsiya	2	1	0	3
11	Yaponiya	1	2	2	5
12	Qozog‘iston	1	2	0	3
13	Ukraina	1	0	1	2
14	O‘zbekiston	1	0	0	1

XVIII qishgi Olimpiya o‘yinlari 1998 yil 7-22 fevral kunlari Nagano shahrida (Yaponiya) o‘tkazilgan. Olimpiya o‘yinlarida **72** ta mamlakatdan **2176** nafar (ulardan 787 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishgi Olimpiya o‘yinlarida ilk bor Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg‘iziston, Moldova, Isroil, Keniya, JAR, Trinidad va Tobago, Venesuela, Urugvay, Makedoniya, Bosniya va Gertsegovina davlatlarining terma jamoalari qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarini Yaponiya imperatori Akixito rasman ochib bergan.

O‘yinlarning dasturi **14** ta sport turidan iborat bo‘lib, dasturga kyorling, snoubording, slalom-gigant kiritilgan. Olimpiya o‘yinlarining ramziy belgisi sifatida «Sukki, Nokki, Lekki, Tsukki» - to‘rtta boyqushi (O‘yinlar har 4 yilda o‘tkazilishi ma’nosida) tanlangan edi.

Mazkur qishki Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoa tarkibi 13 nafar sportchidan iborat bo‘lib, ular 3 ta sport turlari bo‘yicha musobaqalarda

qatnashgan. O‘zbekiston sportchilari yaxshi natijalarga erishib, Tat'yana Malinina figurali uchish bo‘yicha 30 nafar sportchilar orasida 8-o‘rinni, Lina Cheryazova fristayl bo‘yicha 24 nafar sportchidan 13-o‘rinni, Komil Urunbayev 50 mamlakat sportchilari orasida 28-o‘rinni, Roman Skornyakov 24 ta mamlakatdan 29 nafar sportchi orasida figurali o‘chish bo‘yicha 19-o‘rinni egalladilar. Mamlakatimiz sportchilarining qishki Olimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi O‘zbekiston sportining jahondagi mavqe‘ini yanada mustahkamladi.

XVIII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Germaniya	12	9	8	29
2	Norvegiya	10	10	5	25
3	Rossiya	9	6	3	18
4	Avstriya	3	5	9	17

XIX qishgi Olimpiya o‘yinlari 2002 yil 8-24 fevral kunlari Solt-Leyk-Siti shahrida (AQSH) o‘tkazilgan. Olimpiya o‘yinlarida **77** ta mamlakatdan **2399** nafar (886 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarida ilk bor Gonkong, Kamerun, Nepal, Tojikiston va Tailand terma jamoalari ishtirok etgan. Olimpiya o‘yinlarining ochilish marosimi 56500 tomoshabinga mo‘ljallangan “Rice Eccles Olympic Stadium” sport kompleksida namoyish etilgan. Olimpiya o‘yinlarini AQSH prezidenti Jorj Bush rasman ochib bergan. XOQ tomonidan Olimpiya o‘yinlari yuqori saviyada o‘tkazilganligi uchun Solt-Leyk-Siti Tashkiliy qo‘mita rahbari Oltin Olimpiya ordeni bilan taqdirlangan. Olimpiya o‘yinlari dasturida **15** sport turi bo‘lib, ularga bobsley (ayollar), skeleton, biatlon, 1500m short trek kiritilgan. Sport musobaqalari **78** ta medallar jamlanmasi uchun o‘tkazilgan. Ayollar o‘rtasida ikki ekipajli bobsley musobaqalarida AQSH sportchilari Jill Bakken va Vonetta Flauers birinchi o‘rinni egallaganlar.

O‘zbekiston terma jamoasi tarkibiga 6 nafar sportchi kirgan: Kamil Urunbayev va Elmira Urunbayeva (tog‘ chang‘isi); Tatyana Malinina, Roman

Skornyakov, Natalya Ponomaryova va Evgeniy Sviridov (figurali uchish). Kamil Urumbayev 79 nafar sportchi orasida 36-o‘rinni, Elmira Urumbayeva – 32 o‘rinni, Roman Skornyakov 29 nafar sportchi orasida 19-o‘rinni, N. Ponomaryova va E. Sviridov 18-o‘rinni egallaganlar. T. Malinina 13-o‘rin egallagan edi, biroq tibbiy qo‘mita tomonidan gripp sababli musobaqalardan chetlatilgan.

XIX qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Germaniya	12	16	8	36
2	AQSH	10	13	11	34
3	Norvegiya	13	5	7	25
4	Kanada	7	3	7	17

Olimpiya o‘yinlarining ramziy belgisi sifatida quyon «Pouder» («Poroh»), koyot «Kopper» («Mis») va qora ayiq «Koul» («Ko‘mir») tanlangan.

XX qishgi Olimpiya o‘yinlari 2006 yil 10-26 fevral kunlari Turin shahrida (Italiya) bo‘lib o‘tgan. Olimpiya o‘yinlarida **80** ta mamlakatdan **2508** nafar sportchi qatnashgan. Qishki Olimpiya o‘yinlarida Jazoir, Senegal, Efiopiya vakillari ilk bor ishtirok etgan. Olimpiya musobaqalari **15** ta sport turidan **84** ta (erkaklar o‘rtasida 45 ta, ayollar – 37 ta, aralash turlarda – 2 ta) medallar komplekti uchun o‘tkazilgan. O‘zbekiston terma jamoasi tarkibiga Kayrat Ermetov (tog‘ chang‘isi), Marina Aganina va Artem Knyazyev (figurali uchish), Anastasiya Gimazetdinova (figurali uchish) kirganlar. Qishki Olimpiadalar tarixida ilk bor O‘zbekiston vakili Evgeniy Rohin figurali uchish musobaqalarida hakamlik qilgan. XX qishki Olimpiya o‘yinlari da umumjamoa hisobida 1-o‘rinni Germaniya, 2 -o‘rinni AQSH, 3 -o‘rinni Avstriya egallagan.

XXI qishgi Olimpiya o‘yinlari 2010 yil 12-28 fevral kunlari Vankuver shahrida (Kanada) o‘tkazilgan. Olimpiya o‘yinlarida **82** ta mamlakatdan **2574** nafar sportchi qatnashgan. Olimpiya o‘yinlarining ochilish va yopilish marosimlari Vankuver markazida joylashgan va 55 ming tomoshabinlarga mo‘ljallangan «BC

Place» yopiq stadionida namoyish etilgan. Olimpiya dasturi **15** ta sport turidan iborat bo‘lgan. Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari uchun **615** ta olimpiya va **399** ta paralimpiya medallari ishlab chiqilgan va ularning diametri 100 mm, qalinligi 6 mm, og‘irligi 500 dan 576 grammgacha bo‘lgan.

O‘zbekistondan bu Olimpiya o‘yinlariga 3 nafar sportchi - Kseniya Grigoryeva va Oleg Shamayev (tog‘ chang‘isi), Anastasiya Gimazetdinova (figurali uchish) ishtirok etgan.

XXII qishgi Olimpiya o‘yinlari 2014 yil 7-23 fevral kunlari Sochi shahrida (Rossiya) o‘tkazilgan. Bu Olimpiya o‘yinlarida **88** ta davlatdan **2800** nafar sportchi qatnashgan. Olimpiya mash’alasi estafetasi Moskva shahrida boshlanib, 123 kun davomida Rossiya Federatsiyasining 83 ta hududini bosib o‘tgan va 40 ming kilometrdan ortiq masofani tashkil etgan. Olimpiya estafetasida 14 ming sportchi ishtirok etgan.

XXII qishki Olimpiya o‘yinlarining medallar jadvali

O‘rin	Davlat	Medallar turi va soni			Jami
		oltin	kumush	bronza	
1	Rossiya	13	11	9	33
2	Norvegiya	11	5	10	26
3	Kanada	10	10	5	25
4	AQSH	9	7	12	28

Olimpiya o‘yinlarining ochilish marosimi “Fisht” stadionida namoyish etilgan. O‘yinlar dasturiga **15** ta sport turidan **98** ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o‘tkazilgan. Sochi Olimpiya o‘yinlarining ramziy belgisi sifatida “Oq ayiq”, “Qor Yo‘lbarsi” va “Oq Quyuncha” tanlangan.

Nazorat savollari.

1. Birinchi qishki olimpiya o‘yinlari tarixi haqida gapirib bering?

2.Qachon I Qishki Olimpiya o'yinlari Xalqaro sport haftaligi sifatida tashkil qilingan.

3.O'tkazilgan qishki olimpiya sport musobaqalari tarixi haqida ma'lumot bering?

4.Qishki olimpiya sport musobaqalarida sport turlarining ahamiyati.

Adabiyotlar

1.Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi, "Nasaf", 2004.

2.Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. T.: 2006.

3.Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Sharq", 2002.

4.Ernazarov E.Olimpiada-jahon sporti bayrami.Ilmiy-ommabop risola.T.:2008.

3.2. QISHKI OLIMPIYA SPORT TURLARINING TAVSIFI

Olimpiya Xartiyasi talabiga ko'ra olimpiya dasturiga kiritilishi uchun qishki sport turi jahonning 2 ta kontinenti va 25 ta mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lishi kerak. Qishki Olimpiya o'yinlarining zamonaviy dasturiga – konkida yugurish, chang'i poygasi, short-trek, chang'ida tramplindan sakrash, bobsley, tog' chang'isi sporti, chana sporti, skeleton, fristayl, konkida figurali uchish, snoubording, shaybali xokkey, kyorling, biatlon, chang'ida ikkikurash kiritilgan.

Konkida tez yugurish sport turi 500, 1500, 5000 va 10000 m masofalaridan iborat. Konkida tez yugurish musobaqalari I qishki Olimpiya o'yinlari (1924 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Charlz Jutrou 500 m masofasida g'olib bo'lgan. VIII qishki Olimpiya o'yinlari (Skvo-Velli, 1960 y.) dasturiga ilk bor ayollar o'rtasida 500,1000,1500 va 3000 m ga konkida tez yugurish musobaqalari kiritilgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni sobiq Ittifoq sportchisi Lidiya Skoblikova bo'lgan.

Qishki Olimpiya o'yinlari tarixida konkida tez yugurish musobaqalarida Norvegiya sportchilari eng ko'p medallarga (78 ta) sazovor bo'lgan. Keyingi o'rinlarni Niderlandiya (66 ta medal), sobiq Ittifoq (60), AQSH (56), Germaniya, Finlyandiya, Kanada, Shvetsiya Yaponiya, Avstriya terma jamoalari egallagan.

Chang'i poygasi – chang'ida tez yugurish musobaqalari I qishki Olimpiya o'yinlari (Shamoni,1924 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – Norvegiya sportchisi Turleyf Xaut 18 va 50 km masofaslarida g'olib bo'lgan.

Qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga erkaklar o'rtasida 4x10 km chang'i estafetasi, 15 km (18 km o'rniga), 30 km chang'ida poyga, ayollar o'rtasida 10 kmga chang'i poygasi va 3x5 km chang'i estafetasi kiritilgan. VI qishki Olimpiya o'yinlari (Oslo, 1952 y.) dasturiga ilk bor ayollar o'rtasida 10 kmga chang'ida yugurish musobaqalari kiritilgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni – Finlyandiya sportchisi Lidiya Videman bo'lgan.

Short-trek – (ingl. *short* – qisqa, *track* – yo'l) konkida tez yugurishning o'ziga xos turi bo'lib, muz ustida xokkey maydonining ichida belgilangan maxsus aylanma yo'laklarda qisqa masofalarga konkida yugurish musobaqalaridan iborat. XV qishki Olimpiya o'yinlarida (Kalgari, 1988 y.) short-trek bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar otkazilgan. XVI qishki Olimpiya o'yinlarida (Albervil, 1992 y.) ilk bor short-trek olimpiya dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – Koreya sportchisi Kim Ki Xun 1000 m masofasida g'olib bo'lgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Ketni Terner 500 m masofasida g'olib bo'lgan bo'lgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa medallar hisobida 1-o'rinni Koreya, 2-o'rinni – Kanada, 3-o'rinni AQSH terma jamoasi egallagan.

Chang'ida tramplindan sakrash – chang'i sportining bir turi bolib, uning vatani Norvegiya hisoblanadi. I qishki Olimpiya o'yinlarida chang'ida tramplindan sakrash ilk bor olimpiya dasturiga kiritilgan. Bu sport turidan musobaqalar faqat erkaklar o'rtasida o'tkaziladi. Birinchi olimpiya chempioni – Norvegiya sportchisi Yakob Tullin Tams bo'lgan. 1972 yildan boshlab “o'rta” va “katta” tramplindan sakrash (70 m va 90 m) musobaqalariga “chang'ida parvoz”, deb nomlangan turi qo'shilgan. 1992 yilda 70 m va 90 m tramplindan sakrash musobaqalari 90 m va 120 m tramplindan sakrash musobaqalariga o'zgartirilgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa medallar hisobida 1-o'rinni Norvegiya, 2-o'rinni – Finlyandiya, 3-o'rinni Avstraliya terma jamoasi egallagan. Finlyandiya sportchisi Matti Nyukyanen tramplindan sakrash bo'yicha eng ko'p medallarga (5 ta oltin va 1 ta kumush) sazovor bo'lgan.

Bobsley – chana maxsus muz trassa bo'ylab tog'dan tez uchib tushish musobaqasidir. Bobsley uchun trassa turli keskin burilishlardan iborat muz yo'lak

shaklida bo‘lib, uning asosi temir-beton bilan qoplangan. Bobsley chanasining trassa tezligi soatiga 100 km gacha yetadi, uning boshqaruv ruli va tormozi bor. Bobsley trassasining uzunligi, start va finish orasidagi balandlik, yo‘lakdagi burilishlar soni doimiy bir xil bo‘lmagan. Masalan, Leyk-Plesid (1932 y.) da trassa uzunligi 2366 m, vertikal balandlik o‘zgarishlari – 228 m, trassa burilishlari – 26 ta bo‘lgan. Lillexammerda (1994 y.) esa bobsley musobaqalari 1365 m - trassa, 107 m - balandlik va 16 ta burilishlardan iborat bo‘lgan. Ko‘p yillar mobaynida bu sport turi bo‘yicha musobaqalar faqat erkaklar o‘rtasida o‘tkazilgan.

Bobsley vatani Shveysariya hisoblanadi. 1896 yilda Sankt-Morits shahrida bobsley bo‘yicha birinchi sport klubi tashkil qilinib, musobaqa qoidalari ishlab chiqilgan. Dastlab bobsley chanasining ekipaj a‘zolari besh kishidan iborat bo‘lgan, keyinchalik esa ularning tarkibi ikki, to‘rt, sakkiz nafargacha o‘zgargan.

Bobsley musobaqalari ilk bor I qishki Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempionlari – Shveytsariya terma jamoasining to‘rttalik chana ekipaj a‘zolari bo‘lgan. XIX qishki Olimpiya o‘yinlari (2002 y.) dasturiga ilk bor ayollar o‘rtasida bobsley kiritilgan. Bobsley bo‘yicha ayollar o‘rtasida birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchilari Jil Bakken va Vonetta Flauers bo‘lganlar. Qishki Olimpiya o‘yinlarida bobsley bo‘yicha eng ko‘p medallar hisobida 1-o‘rinni Shveysariya, 2-o‘rinni–AQSH, 3-o‘rinni Germaniya sportchilari egallagan.

Skeleton – (ingl. *skeleton* – skelet) chana sportining turi bo‘lib, sportchi harakat yo‘nalishi bo‘yicha chanada boshi oldinga, yuzi pastga qaragan holatda joylashgan bo‘ladi. Skeleton chanasining boshqaruv ruli bo‘lmaydi va chana oyoq kiyimining maxsus bo‘rtmalari orqali boshqariladi. Skeleton vatani – Shveysariya. 1887 yilda Sankt-Morits shahrida birinchi skeleton chanasini yasalgan va sport musobaqalari boshlangan. Skeleton musobaqalari ilk bor II qishki Olimpiya o‘yinlari (1928 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Jennison Xiton bo‘lgan. Skeleton 1948 yilda 20-yillik hamda 2002 yilda 54-yillik tanaffusdan so‘ng yana olimpiya dasturiga kiritilgan. ko‘p mamlakatlarda xalqaro talablarga javob beradigan skeleton trassalari bo‘lmaganligi sababli, bu sport turi uzoq vaqt davomida olimpiya dasturiga kiritilmagan. 2002 yilda ayollar

o'rtasida musobaqalar o'tkazilgan va skeleton bo'yicha birinchi ayol olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Tristan Geyl bo'lgan. Qishki Olimpiya o'yinlari tarixida umumjamo'a hisobida 1-o'rinni – AQSH, 2-o'rinni – Buyuk Britaniya, 3-o'rinni Italiya sportchilari egallagan.

Snoubording – (ingl. *snow* – qor, *board* – taxta) qishki sport turi bo'lib, sportchi maxsus taxta ustida tik turgan xolatda qor bilan qoplangan yarim aylana shaklidagi inshoot ichida akrobatik mashqlarni bajaradi. Snoubording inshooti yarim quvur shaklida quriladi, shuning uchun unung nomi half-payp inglizcha “half” – yarim, “pipe”- truba, quvur ma'nolarini anglatadi. Musobaqalar ikki xil - half-payp va slalom-gigant snoubordingdan iborat.

Sport turi sifatida snoubording 1960-yillardan boshlab rivojlangan va aynan shu yillarda amerikalik kashfiyotchi Sherman Poppen qorli qoyalarda qor taxtacha ustida uchishni o'ylab topgan. Snoubording bo'yicha birinchi musobaqalar 1981 yilda Vudston (AQSH) o'tkazilgan, 1982 yilda esa Vermont shtatida (AQSH) bu sport turi bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalar bo'lib o'tgan. 1983 yilda Soda-Spring shahrida (Kaliforniya) snoubording bo'yicha birinchi Jahon chempionati o'tkazilgan. 1990-yillarda Xalqaro snoubording federatsiyasi (ISF) tashkil topgan.

Snoubording musobaqalari ilk bor XVIII qishki Olimpiya o'yinlari (Nagano, 1998 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya sportchisi Jan Simmen, ayollar o'rtasida – Germaniya sportchisi Nikolya Tost bo'lgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida snoubording bo'yicha eng ko'p medallarga AQSH, Fransiya, Shveysariya, Germaniya sportchilari sazovor bo'lgan.

Fristayl – (ingl. *free* – erkin, *style* – usul), qishki sport turi, uch xil musobaqalardan iborat: mogul (murakkab sakrashlar bilan notekis trassadan chang'ida uchib tushish), chang'ida akrobatika, chang'ida balet. Fristayl sport turi sifatida ilk bor 1966 yil AQSHning Attitash shahridagi musobaqalarda namoyish qilingan. 1975 yildan boshlab har yili fristayl bo'yicha Jahon kuboklari o'tkazilmoqda. 1979 yilda Xalqaro chang'i sporti federatsiyasi (FIS) tarkibida fristayl bo'yicha texnik ko'mita tuzilgan va bu sport turi FIS rahbarligida

o'tkaziladigan xalqaro musobaqalar dasturiga kiritilgan. 1980-yillarga kelib fristayl 30 dan ziyod mamlakatlarda rivojlangan. 1986 yil Fransiyada bu sport turi bo'yicha birinchi Jahon chempoinati o'tkazilgan.

XV qishki Olimpiya o'yinlarida (Kalgari, 1988 y.) fristayl bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar o'tkazilgan. XVI qishki Olimpiya o'yinlari (1992 y.) dasturiga fristaylning mogul musobaqalari kiritilgan. Mogul bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Fransiya sportchisi Edgar Grospron, ayollar o'rtasida – AQSH sportchisi Donna Ueynbrext bo'lgan.

XVII qishki Olimpiya o'yinlari (1994 y.) dasturiga fristaylning mogul va chang'ida akrobatika turlari kiritilgan. Chang'ida akrobatika bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya sportchisi Andreas Shyonbexler, ayollar o'rtasida O'zbekiston sportchisi Lina Cheryazova bo'lgan. Fristayl bo'yicha eng ko'p medallarga AQSH, Norvegiya, Kanada, Fransiya, Finlyandiya sportchilari sazovor bo'lgan.

Kyorling – (ingl. *curl* – aylantirmoq), muz ustida kegli o'yinining turi, XIV asrda Shotlandiyada paydo bo'lib, so'ng Yevropa va Kanada mamlakatlarida keng tarqalgan. XIX asrda uning shotlandcha, nemischa va shveysarscha o'yin usullari mavjud bo'lgan. 1950 yilda Yevropa va Amerika bir qator mamlakatlarining milliy federatsiyalari tashabbusi bilan Xalqaro kyorling federatsiyasi (FIK) tashkil topgan. 1951 yildan boshlab bu sport turi bo'yicha Yevropa chempionatlari muntazam o'tkazilmoqda.

Zamonaviy kyorling – qishki sport o'yini, 40x30 m muz maydonida o'ynaladi. O'yin maqsadi – muz ustuda chizilgan nishonga bita – diskni (20 kg) tushirish. Bita chizig'i nishondan 31 m masofada bo'ladi. Kyorling bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar I, III, IV, IX, XV, XVI qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. Nihoyat, 1994 yilda XOQ sessiyasida kyorling sport turini olimpiya dasturiga kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. XVIII qishki Olimpiya o'yinlarida (1988 y.) kyorling musobaqalari ilk bor o'tkazilgan. Kyorling bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya, ayollar o'rtasida –

Kanada terma jamoalari bo‘lgan. Olimpiya musobaqalarida kyorling bo‘yicha eng ko‘p medallarga Kanada, Shveysariya, Norvegiya sportchilari sazovor bo‘lgan. 1924 yil 25 yanvarda Olimpiya o‘yinlarida Kyorling bo‘yicha musobaqalar namoyish etildi. Muz bilyardimi?, muz pokeri yoki muz shaxmatimi? Bu sport turini “muz bilyardi”, ”muz pokeri” va “muz shaxmati” deb atashadi.

Kyorling qiziqarli jamoaviy sport o‘yini hisoblanadi va u eni 4,5-5 metr, uzunligi 44-45 metrli to‘g‘ri to‘rtburchak muz maydonida o‘tkaziladi. Ikki jamoa qatnashchilari (har birida 4 kishidan) ketma-ketlikda muz ustida og‘ir granit toshini muzda belgilangan nishon tarafga qaratib, harakatni maxsus cho‘tka orqali yo‘naltirgan holda qo‘yib yuborishadi. Bunday antiq sport turi Shotlandiyada 16-asrda dunyoga kelgan: aynan shu yerda ko‘l sohilida 1511 yil sanasi bilan ishlab chiqarilgan kyorling uchun mo‘ljallangan aslaha topilgan. Bu o‘yin monastir kitoblarida ham qayd qilingan, 1541 yildagi tarixiy sana va shotland Peysli abbatligida saqlanib qolingan. O‘z vaqtida shotlaniyaliklar kyorling o‘yinini “Shaqildoq toshlar” deb atashgan. Kyorling ”curling” so‘zining o‘zi tadqiqotchilarning fikri bo‘yicha, shotlondlarning “curr”, “o‘kirmoq”, “guvillamoq” “gumburlamoq” so‘zlarini anglatar edi. Buday nomlanishi tabiiy, chunki kyorling toshining notekis muz ustida sirpanib o‘kirish, gumburlaganga o‘xshash ovoz chiqaradi. Kyorling o‘yining asosiy qoidalari 19 - asrning birinchi yarmida tasdiqlangan (ular hozir ham o‘zgarmagan). Olimpiada tomoshabinlari esa bu sport turi to‘g‘risida birinchi marta 1924 yil eshitishdi – o‘sha paytda qishki O‘yinlarda kyorling bo‘yicha musobaqalar tantanali tarzda o‘tkazildi. 1998 yilda Niganoda kyorling rasman olimpia o‘yinlari qatoriga kirgan: birinchi oltin medalni Shveysariyaning erkaklar jamoasi va Kanadaning ayollar jamoasi qo‘lga kiritgan. Ammo 2006 yil fevralda Halqaro Olimpia Qo‘mitasi tarixni qayta ko‘rib, qaror qabul qildi, 1924 yildagi kyorling bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqani ham butkul olimpia o‘yinlarining muhim hodisasi deb hisoblash mumkin. Shunga ko‘ra bu sport turida birinchi olimpia sovrindorlari ham almashdi: 1924 yilda oltin medalni Buyuk Britaniya va Irlandiya jamoalari qo‘lga kiritgan edi.

Biatlon sport turning tarixi Biatlon (bi va yunoncha athlon-musobaqa) qishki sport turi, chang'ida yugurish va ma'lum marralarga kelib miltiqdan otish, ya'ni ikki marta (chang'i poygasi va otishda) musobaqalashish. Biatlon 17-asr 70-yillarida Norvegiyada paydo bo'ldi. 1718 yil Shvetsiya Norvegiya urushida jang maydonida to'liq qurollangan Biatlonchilar bo'lgan. Haligacha Norvegiyaning Lillexamer shahri gerbida o'qchi chang'ichining tasviri bor. Biatlon ko'p vaqtgacha «harbiylar sporti» hisoblab kelingan. 1948 yilda Xalkaro zamonaviy beshkurash va Biatlon uyushmasi (UIPMB) tuzildi, unga 70 dan ortiq mamlakat a'zo (1991). 1958 yildan jahon chempionligi uchun musobaqalar o'tkaziladi, 1960 yildan qishki olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. 1984 yildan (Frantsiya) ayollar o'rtasida jahon chempionati o'tkaziladi.

Xokkey sport turning rivojlanish tarixi-Xokkey (ing. hockey) sport o'yini. Darvozalar o'rnatilgan maxsus maydoncha (sahn)da klyushka va to'p (shayba) bilan jamoa bo'lib o'ynaladi. O'yinchilar tomonidan raqib darvozasiga ko'proq to'p (shayba) kiritish maqsad qilib qo'yiladi. Xokkeyning 3 ta asosiy turi bor: chim ustida Xokkey, muz ustida o'ynaladigan to'pli Xokkey, shaybali Xokkey.

Chim ustida Xokkey maydonining o'lchami 91,4x55 m, klyushkasining og'irligi 652—794 g, to'pining og'irligi 156—163 g, o'yin vaqti 90 minut (45 minutdan 2 bo'lim). Musobaqalashayotgan 2 jamoada 11 tadan o'yinchi qatnashadi. Chim ustida Xokkeyga o'xshash o'yinlar miloddan 2 ming yil avval ham Misr, Yunoniston, O'rta Osiyo va boshqa joylarda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda chorvadorlar o'rtasida avval tosh bilan o'ynaladigan podachi, keyinroq ot minib o'ynaladigan chavgon ommalashgan. Chavgon Boburiylar saltanati davrida Hindistonda keng tarqalgan. 19-asrning 2-yarmida Buyuk Britaniyada chim ustida Xokkey klublari tuzildi. 1875 yilda London Xokkey uyushmasi tomonidan chim ustida Xokkeyning zamonaviy o'yin qoidalari ishlab chiqildi. Bu qoida 1907 yilda tasdiklandi. Chim ustida Xokkeyning erkaklar musobaqasi 1908 yildan, ayollar musobaqasi 1920 yildan olimpiada dasturiga kiritilgan. 1924 yilda Xalqaro Xokkey federatsiyasi (FIH) tashkil etilgan, unga 120 davlat a'zo (2003). Bu

federatsiya 1970 yildan erkaklar o'rtasida, 1973 yildan ayollar o'rtasida jahon chempionatlari o'tkazadi. Chim ustida Xokkey Hindiston, Pokiston, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiyada rivojlangan. O'zbekistonda chim ustida Xokkey 20-asrning 70-yillaridan ommalasha boshladi. 1972 yilda Andijonda dastlabki chim ustida Xokkey jamoasi tuzildi. 1973 yildan erkaklar, 1975 yildan ayollar o'rtasida chim ustida Xokkey musobaqalari utkazila boshlandi.

Respublikada chim ustida Xokkeyga ixtisoslashgan 10 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi bor, ularda 45 nafar murabbiy qo'l ostida 1200 nafardan ziyod o'quvchi shug'ullanadi (2004). Miriman Kim, Oybek Patiddinov, Rinat Mamatkazin, Liliya Mutalapova kabi mahoratli murabbiylar yetakchi Xokkeychilarni tarbiyaladi. Ayniqsa, ayol Xokkeychilar yuqori natijalarga erishdi. Valentina Zazdravnix, Nelliko Gorbatkova, Laylo Axmerova va Alina Xam olimpiada o'yinlari bronza medali sovrindorlaridir (1980, Moskva). O'zbekiston chim ustida Xokkey ayollar terma jamoasi Osiyo o'yinlari va jahon kubogi finalida qatnashgan.

To'pli Xokkey maydonining o'lchami 90—100 x 50—65 m, klyushkasining uzunligi 120 sm, qayrilgan qismi 6,5 sm, og'irligi 450 g, to'pining diametri 6 sm, og'irligi 58—62 g, o'yin vaqti 70 minut (35 minutdan 2 bo'lim).

Musobaqalashayotgan 2 jamoada 11 tadan o'yinchi qatnashadi. To'pli Xokkeyga o'xshash o'yinlar Yevropaning shimoliy mamlakatlarida o'rta asrlarda paydo bo'ldi. 1891 yilda Buyuk Britaniyada milliy assotsiatsiya tuzilgan va to'pli Xokkeyning o'yin qoidalari ishlab chiqilgan. 1955 yilda Xalqaro to'pli Xokkey federatsiyasi (IBF) tashkil etilib, to'pli Xokkeyning o'yin qoidalari tasdiqlangan. Federatsiya 1957 yildan jahon chempionatlari (1961 yildan 2 yilda 1 marta) o'tkazib keladi. Rossiya, Shvetsiya, Finlyandiya va boshqa davlatlarda to'pli Xokkey rivojlangan.

Shaybali Xokkey maydonining o'lchami 51—61 x 24—30 m, klyushkasining uzunligi 140 sm, qayrilgan qismi 37,5 sm, og'irligi 500 g, rezinadan tayyorlangan shaybaning diametri 7,62 sm, qalinligi 2,54 sm, og'irligi 150—170 g, o'yin vaqti 60 minut (20 minutdan 3 bo'lim). Musobaqalashayotgan 2 jamoada 6 tadan o'yinchi qatnashadi. Shaybali Xokkey 19-asrning 60-yillarida Kanadada paydo

bo'lgan va Yevropaning shimoliy davlatlarida ham keng tarqalgan. 1870 yilda Torontoda shaybali Xokkey assotsiatsiyasi tuzildi. 1886 yilda shaybali Xokkeyning o'yin qoidalari e'lon qilingan. 1892 yildan Kanadada shaybali Xokkey bo'yicha Stenli kubogi musobaqalari o'tkazib kelinadi. 1899 yilda Monrealda shaybali Xokkeyga moslashgan dastlabki yopiq sport saroyi qurildi. 1908 yilda Xalqaro muz ustida Xokkeyligasi (LIHG) tashkil etildi. Unga 40 ga yaqin davlat a'zo (2004). 1924 yildan shaybali Xokkey kishki olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. 1973 yilda Jahon Xokkey assotsiatsiyasi (WHA)ga asos solindi va Stenli kubogi musobaqalarida kanadaliklar bilan birga AQSh professional klublari qatnasha boshladi. Shaybali Xokkey Kanada, Rossiya, Shvetsiya, AQSh, Chexiya, Finlyandiya, Slovakiya davlatlarida rivojlangan.

Tog' chang'isi sport turi rivojlanish tarixi va o'yin qoidalari

Tog' chang'i sporti - maxsus yo'lakchalar bo'ylab tog'dan tushish, chang'i sportinint tarkibiy qismi. Unga slalom (chang'ida sun'iy yoki tabiiy to'siqlar osha tepalikdan pastga tez tushish), ulkan slalom, tezlik bilan tushish va ko'p kurash musobaqalari kiradi. Musobaqa qoidalarini 1 marta angliyalik A. Lunn (20-asrning 20-yillarida) kiritgan. 1 musobaqa 1923 yil Shveytsariyada bo'lgan. 1930 yildan jahon birinchiligi musobaqalari muntazam o'tkazib turiladi. 1936 yildan qishki Olimpiada o'yinlari dasturidan joy olgan.

O'zbekistonda Tog' chang'i sporti musobaqalari, asosan, Bo'stonliq tumanidagi Chimyon bazasi majmuasida o'tkaziladi. Tog' chang'ichilari har yili 2 marta (yozda va qishda) respublika birinchiligi va O'zbekiston kubogi bahslarida kuch sinashadilar. "Qishki ta'tillar", "Chimyon sovrini" musobaqalari eng kuchli tog' chang'ichilarini to'playdi. Sport ustasi G'ayrat Ermetov yoshlar o'rtasida Osiyo chempionatining 2 ta kumush medaliga sazovor bo'lgan. 2004 yilgi O'zbekiston chempioni Kseniya Grigoreva ayollar o'rtasida yetakchi tog' chang'ichisidir. O'zbekiston Tog' chang'i sporti uyushmasi (1998 yil tuzilgan) xalqaro Tog' chang'i sporti federatsiyasi (FIS) ga qabul qilingan.

Nazorat savollari

1. Qishki sport turlarining ahamiyati haqida gapirib bering

2. Qishki sport musobaqalarida sport turlari haqida ma'lumot bering?
3. O'zbekiston Tog' chang'i sporti uyushmasi va xalqaro Tog' chang'i sporti federatsiyasi (FIS) haqida nimalarni bilasiz?
4. Qishki sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport bazalari haqida gapirib bering?

Adabiyotlar.

1. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.
2. Djalilova L.A. Olimpiya bilim asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2015.
3. J. Xorn, G. Yennel. Olimpiya o'yinlari konsepsiyasi. II-qism. O'tmishdan nazar. 5-bob. Butunjahon ko'rgazmalaridan ulkan tadbirlar sari. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.
4. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.

3.3. Qishki paralimpiya o'yinlari va musobaqalar tarixi.

Qishki Paralimpiya o'yinlari qishki sport turlari bo'yicha eng yirik xalqaro musobaqadir. Unda jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilar ishtirok etadilar. Qishki Paralimpiya o'yinlari har to'rt yilda bir marta Olimpiada o'yinlari o'tkazilgandan keyin bir xil shaharlarda o'tkaziladi. Xalqaro paralimpiya qo'mitasi (IPC) Qishki Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni nazorat qiladi.

Qishki Paralimpiya o'yinlarining tarixi yozgi Paralimpiya o'yinlarining tarixiga o'xshash. Ikkinchi jahon urushidan keyin qaytib kelgan yarador askarlar kasallikdan davolanish va to'liq hayotga qaytish uchun turli xil sport turlari bilan shug'ullanishgan. Ingliz nevroxirurgi Lyudvig Guttman tomonidan uyushtirilgan ingliz kasalxonalarida o'rtasidagi qishki sport musobaqalari 1948 yilda boshlangan.

1974 yilda tog' sportida (tog' va tog chang'isi bo'yicha) nogironlar birinchi rasmiy jahon chempionati bo'lib o'tdi. Birinchi qishki paralimpiya o'yinlari 1976 yil 21 fevralda SHvetsiyaning Ornskoldsvik shahrida o'tkazildi. Musobaqada 16 mamlakatdan 198 nafar sportchi ishtirok etdi.

Asta-sekin qishki Paralimpiya o'yinlari kengaydi va ular oxir-oqibat qishki Olimpiadadan keyin yirik xalqaro tadbirga aylandi.

Qishki paralimpiya o'yinlari sport turlariga erkin yoki klassik chang'i poygalari (jamoaviy va yakkalik hisobi) kiritilgan. Nogironlar an'anaviy chang'ilarda, shuningdek, bir juft chang'isi bo'lgan kreslolarda musobaqala-shadilar. Shuningdek, shaybali xokkey ham o'ynaladi, har bir jamoadan bunda maydonga 6 tadan o'yinchi tushadi. O'yinchilar chananing sirg'aluvchi qismiga o'xshash oyoqqa o'rnatilgan aravachalarda temir uchligi bo'lgan tayoqlar yordamida harakatlanadilar. Yana qishki paralimpiya dasturiga tog' chang'isi, aravachalarda o'ynaladigan kyorling va biatlon kiradi.

Sport turlari	Yili
Tog'ga chiqish	s 1976
Sledge xokkey	s 1994
Sledge tezligidagi konkida uchish	1980—1988, 1994—1998
Biatlon	s 1988
Tog' poygasi	s 1976
Para-snoubord	s 2014
Kyorling	s 2006

QISHKI O`YINLAR

O'yinlar	Yil	Musobaqaning ochilishi	Musobaqanin g yopilishi	O'tkazilgan davlat va shahar

1	1976	21 fevral	28 fevral	Ernshyolg'dsvik, SHvetsiya
2	1980	1 fevral	7 fevral	Geylo, Norvegiya
3	1984	14 yanvar	20 yanvar	Insbruk, Avstriya
4	1988	17 yanvar	24 yanvar	Insbruk, Avstriya
5	1992	21 mart	28 mart	Ting'/Alg'bervilg', Frantsiya
6	1994	10 mart	19 mart	Lillexammer, Norvegiya
7	1998	5 mart	14 mart	Nagano, YAponiya
8	2002	7 mart	16 mart	Solt-Leyk-Siti, AQSH
9	2006	10 mart	19 mart	Turin, Italiya
10	2010	12 mart	21 mart	Vankuver, Kanada
11	2014	7 mart	16 mart	Sochi, Rossiya
12	2018	9 mart	18 mart	Pxyonchxan, Janubiy Koreya
13	2022	4 mart	13 mart	Pekin, Xitoy

Testlar

1. Snovbord sport turida qaysi toifadagilar baxslashadilar?
A. Turgan xolda; B. O'tirgan xolda; S.Ko'zi zaiflar; D.To'g'ri javob A,B,S.
- 2.Qaysi sport turi 2006 yilda Turinda bo'lib o'tgan Qishki paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan?
A. Golf; B. Futbol 7x7; S.tog' chang'isi; D. Aravachalarda kyorling.
- 3.Qishki paralimpiya sport turlarining asoschisi kim?
A.Per De Kuberten; B. L.Gudman; S. F.Kraven; D. Yunis Kennedi.
- 4.Qaysi sport turi eng qadimiy qishki sport turi xisoblanadi?
A. Kyorling; B. Biatlon; S. Suzish;. D. Tog' chang'isi.

Adabiyotlar

- 1.R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov- Jismoniy imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sport mashg`ulotlariga moslashishi o`quv uslubiy qo`llanma.T-2014
- 2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o`yin qoidalari. Ch-2019

3.4. Qishki paralimpiya o'yinlariga tavsif

Paralimpiya sporti. Qishki sport turlarining ayrim turlarini tasniflash tizimi Oltita nogironlik guruxining har birida sportchilar o'z imkoniyatlarini yo`qotish darajasiga ko`ra taqsimlanadi. Tasniflash tizimi turli sport turlari uchun farq qiladi.

Paralimpiya qishki turlari quyidagilarga bo`linadi:

Tog'

sporti.



Ayni paytda tog' sporti bo'yicha musobaqa quyidagi yo`nalishda o`tkaziladi:

Pastga tushish - Pastga tushadigan marshrut tog' yonbag'irining tabiiy bir necha burilishlari mavjud bo`ladi. Bunda maxsus sakrash yo`laklaridan o`tishlari kerak. Marshrutning yo`lakchasi ikki tomonda kichik uchburchak bayroqlar va yorqin chiziqlar bilan belgilanadi.

Masofalar erkaklar: 800 dan 1100 m gacha

Ayollar: 500 dan 800 m gacha

bo`limlardan o`tishi davomida sportchi tezligi 140 km / h, va sakrash paytida parvoz uzunligi — 40-50 metr va undan oshadi.

Slalom eng qisqa marshrutga ega va ko`plab eshiklar - erkaklarga 55-75 va ayollar uchun 40-60. Gigant slalomda bo`lgani singari, har bir chang'ichi bir xil burchakda turli yo`nalishlarda ikkita tushishni bajaradi. Har ikkala tushish bir kunda amalga oshiriladi. Ikki marta urinishning umumiy vaqti g`olibni aniqlaydi.

Gigant slalom slalomga o`xshaydi, lekin unda burilishlar kamroq va yo`laklari keng xamda juda keskin emas. Darvozalar soni yo`lning balandligi bilan aniqlanadi. Odatda erkaklar uchun - 56-70, ayollar uchun - 46-58. Har bir chang'ichiga bir xil yo`nalishda turli yo`nalishlarda ikkita urinishlar beriladi. Ikkala urinish ham bir kunda amalga oshiriladi va yo`llar bir burchak ostida joylashadi. Vaqt ikki urinishning summasiga qarab belgilanadi. eng qisqa vaqt ichida kelgan sportchi g`olib xisoblanadi.

Ushbu sport turlari bo`yicha nogironlarning quyidagi turkumlari raqobatlashadilar: orqamiya jarohati, miyafalaji, ampuntantlar va boshqa ko`rish qobiliyati zaif nogiron sportchilar qatnashishlari mumkin. U erda o`n bittata sinf mavjud: o`tirgan xolda uch nafar sportchi, turgan holda sportchilar uchun etti nafar, uch nafar ko`rish imkoniyati cheklangan nogiron sportchilar uchun mo`ljallangan. Sportchilar nogironlarning funktsiyasi yo`qolishida rajasiga va yordamchi uskunalar ehtiyojiga qarab belgilanadi (protez, tosh ustunlari va hokazo. Darajasiga ko`ra belgilanadi)lekin musobaqalar nafaqat doimiy tasnifda o`tkaziladi.

Sinflar para- Snowboarding chang'isi toifasiga kiritilgan, nogironlik turlari faqatgina turgan holda o`tkazishga mo`ljallangan.

Ushbu musobaqalar 2014-yil qishki Paralimpiya o`yinlari dasturiga kiritilgan. Ushbu musobaqalar bo`yicha birinchi jahon CHempionati 2008 yilda Uistlere shahrida (Kanada) bo`lib o`tdi. Xalqaro jahon Kubogi 2010-2011 yillarda tashkil qilinib, unda 9 ta mamlakatdan kelgan sportchilar ishtirok etdi.

Yakuniy (koeffitsientga mos) natijalarga asoslanib, g`oliblar erkaklar va ayollar o`rtasida alohida-alohida turdagi (STA), o`tirgan (SIT) va ko`rish nogironlari

(VI) bo'yicha aniqlanadi. 2014 yilda Sochida ikkita medal - erkak va ayollar doimiy sportchilar kategoriyasida o'tkazildi.

Muz ustida xokkey- musobaqalari faqat tanasining pastgi qismida jismoniy nogironligi bo'lgan erkaklar uchun o'tkaziladi. O'yin xokkey bo'yicha xalqaro qoidalar asosida amalga oshiriladi. Sportchilar shaybadan foydalanish uchun maxsus xokkey tayoqchasini o'tirgan holda o'yinga kiritadi.

Muz ustida xokkey- musobaqalari faqat tanasining pastgi qismida jismoniy nogironligi bo'lgan erkaklar uchun o'tkaziladi. O'yin xokkey bo'yicha xalqaro qoidalar asosida amalga oshiriladi. Sportchilar shaybadan foydalanish uchun maxsus xokkey tayoqchasini o'tirgan holda o'yinga kiritadi.

Paralimpiya o'yinlarida biatlon. Biatlon tog' poygalari va aniq poylab otish bilan bajariladi. Bu jismoniy chidamlilik va aniqlikni talab qiladi. Musabakalar jismoniy qobiliyatlari past bo'lgan va ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan sportchilar uchun o'tkaziladi. Sportchilar o'z funktsiyalari darajasiga qarab o'n beshta sinfga ajratilgan. Nogironligi bo'lgan sportchilar uchun 12 ta va uchta zaif ko'ruvchilar uchun mashg'ulotlar tashkil etilgan. Sportchilar bir-biri bilan raqobatlashadi va natijalar har bir sinfdan aniqlanadi. Zaif ko'ruvchi nogironlarning musobaqalarida maxsus asboblardan nishonga aniq otishlari uchun foydalanadilar.

Ovoz signalining intensivligi miltiqni maqsadga yo'naltirish aniqligiga qarab o'zgaradi.

Paralimpiya o'yinlarida chang'ida yugurish. Ushbu turdagi tanlovda Paralimpiyachilar tserebral paralich, amputatsiya, (nogironlar aravachasiga muhtoj sportchilar), ko'rish qobiliyati zaif va aqliy zaif nogironlik turlari raqobatlashadi. Bu yo'nalishda unbeshta tasnif mavjud: uchta ko'zi ojiz nogironlar uchun, to'qqizta tik tura oladigan sportchilar uchun va uchta o'tirgan sportchi uchun sinflar mavjud. Ma'lum sinfga mansub sportchilar imkoniyatlari darajasiga qarab va yordamchi maxsus asboblardan foydalanishga ruxsat beriladi. Chang'ichilarga o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Para-snoubord sport turining uchta asosiy toifasi mavjud: turgan holda, o'tirgan holda va ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan sportchilar o'rtasida o'tkazilini,

xar bir sinfga bir xil funksional imkoniyatlar ega bo`lgan sportchilar birlashtiriladi. Tasniflash tog 'chang'isida ishlatiladigan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi. Sportchilarning tasnifi Jahon Snowboard Federatsiyasi (WSF) maxsus tayyorlangan tasniflari bo`yicha amalga oshiriladi.

Turgan holda baxslashadigan sportchilar toifalari.

- SB 1 - Ikkala oyog'ining og'ir zararlanishi. Tizzadan yuqorida ikki tomonlama amputatsiya yoki mushak kuchsizligi yuqori 35 balldan 80 balgacha (SB1-1) darajasida yoki miyaning og'ir va o`rta darajada shikastlangan shakli (SB1-2);

- SB 2 - bir oyog'ining og'ir nazologiyasi: tizzasidan yoki tizzaning yuqorisida amputatsiya qilinishi hamda mushakning zaifligi maksimal 20 balldan 40 ballgacha tashkil qiladi.

- SB 3 - ikki oyog'i og'ir zararlanishi: eng kamida oyoq o`rtasidan tizza ostidagi ikki tomonlama amputatsiya. Mushakning kuchsizligi maksimal 60 balldan 80 balgacha (SB3-1) yoki miya falaji (SB3-2) ;

- SB 4 - bitta oyog' nazologiyasi: tizzasi quyi qismida amputatsiya qilingan-mushak zaiflik maksimal 30 balldan 40 ball miqdorida;

- SB 5 - ikkala qo`l nozologiyasi. Tirsak yuqorisidan qo`llarni ikki tomonlama amputatsiya qilinishi (SB5-1), tirsak yuqorisidan bitta qo`l, ikkinchi qo`l tirsakning pastki qismidan (SB5-2)yoki ikkala qo`lning tirsagi ostidan amputatsiya qilinishi, minimal –kaftdan yuqori qismi kesib tashlanganda (SB5-3). YOki, barcha uchta kichik sinflarda - mushaklarning kuchsizligi bilan belgilanadi.

- SB 6 - bitta qo`lda amputatsiya qilinishi yoki boshqacha zararlanishi. Tirsakning yuqorisida (SB 6-1) yoki tirsagi ostidan (SB 6-2). YOki har ikkala kichik sinfdan mushaklarning zaifligi ushbu sinfga kiritiladi.

- SB 9 - bitta yuqori va bitta pastki qismining nozologiyasi. Qo`lning jarohati va tizzadan yuqori qismining amputatsiyasi (SB 9-1), yoki bitta qo`lning zararlanishi va tizzadan pastda oyog'ning amputatsiyasi (SB 9-2).

O`tirgan holda qatnashadigan sportchilar toifasi.

- SB10 - Ikkala oyoqning falajlanishi va tana muvozanatining yo`qligi.
- SB11 - Ikkala oyoqning qisman paralichi va tana muvozanatining qisman yo`qligi.
- SB12 - Ikkala oyoqning qisman paralichi va tananing yaxshi muvozanatda bo`lishi.

Zaif ko`ruvchi sportchilar.

Ko`rish qobiliyatida nuqsoni bo`lgan sportchilar umumiy qabul qilingan mezonlarga muvofiq tasniflanadi:

- B1 - ko`rishning to`liq bo`lmasligi;
- B2 - ko`rish qobiliyati 20/60 gacha darajada;
- B3 - ko`rish qobiliyati 20/60 dan 6/60 gacha darajada.

Imkoniyati cheklangan atletlar tananing qoldiq funksiyalari asosida umumiy qabul qilingan tasniflash tizimidan foydalanadilar. Bu tizim sport kurashiga bellashuv ruhini berish uchun imkon yaratadi. Keyin stadionda yugurish turlari uchun uch sinf toifalari keltiriladi: serebral falaj, amputatsiyasi bo`lgan va aravachadagi sportchilar. Bunda har bir toifada sinf raqami qanchalik past bo`lsa, sportchi tanasining imkoniyatlari shuncha ko`rcheklangan (nogironlik darajasi yuqori) bo`ladi.

BSShga mansub sportchilar uchun sinflar.

T33. Tana yuqori qismining to`liq spastik kuchi, aravachani mustaqil harakatlantira oladi, ikkala qo`l va oyoqlar yoki qo`l va oyoqning jarohati.

T34. Minimal cheklanish yoki qo`llarni va tanani nazorat qilishda muammolar bilan yaxshi funksional kuch, ikkala boldirlarning jarohati.

T35. Muvozanat bilan kichik muammolar, bir boldir yoki ikkala va bir qo`lning jarohati. Yordam vositalaridan foydalana oladi.

T36. Yaxshi muvozanat va ajoyib harakat nazorati.

T37. Tananing ustun tomonining yaxshi funksional qobiliyatlari, tananing o`sha tomonidagi qo`l va oyoqning jarohati.

T38. O'ziga quyidagilarni oladi: ikkala boldirda, oyoq muvozanatida muammoga ega bo'lgan tananing shu tomonida qo'l va oyoqdagi jarohat.

Amputant sportchilar uchun sinflar.

T42. Bir oyoqning tizzadan yuqorirog'i amputatsiya qilingan, yoki qo'l-oyoqlarning amputatsiyasi bilan kombinatsiya funksional qobiliyatlarning minimal cheklanganligi.

T43. Ikkala oyoqning tizzadan pastrog'i amputatsiya qilingan yoki qo'l-oyoqlarning amputatsiyasi bilan kombinatsiyada, uloqtiruvchi qo'lning me'yordagi funksiyasi.

T44. Oyoqning tizzadan pastrog'i amputatsiya qilingan yoki qo'l-oyoqlarning amputatsiyasi bilan kombinatsiyada, bir yoki ikkala qo'l yoki oyoqlar funksiyasining bir oz kamayishi.

T45. Ikkala qo'lning tirsakdan yuqorirog'i yoki pastrog'i amputatsiya qilingan.

T46. Bir qo'lning tirsakdan yuqorirog'i yoki pastrog'i amputatsiya qilingan, uloqtiruvchi qo'lida funksional qobiliyat saqlab qolingan.

Aravachadagi sportchilar uchun sinflar.

T51. Aravachani harakatlantirish uchun qo'l kaftlaridan foydalaniladi, ular umurtqaning bo'yin sohasi jarohati tufayli ojiz.

T52. Aravachani harakatlantirish shiddati tirsakni yozish hisobiga amalga oshiriladi.

T53. Qo'llarning me'yordagi funksiyasi, tana harakatlari faol emas.

T54. Tana harakatining yaxshi funksional qobiliyatlari.

* Har bir sportchi xalqaro tibbiy komissiyadan o'tgandan so'ng sport tasnifini oladi.

Paralimpiya o'yinlarida chang'ida yugurish. Ushbu turdagi tanlovda Paralimpiyachilar tserebral paralich, amputatsiya, (nogironlar aravachasiga muhtoj sportchilar), ko'rish qobiliyati zaif va aqliy zaif nogironlik turlari raqobatlashadi. Bu yo'nalishda unbeshta tasnif mavjud: uchta ko'zi ojiz nogironlar uchun, to'qqizta tik tura oladigan sportchilar uchun va uchta o'tirgan sportchi uchun sinflar mavjud.

Ma'lum sinfga mansub siportchilar imkoniyatlari darajasiga qarab va yordamchi maxsus asboblardan foydalanishga ruxsat beriladi. Chang'ichilarga o`xshash tarzda amalga oshiriladi.



Aravachalarda Kyorling Nogironlar aravachasida Kyorling musobaqalari, kundalik hayotida aravachadan foydalanishni talab qiladigan, doimiy ravishda oyoqlari ishlamaydigan nogiron sportchilar o`rtasida o`tkaziladi. Bu sportni asosan tserebral paralich yoki kuchli skalerozli sportchilar o`ynashi mumkin. Bu o`yinda toshni maxsus tayoq bilan tashlash mumkin. Barcha ishtirok etuvchi sportchilar nogironlar aravachasida bo`lishlari shart. Bu sportda sinflar mavjud emas.

Aravachada Kyorling qoidalari. Aravachalarda Kyorling bo`yicha musobaqalarda qatnashish bir vaqtning o`zida jamoalar tarkibida erkaklar va ayollar ishtirok etishlari mumkin. O`yin maqsadi — toshdan "uy" deb nomlangan chizilgan markazga iloji boricha yaqinlashib olishga qaratilgan.

O`yin sakkiz "endov" dan iborat. Ikkita jamoada 4 nafar ishtirokchi galma-gal sakkizta toshni muz ustiga qo`yadi, yani xar bir ishtirokchiga ikkitadan tosh to`g`ri keladi. Tosh shu tarzda ishga tushirilishi kerak bo`ladi, shuning uchun uning yo`nalishi markazga ya`ni "Uy" ga yo`naltirilgan bo`ladi. Sportchining aravachasi harakat qilmasligi kerak. Toshleri "uy" markaziga yaqin jamoa ko`proq ball oladi. Ballar 8 ta "endov" dan keyin hisoblanadi.

Aravachalardagi kyorling – katta mahorat va strategiya talab qiluvchi o'yin. Aravachadagi sportchilar uchun kyorling boyicha qiluvchi Jahon Kubogi 2000 yilni yanvarida SHveysariyaning Krans-Montana shahrida otkazildi.

Ilk bor bu sport turi 2006 yilda Turinda bo'lib o'tgan Qishki paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritildi. O'yinda har ikkala jinsga mansub, tayanch-harakat apparati ishdan chiqqan sportchilar, jumladan, oyoqlari faoliyati jiddiy shikastlangan (umurtqa sinishi, serebral falaj, tarqoq skleroz, ikkala oyoqni yo'qotish va h.k.) va aravachalarda harakatlanadigan atletlar ishtirok etadilar.

Sportni boshqarish Xalqaro kyorling Federatsiyasi (WCF) tomonidan amalga oshiriladi, o'yin mazkur tashkilot tasdiqlagan qoidalariga muvofiq o'tadi. Bugungi kunda aravachalardagi kyorling 20dan ziyod mamlakatda tarqalgan.

O'yining tavsifi

Har biri to'rt kishidan iborat 2 jamoaning sakkiztadan toshi bor, ular galma-galdan o'z toshlarini 45x5m o'lchamli muz maydonini qarama-qarshi tomonidan hisob zonasiga ("uy" deb ataladi) aniq joylashtirish bo'yicha musobaqalashadilar. Bunda jamoalarga "uy"dagi begona toshlarni surish yoki urib chikarishga ruxsat etiladi. Qaysi jamoa barcha snaryadlarni chiqarganidan keyin toshi yoki toshlari "uy" markaziga eng yaqin bo'lsa, shu jamoa g'olib bo'ladi. O'yin "end"lardan (davrlardan) iborat, ular har birida g'alaba bir jamoaga nasib etadi. Barcha endlar natijalarini yig'indisi o'yinini uzil-kesil natijasini beradi. O'yin davomiyligi – 2,5-3 soat. Kyorlingni bil'yard va bouling elementlari bo'lgan muz ustidagi shaxmatga qiyoslaydilar, uning zavqi eng qiziqarli qarta o'yinlari bergan zavqqa tengdir.

Qisqa qoidalar. Maydoncha

Kyorling muz ustida o'ynaladi. O'yin maydoni o'lchamlari -44,5x4,75m. Maydonchanning qarama-qarshi tomonlarida nishon-o'ylar joylashgan. Uy 4ta konsentrik aylanadan iborat bo'lib, ulardan eng kattasini radiusi 6 fut (183 sm)m eng kichiginiki – 6 dyoym (15sm). Xoglayn (hogline) va beklayn (backline) chiziqlari orasidahisob maydoni joylashgan.

Jihozlar

Kyorling toshi (stoun):og'irligi 19,96 kg dan, aylanasini uzunligi 91,44 sm dan oshmasligi, balandligi qamida 11,43 sm bo'lishi lozim. Toshni faqat ikki yo'l bilan – yo bevosita dastasidan ushlab, yoki uzunlashtiruvchi asbob-kiydan foydalanib tashlash mumkin. Kiyni qullash o'yinda nogironlikning og'ir shakllari bo'lgan sportchilar qatnasha olishi uchun joriy qilingan Xalqaro musobaqalarda foydalaniladigan ko'ygina toshlar SHotlandiyaning Ayl Kreg orolidan keltirilgan granitdan ishlanadi.




37-rasm

Jamoalar tarkibi va o'yini borishi

Har bir jamoa 4 nafar o'yinchidan iborat – skip, vise-skip, second (ikkinchi) va lid (birinchi). Jamoaga albatta hech bo'lmaganda bitta sportchi qiz kirishi shart. Qarshi jamoalarning o'yinchilari navbatma-navbat o'z tashlashlarini amalga oshiradilar, har bir o'yinchi toshni 2 martadan tashlaydi. Skip – jamoaning strategisi va taktiki, u o'z o'yinchilariga topshiriqlar beradi. Skip toshni tashlayotganda, vise-skip uning uydagi o'rnini egallaydi.

Ochkolar hisobi

Jamoaning barcha o'yinchilari toshni tashlaganlaridan so'ng ochkolar hisobi o'tkaziladi. Raqib toshiga nisbatan “uy” markaziga yaqinroqda turgan har bir toshi uchun jamoa bittadan ochko oladi. Agar hamma toshlardan so'ng uy ichida toshlar bo'lmagan holda end 0:0 hisob bilan tugaydi. O'yinning yakuniy natijasi endlardan so'ng hisoblanadi. Durang natijada qushimcha end tayinlanadi.



Sport tarixi

Kyorling (angl. Curling) – shotlandcha o‘yin bo‘lib, uning nomi 1511 yilga oid tarixiy asarlarda ilk bor uchraydi. O‘yinni nomi inglizcha curl “gajak” so‘zidan olingan. Dastlab kyorlingni muzlab qolgan ko‘llarda oddiy qoya siniqlari bilan o‘ynaganlar. XVIII asrda toshni shakli zamonaviy tus oldi.

Kyorling 1998 yil Naganoda o‘tkazilgan Qishki Olimpiada o‘yinlari dasturiga ilk bor kiritildi. Aravachalardagi kyorling 2006 yil Turin Paralimpiya o‘yinlarida birinchi marta maydonga chiqdi, unda kanadaliklar finalda Buyok Britaniya jamoasini mag‘lub etib, yutuqqa erishdilar. Dastlabki jahon chempionati 2002 yilda SHveysariyada o‘tkazildi, unda musobaqa egalari g‘olib chiqdilar. Aravachalardagi kyorling bo‘icha jahon chempionlari:

- 2002 y. – SHveysariya;
- 2004 y. – Shvesiya;
- 2005 y. – Shotlandiya;
- 2007 y. – Norvegiya;
- 2008 y. – Norvegiya/



Tog' chang'isi Nogironlar uchun tog' chang'isi sporti Ikkinchi jaxon urushidan keyin rivojlana boshladi. Urushda turli jarohatlar bilan qaytgan askarlar sevimli sport turlari bilan shug'ullanishni istashardi. 1948-yilda Avstriyada urush nogironlari uchun tog' chang'isida uchish texnikasini o'rgatadigan dastlabki

kurslar taqdim etildi. Uzoq muddat davomida tog‘ chang‘isi bilan faqat ikki toifada – THA ishdan chiqqan (turgan holda) va ko‘rish qobiliyatida nuqsonlari bo‘lgan sportchilargina shug‘ullana olardilar. 1970-yillarning oxiridan – yakka chang‘i kashf qilingan paytdan boshlab tog‘ chang‘ii bilan THA ishdan chiqqan (o‘tirgan holda) sportchilar ham shug‘ullanish imkoniga ega bo‘ldilar.

Yakka chang‘i (monochang‘i) uchida qisqartirilgan chang‘isi bo‘lgan maxsus tayoqlar bilan qo‘llaniladi, u muvozanat uchun kerak. Slalom va katta slalom bo‘yicha musoboqalar 1976-yilda bo‘lib o‘tgan birinchi qishki paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan edi. Tezkor tushish bo‘yicha musoboqalar ilk bor 1984-yilda Inskbrugda o‘tkazilgan Paralimpiya o‘yinlari tashkil etildi, super-gigant esa 1994-yilda (Lillexamerlarda) qo‘shildi. Yakka chang‘ida (o‘tirgan holda) THAda nuqsoni bo‘lgan sportchilarning bellashuvlari dastlab 1999-yil Nagano paralimpiyasi dasturidan joy oldi.

Chang‘ichilar tog‘larning tik yonbag‘irlarida balandligi 120dan 80m gacha tebranib turadigan qiyaliklarda tezlikni 100km/soatdan oshiishlari mumkin. Ko‘plab “darvoza” tushishlarini yanada murakkablashtiradi, ulardan o‘tish uchun alohida mahorat talab etiladi. Biroq “darvoza”ni chetlab o‘tgani uchun jazo juda keskin – sportchi diskvalifikatsiya qilinadi. Zaif ko‘radigan chang‘ichilar oddiy sportchilar bilan bir xil asbob anjomlardan foydalanadilar, ammo peshqadam ishtirokida musoboqalashadilar, u ovoz chiqarib yoki radio bo‘yida buyruqlar berib sportchi harakat yo‘nalishini ko‘rsatib turadi. Tushish vaqtida sportchi bilan peshqadam jismoniy kontaktiga yo‘l qo‘yilmaydi. THA shikastlangan chang‘ichilar nogironligi turiga qarab yo oddiy anjomlar va protezlardan foydalanadilar, yoki chang‘i tayoqlari o‘rniga “outriggerlar”ni qo‘llaydilar. (Outrigger) – uchiga kichkina chalg‘ichalar o‘rnatilgan maxsus qo‘ltiq tayoqlar bo‘lib, boshqarish hamda muvozanatni ushlab turish uchun zarurdir. O‘tira oladigan chang‘ichilar yakka chang‘ida bellashadilar, bu bitta chang‘iga o‘rnatilgan kursidan iborat bo‘lib, qo‘shimcha moslamalari – bog‘laydigan tasmalar amartizatorlar. Tayoq o‘rnida yakka chang‘ichilar ham outriggerlardan foydalanadilar. Tog‘ chang‘isi sporti to‘rt turni o‘z ichiga oladi – tezkor tushish, slalom – gigant, super – gigant va slalom.

Tezkor tushish

Bu tur tog' chang'isi musoboqalari barcha turlari orasida trassasi eng uzun va tezliki eng yuqori sanaladi. Trassada burilishlar va sakrashlar bor. Har bir ishtirokchi yagona tushishni amalga oshirishi mumkin. Eng kam vaqt sarflagan sportchi g'olib bo'ladi.

Super – gigant

Super - gigant – tezkor tur. Bu turda trassa tezkor tushishga nisbatan qisqaroq, ammo gigant – slalom slalomdagiga qaraganda uzunroq darvoza miqdori trassada balandliklardan almashinuvchi bilan belgilanadi, erkaklar uchun minimum 35ta, ayollar uchun 30ta, darvoza orasidagi masofa – kamida 25m. Har bir chang'ichi bir marta tushishni bajaradi, shuning natijasiga ko'ra g'olib aniqlanadi.

Slalom – gigant

Slalom – gigant xuddi slalomga o'xshash, amma darvoza soni kamroq, buning ustiga ular ancha keng, lekin u qadar tik emas darvoza soni trassada balandliklar almashinuvi bilan belgilanadi. Har bir chang'ichiga bir yon bag'ining har xil trassalarida ikki urinish imkoni beriladi. Har ikkala urinish bir kunda, birinchisi odatda ertalab, ikkinchisi- tushdan keyin o'tkaziladi. Vaqt har ikki urinish yig'indisi bo'yicha aniqlanadi.

Slalom

Slalomning trassasi eng qisqa bo'lib, ko'plab darvozalarga ega – erkaklar uchun 55-75ta va ayollar uchun 40-60ta. Xuddi slalom – gigantda bo'lgani kabi har bir chang'ichi bir qiyalikning o'zida har xil trassalarda ikki bor tushishni amalga oshiradi. ular ning har ikkalasi bir kunda amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan vaqtlar yig'indisi g'olibni aniqlashga yordam beradi.

Kombinatsiya

Kombinatsiya ikki xil poygadan, masalan, tezkor tushish va slalomdan yoki slalom va super – gigantdan iborat bo'ladi. G'olib ko'rsatilgan vaqtlar yig'indisi asosida aniqlanadi.



Tasniflash

Sportchilar uch toifaga bo‘linadi – o‘tira oladiganlar, tura oladiganlar va zaif ko‘radiganlar. Har bir toifada sinflarga bo‘linish ham bor, bu asosini sportchilarning jismoniy xususiyatlari va ular qo‘llaydigan asbob – anjomlar tashkil etadi.

Zaif ko‘radigan sportchilar: B1 – yorug‘likni ko‘rish va qo‘l harakatini ajratish qobiliyati zaif bo‘lgan ko‘rlar; B2 – ko‘rish o‘tkirligi 2/60 gacha va/yoki ko‘rish maydoni 5° dan ortiq emas; B-3 ko‘rish o‘tkirligi 2/60 dan 6/60 gacha va/yoki ko‘rish maydoni 5°dan 20°gacha orasida.

Tura oladigan sportchilar: LW1 – ikkala oyog‘i tizzadan yuqori qismidan amputatsiya qilinganlar va shunga o‘xshash; LW2 – bir oyog‘i tizzasidan yuqori qismidan amputatsiya qilinganlar, uchish uchun bir chang‘i va outriggerlardan foydalaniladi; LW3 – ikkala oyog‘i tizzadan past qismidan amputatsiya qilinganlar va BTSF; CP5, CP6 LW4 toifalar – bir oyog‘i tizzadan past qismidan amputatsiya qilinganlar, protez, ikkita chang‘i va tayoqlardan foydalaniladi; LW 5/7 – ikkala qo‘li amputatsiya qilingan, tayoqsiz uchadilar (LW5/7 – 1, LW5/7 – 2, LW5/7 – 3); LW6/8 - bir panjasi/qo‘li amputatsiya qilinganlar, bitta tayoq bilan uchadilar (LW6/8 – 1, LW6/8 – 2); LW9 – bir qo‘li va bir oyog‘i faoliyati buzilganlar (amputatsiya, BTSF, gemipligiya); (LW9/1, LW9/2).

O'tira oladigan sportchilar: LW10 – yakka chang'i (oyoqlar to'la falaji), (LW10/1, LW10/2); LW11 – yakka chang'i (quyiroq darajadagi falaj, oyoqlar faoliyatining zaiflashuvi); LW12 – mano skiyers (quyiroq darajadagi falaj yoki tizzadan yuqoridan ikkilamchi amputatsiya); (LW12/1, LW12/2).

Sinflarga tavfsiflanishdan asosiy maqsad – omil (faktor) tizim yordamida natijalarning adolatli baholanishini ta'minlash. Omil quyidagi tarzda hisoblanadi. Biror sportchi eng tezkor sinf bo'yicha musoboqalarda ko'rsatgan eng yaxshi vaqti omil aniqlanayotgan sinf bo'yicha ko'rsatilgan eng yaxshi vaqtga bo'linadi. Musoboqalar arafasida bo'lib o'tgan barcha xalqaro musoboqalarga ishlov berish asosida qo'lga kiritilgan omillar omillari o'rtacha ko'rsatkichi bazaviy omil sifatida qo'llaniladi, u har xil mavsum uchun aniqlanadi. Har bir sportchi tog' chang'isi u yoki bu turida namoyish etgan vaqti o'z sinfiga muvofiq omilga ko'paytiriladi. Har bir sportchi ular guruhida o'xshash jismoniy nuqsonlari bo'lgan kishilar bilan kuch sinashadi. Har bir turdagi natijalar oliy toifa uchun hisob kitob qilinadi – uchtasi ayollar uchun, uchtasi erkaklar uchun – zaif ko'ruvchilar, tura oladiganlar, o'tira oladiganlar.

Nazorat savollari

1. Qishki paralimpiya o'yinlari va musobaqalar tarixi haqida gapirib bering?
2. Paralimpiya sport musobaqalarida qishki sport turlari haqida ma'lumot bering?
3. Qishki sport turlarida tasniflarning ahamiyati haqida gapirib bering?
4. Qishki sport musobaqalarida jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarning o'rni haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar

1. R.S. Salomov, M.X. Mirjamolov - Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma. T-2014
2. M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya – Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Ch-2019

V – BOB ADAPTIV SPORT MUSOBAQALARI

4.1. Surd olimpiya o'yinlari

Surd olimpiya o'yinlari yoki Surd olimpiada (Surdoolimpiada, frantsuz tilida - "kar") yoki "Deaflympics" (ingliz tilida kar - "kar") – eshitish qobiliyatiga ega bo'lmaganlarning sport musobaqalari. 2001 yilgacha Butun jahon karlar o'yinlar, avvalroq – karlarning xalqaro o'yinlar) deb nomlangan.

Birinchi jahon Karlar o'yinlari 1924 yili Parijda bo'lib o'tdi va hozirgi kungacha ular Ikkinchi jahon urushidan tashqari har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi. Parijdagi birinchi o'yin ishtirokchilari Belgiya, Chexoslovakiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Polg'sha, Vengriya, Italiya, Latviya va Ruminiya delegatsiyalari edi.

Birinchi karlar o'yinlarida engil atletika, velosport, futbol, o'q otish va suzish bo'yich amusobaqalarda qatnashdi. O'yinlar muvaffaqiyatli o'tdi. 1924 yil 16 avgustda ishtirokchi davlatlar sport delegatsiyalari rahbariyati Xalqaro karlar sport qo'mitasini (ICSD) tashkil etishga qaror qildi va Xalqaro karlar sport qo'mitasini (ICSD) tashkil etildi. Ushbu tashkilot karlarning barcha sport federatsiyalar uyushmalari uchun poydevor bo'lib nizomlar ishlab chiqildi. Xuddi shuyili o'yinlar har to'rt yilda bir marta o'tkazilishi kerakligi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Faqat 25 yil o'tgach, 1949 yil yanvar oyida Avstriyada birinchi jahon qishki o'yinlari bo'lib o'tdi, unda besh mamlakatdan 33 nafar sportchi ishtirok etdi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1955 yilda ICHAni Olimpiya tamoyillariga ega bo'lgan xalqaro federatsiya deb e'tirof etdi va ikki yil o'tgach, qo'mita ushbu Nizomni Olimpiya o'yinlarig amoslashtirdi. [1] Bugungi kunda ISCS tarkibiga 90 dan ortiq milliy federatsiyalar kiradi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Ijroiya Qo'mitasi qaroriga binoan, 2001 yil may oyida, karlar o'yinlari Jahon O'yinlari deb nomlangan "Deaflympics" (Deaflympics) deb nomlandi. Xuddi shu yili Rimda XIX o'yinlari bo'li bo'tdi. Dunyoning 80 ta mamlakatidan 3000 nafardan ziyod sportchi medallarni qo'lga kiritdi.

Yozgi sport turlari

- Badminton, engil atletika, bouling, golf, velosport, erkin kurash, yunon-rum kurashi, dzyudo, karate, tog' velosporti, stol tennisi, suzish, o`q otish, tennis, taekvondo

Jamoa

- basketbol, voleybol, plyaj voleyboli, futbol, qo`l to`pi

Qish sportlari

Tog chang'isi, chang'ida yugurish, snowboard

Jamoa

- kyorling, muz ustida xokkey

MUSOBAQALAR

Yili	O`yinlar	SHahar	Davlat	Qatnashgan davlatlar	Ishtirokchilar soni
1924	I	Parij	Frantsiya	9	143
1928	II	Amsterdam	Niderlandya	10	212
1931	III	Nyurnberg	Germaniya	14	316
1935	IV	London	Buyuk Britaniya	12	293
1939	V	Stokgolom	Shvetsiya	13	264
1940 — 1948 (amalga oshmadi)					
1949	VI	Kopengagen	Daniya	14	405
1953	VII	Bryusselg'	Belg'giya	16	524
1957	VIII	Milan	Italiya	25	625
1961	IX	Xelg'sinki	Finlyandiya	24	595
1965	X	Vashington	AQSH	27	697
1969	XI	Belgrad	(1943–1992). Yugoslaviya	32	1183
1973	XII	Malg'myo	Shvetsiya	32	1061
1977	XIII	Buxarest	(1965—1989) Ruminiya	32	1118
1981	XIV	Kyolg'n	Germaniya Federativ Respublikasi (1949—1990)	32	1213
1985	XV	Los-Andjeles	AQSH	29	1053
1989	XVI	Kraystcherch	Yangi Zelandiya	30	959

1993	XVII	Sofiya	Bolgariya	51	1705
1997	XVIII	Kopengagen	Daniya	62	2068
2001	XIX	Rim	Italiya	68	2217
2005	XX	Melg'burn	Avstraliya	63	2045
2009	XXI	Taybey	Xitoy	77	2498
2013	XXII	Sofiya	Bolgariya	90	2879
2017	XXIII	Samsun	Turkiya	86[3]	2859[4]

• Qishki o'yinlar

Yili	O'yinlar	Shahar	Davlat	Qatnashgan davlatlar	Ishtirokchilar soni
1949	I	Zeefelg'd (Tirolg')	Avstriya	5	33
1953	II	Oslo	Norvegiya	6	44
1955	III	Oberammergau	Germaniya	8	61
1959	IV	Kran-Montana	Shveytsariya	10	42
1963	V	Ore	Shvetsiya	9	60
1967	VI	Berxtesgaden	Germaniya	12	89
1971	VII	Adelg'boden	Shveytsariya	13	145
1975	VIII	Leyk-Plesid	AQSH	13	136
1979	IX	Meribelg'	Frantsiya	14	180
1983	X	Madonna-di-Kampilg'o	Italiya	15	147
1987	XI	Oslo	Norvegiya	15	169
1991	XII	Banff	Kanada	16	175
1995	XIII	YUlliyas	Finlyandiya	18	260
1999	XIV	Davos	Shveytsariya	18	273
2003	XV	Sundsvallg'	Shvetsiya	21	259
2007	XVI	Solt-Leyk-Siti	AQSH	23	302
2011	XVII	Visoke Tatri	Slovakiya	bekor qilindi	
2015	XVIII	Magnitogorsk	Rossiya	27	344
2019	XIX	Milan			

Testlar

1. Eshitish qobiliyatiga ega bo'lmaganlarning sport musobaqasi qanday nomlanadi?

A. Maxsus olimpiada; B. Surdalimpiada; S. Yozgi paralimpiya; D. Qishki paralimpiya.

2. 1924 yil birinchi jaxon karlar o'yinlari qayerda bo'lib o'tgan?

A. Germaniya; B. Parij; S. AQSH; D. Italiya.

3. nechinchi yildan karlar o'yinlari jaxon o'yinlari "Deaflympiss" deb nomlangan?

A. 1954y; B. 2002y; S. 2001y; D. 1924y.

4. Birinchi qishki surdolimpiada musobaqalari nechinchi yil bo'lib o'tgan?
A.1949; B. 1924; S. B. 1934; D. 1914.
5. Surdalimpiada yozgi sport turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsatining?
A.Stol tennisi, tennis bouling, golf; B. Erkin kurash, yunon-rum kurashi, dzyudo, karate, taekvando; S. Tog' velosporti, badminton, suzish, o'q otish, yengil atletika, velosport; D. To'g'ri javob A,B, S.
6. Surdalimpiada yozgi jamoa sport turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsatining?
A. Basketbol, voleybol, plyaj voleyboli; B. Futbol, gandbol, Tennis; S. Basketbol, voleybol, plyaj voleyboli, futbol, gandbol; D. To'g'ri javob A.B.
7. Surdalimpiada qishki sport turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsatining?
A. Aravachada qilichbozlik, aravachada basketbol; B. Tog' chang'isi, chang'ida yugurish, snovboard; S. Slalom; D. Kyorling.
8. Surdalimpiada qishki jamoa sport turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsatining?
A.Tog' chang'isi; B. Kyorling, muz ustida xokkey; S. CHang'ida yugurish, xokkey; D. Tog' chang'isi, snovboard.
- 9.oxirgi qishki surdalimpiada o'yinlari qachon va qayerda bo'lib o'tgan?
A. Kanada -1991y; B. SHvetsiya-2003y; S. Rossiya- 2015; D. AQSH -2007.
- 10.XXIII- yozgi surdalimpiada o'yinlari qachon va qayerda bo'lib o'tgan?
A. Bolgariya -2013; B. Turkiya -2017; S. Xitoy-2009; D. Italiya -2001.

Adabiyotlar

- 1.R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov- Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma.T-2014
- 2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Ch-2019

4.2. MAXSUS OLIMPIADA

Maxsus olimpiyada nogironlar sporti yo'nalishi aqliy rivojlanishi izdan chiqqan, o'qish-o'rganishi qiyin kechadigan kishilar bilan mashg'ulotlar olib borishga bag'ishlangan bo'lib, ularga o'z sport ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi va o'z-o'zini baholash hamda o'ziga ishonchni mustahkamlash vositasida bunday kishilar guruhiga hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratadi.

Aqliy rivojlanishning kechikishi (yoki turli mamlakatlarda qabul qilingan atamalarga ko‘ra “o‘qish-o‘rganish qobiliyatining yo‘qligi”, “rivojlanish qobiliyatining yo‘qligi”, “aqliy rivojlanishning orqada qolishi”, “aqliy rivojlanishning izdan chiqishi”) umumiy aqliy qobiliyatlarning ancha pasayganligida namoyon bo‘ladi, shu bilan birga, moslashuv harakatlarida ham yetishmov-chiliklar kuzatiladi. Bunday hodisalar manifestatsiyasi ko‘proq odamning rivojlanishi davrlarida (bolalik, yoshlik) yuz beradi.

Umuman, o‘qitish-o‘rgatishdagi qiyinchiliklar (yoki o‘qish-o‘rganishning izdan chiqish) to‘g‘risida ish qobiliyatining jiddiy pasayishi katta hajmli, og‘ir va uzoq muddatli yetishmovchiliklarga olib kelganda so‘z yuritish mumkin, bularning barchasi odamning odatiy xulq-atvori va ish qobiliyatidagi yaqqol ko‘zga tashlanadigan izdan chiqishlarda aks etadi.

“Aqliy rivojlanishning kechikishi” atamasi bugungi kunda ilgari qabul qilingan aqliy zaiflik, debillik, imbetsillik va telbalik kabi atamalar o‘rnida qo‘llanilyapti. “Oligofreniya” va “Aqli zaiflik” tushunchalari ba‘zan ilmiy hamda huquqiy atamashunoslikda uchrab turadi.

Adabiyotlarda tez-tez tasvirlanivchi aqliy rivojlanishdagi cheklanishlar, izdan chiqish va shikastlanishlarga quyidagilar kiradi:

- umumiy rivojlanishning kechikishi, buzilishi, to‘xtab qolishi;
- jismoniy yetilmaganlik, past bo‘ylilik, nasl buzilganligi belgilari;
- salomatlik holatining o‘zgaruvchanligi, umumiy ish qobiliyati yetishmovchiligi, moslashuvchanlikning cheklanganligi;
- noaniq sabablarga ko‘ra ruhiy holatda beqarorlikning namoyon bo‘lishi;
- uxlash ehtiyojining kamligi, g‘ayri-tabiiy darajadagi chuqur yoki yengil uyqu, uyquda keskin harakatlar qilish;
- ovqatlanish vaqtidagi o‘ziga xos xatti-harakatlar;
- yuklama va zo‘riqishga bardosh berolmaslik, bo‘shashish va tiklanishni eplay olmaslik, tez toliqish, ish qobiliyatidagi keskin tabranishlar;
- o‘ta faollik (ayniqsa, bolalik davrida);
- tobora sustlashuv va o‘ta sustkashlik (ayniqsa, kattalarda);

- jismoniy va harakat-muvozanat xususiyatlarining sifat hamda miqdor jihatidan yetishmovchiligi;

- mushak tonusi kontrakturasining ko'tarilgan yoki pasaygan (mongoloid irqiga mansub kishilarda) bo'lishi, doimiy zo'riqqan yoki cho'zilgan mushaklar, mushak kuchi va kuch chidamliligining yetishmovchiligi;

- mushakka xos va organik chidamkorlikning yetishmasligi hamda yurak-tomir, nafas olish va vegetativ tizimlarining yuklamalarga chidamsizligi;

- reaksiya tezligi, tezkor kuch va tezlik chidamliligi;

- statik-dinamik muvozanat yetishmovchiligi, ko'zlar, qo'l, oyoq ba barmoqlar muvozanati, aniq va umumiy muvozanat, simulten va ikki yoqlama muvozanat, barcha tana a'zolari muvozanati qobiliyatining cheklanganligi;

- harakatlarni boshqarish, ularni nazorat qilish, ular barqarorligi, ritmikligi, aniqligi, surpati va amplitudasidagi nuqsonlar;

- stereotip, majburiy refleks va himoya harakatlari;

- yuz ifodasi: giperkineziya, atetoz, distoniya, xoreya, ballizm, tik (yuz qismining uchishi), yuzni burishtirish, og'izning 'atologik motorikasi;

- ifodalilik (imo-ishoralar), ifodalarni farqlay olishdagi nuqsonlar, harakatlanishdagi yetishmovchilik;

- qomatning zaifligi, yassitovonlik, ko'ndalang gumbazning yassiligi, tashqi maymoqlik, kifoz yurishdagi nuqsonlar va rivojlanishga xos kamchiliklar;

- affektiv va hissiy xatti-harakatlarning ko'payishi, xatti-harakatlarning izdan chiqishi;

- hissiy beqarorlik, sezuvchanlikning izdan chiqishi (kayfiyat, istak-larning keskin o'zgarishi), hislarning rangsizligi, o'ziga ishonmaslik, o'z or-nomusini to'la anglamaslik, o'z "men"iga mos kelmaslik;

- motivatsiyaning buzilishi;

- intilishlar darajasining haqiqatga mos kelmasligi, ya'ni u yoki bu vazifani tezlashtirishda o'z imkoniyatlariga xolis baho bera olmaslikning ustuvorligi;

- muvaffaqiyatlarning sabablarini tashqi omillar bilan, mag'lubiyat yoki omadsizlikni esa ichki omillar bilan bog'lashga moyillik;

- o'zini omadsizlikka chog'lash, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chishga moyillikning yorqin namoyon bo'lishi;

- diqqat, uni jamlash qobiliyatining busilishi;

- diqqatni uzoq muddat davomida jamlab tura bilmaslik;

- osongina chalg'ishga moyil bo'lgan, keskin tebranuvchi diqqat, qiziqishning yo'qligi, reaksiyaning sustligi;

- kuchsiz xotira, fikrlashdagi nuqsonlar, o'qish-o'rganishning murak-kabligi;

- qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira yetishmovchiligi, fikrlar hajmining cheklanganligi, hodisalarni tez yoddan chiqarish, o'rganilgan materialni qiyinchilik bilan, cheklangan holda, buzib takrorlash;

- o'qish-o'rganishning sust ketishi, qo'yilgan maqsad va muammolarni yetarlicha tushunmaslik, ramzlar, belgilar, ma'noni yaxshi anglamaslik;

- u yoki bu narsani tasavvur qilish, mavhumlashtirish, assotsiatsiyalsh qobiliyatining yo'qligi;

- kognitiv moslashuvchanlik va diqqatni ko'chirish qobiliyatining yetarli emasligi, mustaqil qaror chiqara bilmaslik;

- nutqiy faollikning cheklanganligi;

- nutq qobiliyatining izdan chiqishi va buzilishi (artikulyatsiya, nutq oqimi va h.k.);

- o'zgalar nutqini tushunmaslik;

- ijtimoiy xatti-harakat, boshqa kishilar bilan muloqot qilishdagi nuqsonlar;

- ob'yektga, sherikka, guruhga moslashishning cheklanganligi;

- guruhda yashash va o'zini u bilan bir deb hisoblash tuyg'usining yo'qligi;

- notanish vaziyatda, notanish kishilar bilan o'zini tutishdagi muam-molar, shaxsan maspullik hissining yetishmasligi, nomustaqillik;

- masofaga rioya qilmaslik yoki yaqinlikni inkor qilish, muloqot o'rnatish va munosabatlarni davom ettirishdagi muqimliklar, o'ta bosiqlik, yolg'izlikka intilish;

- shaxsiy gigiyena, kundalik ishlarni bajarish masalalarida nomustaqillik.

Aqliy rivojlanishning kechikishiga har xil irsiy omillar, tashqi sharoit sabab bo'lishi mumkin, masalan:

- tugʻma nuqsonlar (irsiy omillar):
 - genlarning shikastlanishi (mutatsiyalar);
 - xromosomalarning shikastlanishi (abberatsiya);
- hayot davomida orttirilgan nuqsonlar: homiladorlikka, homiladorlik vaqtida va tugʻilgandan keyingi:
 - homiladorlik vaqtidagi asoratlar, jumladan, alkogol va giyohvandlik moddalarini isteʼmol qilish;
 - yuqumli kasalliklar natijasida zaharlanish, miyaning jarohatlanishi, kislorod yetishmovchiligi, oʻsmalar, endokrin tizimining ishdan chiqishi;
 - miya va asab tizimining shikastlanishiga olib keluvchi bolalar kasalliklari hamda jarohatlari;
 - skleroz demensiya, Alsgaymer kasalligi;
- bilvosita sabablar:
 - metabolik nuqsonlar, qon guruhlarining nomuvofiqligi, gormonal buzilishlar;
 - qashshoqlik, jumladan, toʻyib ovqat yemaslik, tibbiy xizmat darajasi pastligining jismoniy asoratlari;
 - ekologik omillar (radiatsion nurlanish, ruxdan zaharlanish).

Special Olimpiadaning sport mashgʻulotlarida hamda musobaqalarida ishtirok etish natijasida sportchilar hayotining koʻpgina jihatlarida ijobiy oʻzgarishlar yuz beradi.

Jumladan, sport hayotida qatnashish quyidagilarga yordam beradi:

- oʻz kuchiga va kundalik turmush uchun zarur boʻlgan ijtimoiy imkoniyatlariga ishonchning rivojlanishi;
- mehnat faoliyatiga yaxsiroq tayyorlanish;
- mustaqil hayotga hozirlanish, yaqin kishilar koʻmagiga qaramlikdan xalos boʻlish;
- mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatining kuchayishi;
- oila va jamiyatning boshqa aʼzolari bilan doʻstona munosabatlarning mustahkamlanishi.

Sport turlari va oʻtkazish tamoillari

Paralimpiya sportiga 1980-yillarda poydevor qo'yilgan. Biroq, faqatgina 1945-yilda orqa miyasida jarohati bo'lgan kishilarni davolashning yangicha yo'li ishlab chiqildi va bu hozirgi kunda Paralimpiya harakati nomi bilan mashhur butunjahon sport harakatining rivojlanishiga olib keldi. Har 4 yilda o'tkaziladigan Butunjahon Maxsus Olimpiadasining (Special Olympic World Games) asosiy tashkiloti hisoblanadi. Tashkilotga 1968-yilda o'qituvchi Anna Makgloun Byurke tomonidan asos solingan.

Musobaqalarda ishtirok etishga ruxsat berilishi uchun aqliy qobiliyati izdan chiqqan sportchilar Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (BSST) ta'rifiga muvofiq ifodalanuvchi minimal mezonlarga mos bo'lishlari kerak:

- aqliy qobiliyati darajasi 70 Iqdan oshmaydi (o'rtacha odam taxminan 100 Iqga ega);
- odatdagi ko'nikmalarni egallashda cheklanishlar mavjud (masalan, muloqot, ijtimoiy ko'nikma), o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va h.k.);
- 18 yoshga yetgunga qadar aqliy qoloqligi namoyon bo'lgan.

Maxsus olimpiadalar aqliy rivojlanishida izdan chiqishlar bo'lgan kishilarni jamiyatga moslashtirish uchungina o'tkaziladi. Musobaqalarda eng kuchli sportchini aniqlash hamda sport rekordlarini qayd etish maqsadi ko'zda tutilmagan.

Barcha ishtirokchilar sport tayyorgarligiga qarab divizionlarga bo'linadi. Shunday qilib, maxsus olimpiadalarda qatnashish uchun qandaydir sport talablarini namoyish etish talab qilinmaydi. Bir divizion sportchilarining natijalari orasidagi tafovut 10% dan oshmasligi kerak (sportchilar soni kam bo'lsa, 15% ga ruxsat beriladi). Har bir divizionda ko'pi bilan 8 nafar ishtirokchi musobaqalashadi. Bunda shohsupada ham 8 ta o'rin bo'ladi, ya'ni, aslida, mag'lublarning o'zi yo'q.

Yuqoriroq darajadagi musobaqalar uchun har bir diviziondan eng yuqori uch o'rinni egallagan sportchilar tanlab olinadi, yana boshqa ishtirokchilar qur'a tashlash yo'li bilan ajratiladi. Natijada, Butunjahon Maxsus Olimpiadasiga hammada, sport g'alabalaridan qat'i nazar, borish imkoni mavjud.

Maxsus Olimpiadada ishtirokchilarning milliy mansubligi qayd etilmaydi, turli mamlakatlar orasida "jamoat hisobi" yo'q.

Maxsus Olimpiya o`yinlari – intellektual nogironligi bor odamlar uchun sport tadbirlarini tashkil etishga bag'ishlangan xalqaro tashkilotdir.

Tashkilot 1968 yilda Chikagoda jismoniy tarbiya o`qituvchisi Anna Mc Glone Burke tomonidan tashkil etilgan.

AQSH prezidenti Jon Kennedi singlisi Yunis Kennedi Shriver tashabbusi bilan maxsus olimpiya harakati paydo bo`ldi. 1957 yilda u Jozef Kennedi tashabbusi bilan jamg'arma tashkil qilindi. Jamg'arma ikki asosiy maqsadga ega: intellektual zaiflikning sabablarini aniqlash va jamiyatda aqliy nogironligi bo`lgan insonlarni davolash usullarini takomillashtirish.

1963-yilda Yunis va uning eri Sargent Shriver jamiyat uchun foydasiz deb hisoblangan odamlarning ahvolini o`zgartirishga qaror qilishdi. Shu maqsadda ular Merilenddagi uylarini o`zlarining qobiliyatlarini o`rganish uchun aqliy zaiflashuvi bo`lgan bolalar va katta yoshdagilar uchun sport lageriga aylantirdi. Ular bilan ishlashning dastlabki natijalari bu insonlarga qanchalik ko`p e'tibor va g'amxo`rlik qilinsa ularning ichki salohiyati shunchalik namoyon bo`lishini ko`rsatib berdi. Aqliy zaiflashuvi bo`lgan insonlar turli sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarga qaraganda ko`proq qobiliyatga ega edi. 1968 yil iyul oyida Kennedi jamg'armasi tomonidan Anna Burke tomonidan tashkil etilgan Birinchi Xalqaro Olimpiya o`yinlari Chikagodagi harbiy maydonda o`tkazildi. Shu yilning dekabr oyida maxsus Olimpiya tashkiloti tashkil etildi, u xayriya tashkiloti maqomini oldi. Yillar davomida dunyoning 180 mamlakatidan uch milliondan ziyod kishi Olimpiya harakatining ishtirokchilariga aylandi.

1989 yilgacha o`yinlar AQSH Maxsus Olimpiya o`yinlari deb atalib kelindi. Keyin o`yinlar boshqa mamlakatlar tomonidan qabul qilinib Jahonda Maxsus Olimpiada deb nomlandi.

Musobaqalarni o`tkazish tamoyili

Maxsus olimpiadalar faqat intellektual nogiron kishilarni moslashtirish uchun o`tkaziladi. Musobaqalarda eng kuchlilarni aniqlash va sport rekordlarini o`rnatishga hech qanday maqsad yo`q.

Maxsus olimpiada musobaqalarida ishtirok etish uchun biron bir sport yutug'ini ko`rsatishga hojat yo`q.

Butun jahon yozgi maxsus olimpiada - 2011 yil 25 iyundan 4 iyulga qadar Yunonistonning Afina shahrida bo`lib o`tdi. Ochilish marosimi Panathinaikosning tarixiy stadionida bo`lib o`tdi, o`yinlarning yopilish marosimi Olimpiya stadionida bo`li bo`tdi. O`yinlarda 7000 nafar sportchi, 8000 ta murabbiylar, 40 000 nafar qarindoshlari, 180 ta mamlakatning 3000 nafar OAV vakillari va 25000 nafar yordam beruvchi insonlar ishtirok etdi.

2010 yil 29 maydan 3 iyungacha Afina maxsus olimpiadadan oldingi Milliy o`yinlarga mezbonlik qildi va bu 2011 yildagi maxsus olimpiada o`yinlarining o`yinlariga tayyorgarligini tekshirishning birinchi bosqichiga aylandi.

2010 yil 7 oktyabr kuni Maxsus Olimpiya o`yinlarining mash'alasi Afina shahriga etib keldi va Gretsiya Prezidenti Karolos Papulyasga topshirildi.

Tasdiqlangan Sport turlari:

- Suvsportiturlari
- Engilatletika
- Badminton
- Basketbol
- Bovling
- Velosiped
- Otsporti
- xokkey
- Futbol
- Golf
- Gimnastika
- dzyudo
- Powerlifting
- Konkidauchish
- Elkanlisport
- Softball
- Stoltennisi
- Futbol
- Tennis
- voleybol

Nazorat savollari

1. Adaptiv sport musobaqalari tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Surdolimpiya o`yinlarini tashkil etilishi haqida gapirib bering?
3. Surolimpiya so`zining ma`nosi nima?
4. maxsus Olimpiyada o`yinlarini tashkil toppish tarixi haqida ma`lumot bering?

Adabiyotlar

1.R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov- Jismoniy imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sport mashg`ulotlariga moslashishi o`quv uslubiy qo`llanma.T-2014

2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o`yin qoidalari. Ch-2019

V- BOB XALQARO OLIMPIYA QO'MITASI VA PARALIMPIYA ASSOTSIATSIYASINING TASHKIL QILINISHI.

5.1. Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va uning faoliyati. Olimpiya Xartiyasi – olimpiya harakatining asosiy huquqiy hujjati. XOQning maqsadi va vazifalari. XOQning tarkibi va asosiy organlari. XOQ sessiyalari. XOQ prezidentlari. XOQning shtab-kvartirasi. Olimpiya kongresslari va ularning ahamiyati.

Milliy olimpiya qo'mitalari va ularning faoliyati. Milliy Olimpiya Qo'mitalari Bosh Assambleyasining tashkil topishi, maqsadi va vazifalari. Xalqaro sport federatsiyalari va ularning faoliyati. Xalqaro sport federatsiyalari Bosh Assambleyasi, uning maqsadi va vazifalari.

Olimpiya harakati rivojlanishining birinchi davri. Xalqaro olimpiya harakati rivojlanishida ikkinchi davrning umumiy tavsifi. Olimpiya harakati rivojlanishining uchinchi davri va uning umumiy tavsifi. Zamonaviy olimpiya harakatining to'rtinchi davri va uning xususiyatlari. Xalqaro olimpiya harakatining dolzarb muammolari.

XIX asrning oxirida Pyer de Kuberten tomonidan olimpiya sportining asosiy tamoyillari, uning tuzilmasi, faoliyat asoslari ishlab chiqilgan va hozirgi davrgacha saqlanib qolgan.

Olimpiya Xartiyasi – olimpiya sportining asosiy huquqiy hujjati bo'lib, xalqaro olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmasi, maqsadi, mazmuni hamda demokratik xususiyatini belgilab beruvchi o'ziga xos nizom hisoblanadi. XOQ tomonidan tan olinish, Olimpiya Xartiyasiga amal qilishga rozilik bildirish sport tashkilotlarning olimpiya harakatiga qo'shilganligi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Olimpiya Xartiyasida olimpiya harakatining g'oyaviy-nazariy asoslari bayon qilingan, uning maqsad va vazifalari belgilab berilgan: insonni har tomonlama rivojlantirish, yaxshi va tinch jamiyat qurish, yoshlarni olimpizm ruhida tarbiyalash, butun jahon davlatlari va qit'alar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishdan iborat.

Olimpiya Xartiyasi XOQning I Kongressida (1894) tasdiqlangan. Xartiyada XOQning maqsadi va vazifalari, Olimpiya o'yinlarining tartib-qoidalar va ular bilan bog'liq tashkiliy masalalar ifoda etilgan.

Xartiya mazmuni **beshta** bobdan iborat bo'lib, I – “Olimpiya harakati”, II– “Xalqaro olimpiya qo'mitasi”, III – Xalqaro sport federatsiyalari”, IV– “Milliy olimpiya qo'mitalari”, V – “Olimpiya o'yinlari” masalalariga oid moddalar berilgan.

Xartiyaning **I-bobida** XOQning maqsadi, umumiy vazifalari va roli, sport tashkilotlarining Olimpiya harakatiga doir vakolatlari, Olimpiya kongressining tuzilmasi, olimpiya harakatining asosiy tushunchalari, olimpiya ramzlarining mohiyati va huquqlariga oid masalalar bayon etilgan.

II-bobda XOQning yuridik mavqei, XOQ a'ziligiga saylash huquqlari, XOQ a'zolarining majburiyatlari va vazifalari, XOQning tashkiliy tuzilmasi – asosiy organlari Sessiya, Ijroiya qo'mita, Prezident, ularning vakolatlari to'g'risida masalalar yoritilgan.

III-bobda Xalqaro sport federatsiyalarining olimpiya harakatidagi roli, ularni XOQ tomonidan tan olinishiga qo'yilgan talablar belgilangan.

IV-bobda Milliy olimpiya qo'mitalarilarining Olimpiya harakatiga doir vakolati va mavqei, ularning tarkibi, XOQ tomonidan tasdiqlanishiga qo'yilgan talablar belgilab berilgan.

V-bobda to'rtta bo'limlar mavjud bo'lib, ularning mazmuni “Olimpiya o'yinlarining ma'muriyati va ularni tashkil qilish”, “Olimpiya o'yinlarida ishtiroq etish qoidalar”, “Olimpiya o'yinlarining dasturi”, “Bayonnoma” kabi masalalarga bag'ishlangan.

Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi. Hozirgi davrda xalqaro olimpiya harakatining murakkab tashkiliy tuzilmasi hosil bo'lgan, ya'ni uning **uchta** asosiy tarmog'i: Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro sport federatsiyalar, Milliy olimpiya qo'mitalariga birlashtirilgan.

- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi,
- Xalqaro sport federatsiyalar,
- Milliy olimpiya qo'mitalariga birlashtirilgan.

Xalqaro olimpiya tizimiga Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi, regional olimpiya qo'mitalari, milliy assotsiatsiyalar, klublar va ularga tegishli shaxslar, jumladan sportchilar kiradi. Bu tashkilotlar o'z faoliyatida Olimpiya Xartiyasiga tayanadi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va uning faoliyati.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – xalqaro nodavlat tashkilot bo'lib, yuridik shaxs maqomi bilan assotsiatsiya shaklida tuzilgan. Olimpiya Xartiyasiga binoan XOQning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- havaskorlik sporti asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivolantirishga yordam berish;
- yoshlarni sport yordamida o'zaro kelishuv va do'stlik ruhida tarbiyalash;
- butun dunyoga olimpiya tamoyillarini keng yoyish, xalqlar o'rtasida yaxshi niyat muhitini yaratish;
- jahon sportchilarini har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlarida uchrashtirish.

XOQ majburiyatiga yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarini muntazam o'tkazish, ularni doimiy takomillashtirib borish, butun dunyoda sportning rivojlanishiga rahbarlik qilish kiradi.

XOQ a'zolari (hozirgi paytda ular 115 ta) Olimpiya xartiyasiga binoan o'z mamalakatlarida uning vakili hisoblanadilar. Mamlakatda XOQning bitta a'zosi saylanadi, lekin XOQ ikkinchi a'zoni Olimpiya o'yinlari o'tkazilagan davlatlardan saylashi mumkin. XOQ a'zosi 70 yoshga to'lganda istefoga chiqishi lozim.

XOQ tarkibi va asosiy organlari. XOQning asosiy organlariga – Sessiya, Ijroiya qo'mita va Prezident kiradi.

Sessiya – XOQ a'zolarining umumiy yig'ilishi bo'ib, har yili o'tkaziladi, olimpiada yilida esa ikki marta chaqiriladi. Sessiya XOQning oliy organi hisoblanadi va uning qarorlari o'zgartirilmaydi. Sessiyani o'tkazish joyi XOQ tomonidan belgilanadi, navbatdan tashqari sessialarni – Prezident chaqiradi.

Sessiyaning kun tartibi o'tkazish kunidan bir oy oldin tarqatilishi lozim. XOQ sessiyalarida Olimpiya xartiyasi muxokamasi, Olimpiya o'yinlarining tashkiliy masalalari, nomzod shaharlar muxokamasi, saylovlar o'tkaziladi.

Ijroiya qo'mita sessiyalar o'rtasidagi davrda XOQ ishlarini boshqarib boradi. Uning tarkibiga XOQ prezidenti, 4 ta vitse- prezident va 10 ta qo'mita a'zolari kiradi va ularning vakolat muddati 4 yil davom etadi.

Prezident XOQ a'zolari tarkibidan saylanadi. Olimpiya xartiyasi bo'yicha XOQ Prezidenti yashirin ovoz berish asosida 8 yilga va yana bir marta 4 yilga vakolat mudatini uzaytirish imkoniyati bilan saylanadi. Prezident maxsus hay'atlar va ishchi guruhlar tuzib, unung yordamida XOQ faoliyatining umumiy strategiyasini ishlab chiqadi. Olimpiya Xartiyasida XOQning rasmiy tili – frantsuz va ingliz tillari, deb belgilangan. XOQ shtab-kvartirasi Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan.

XOQ prezidentlarining faoliyati

Demetrius Vikelas (1835-1908) – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi Prezidenti. 1894 yil iyunda Parijda Xalqaro atletika ta'sis kongressida zamonaviy olimpiya harakati muammolari muhokama qilingan sho'baga rahbarlik qilgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining a'zosi bo'lgan. I Kongressda 1896 yilda I Olimpiya o'yinlarini Afinada o'tkazishni taklif qilgan. Olimpiya Xartiyasi bo'yicha Olimpiya o'yinlarini o'tkazadigan davlat vakili prezident etib saylanishi kerak edi. Shuning uchun XOQ prezidenti lavozimiga Gretsiya vakili Demetrius Vikelas saylangan. Vikelas I Olimpiya o'yinlarini tashkiliy ishlarida faol qatnashgan va katta hissa qo'shgan. Olimpiya o'yinlaridan so'ng 1896 yil 10 aprelda Demetrius Vikelas iste'foga chiqqan. Keyingi Olimpiya o'yinlari Parijda o'tkazilishi belgilangan va Olimpiya Xartiyasi bo'yicha Frantsiya vakili Pyer de Kuberten XOQning ikkinchi prezidenti lavozimini egallagan.

Pyer de Kuberten (1863-1937) zodagon oilasida tug'ilib, mukammal tarbiya olgan. Kuberten kollejda o'qib yurgan paytlaridayoq qadimgi olimpiya qazilmalari to'g'risida bilib, do'stlari bilan olimpiyaning avvalgi qudratini tiklashda reja tuzgan. 12 yoshlik chog'ida u sport klubi tuzadi. Bu yerda bolalar futbol,

qilichbozlik va eshkak eshish bilan shug'illangan. Kuberten o'z zamonasining iqtidorli, shijoatli, qiziquvchan, ajoyib inson sifatida tarix sahifalaridan o'rin olgan. Pyer de Kuberten Yevropadagi eng qadimgi va eng yaxshi Parij universiteti - Sorbonnani tamomlagan. Tarix, pedagogika, falsafa, siyosat bilan qiziqqan. Kuberten yoshligida chavandozlik, qilichbozlik va eshkak eshish sport turlari bilan shug'ullangan. 20 yoshida qadimgi Ellada madaniyati va adabiyoti tarixi bilan chuqur qiziqib, olimpiya o'yinlarini qayta tiklash to'g'risida fikr bildirgan va butun hayotini mana shu maqsadini amalga oshirishga bag'ishlagan.

Pyer de Kuberten – Xalqaro olimpiya harakatining buyuk arbobi, zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi, XOQning ikkinchi Prezidenti (1896-1915 yy.), (1919-1925 yy.). 1894 yilda XOQning Bosh kotibi, 1896 yilda XOQ prezidenti etib saylangan. Kubertenning rahbarligida 7 ta Olimpiada - II, III, IV, V, VII, VIII yozgi Olimpiya o'yinlari va I qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. 1925 yilda iste'foga chiqqan va 1937 yilgacha Kuberten XOQning Faxriy Prezidenti bo'lgan. Olimpiya harakati, sport tarixi, sotsiologiya, falsafa, siyosat, arxeologiya, fanning boshqa sohalariga oid 30 ta kitob, 50 ta risola, 1200 tadan ortiq maqolalar muallifi.

Kuberten 29 yil Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining prezidenti bo'lgan. Olimpiya ramzlari, belgilari, mukofotlari, sportchilar qasamyodi matni Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan. Uni xizmatlariga yarasha "Olimpizm otasi" deb atashadi. Pyer de Kuberten vasiyatiga ko'ra Shveysariyaning Lozanna shahrida dafn etilgan, yuragi esa Olimpiya shahrida marmar yodgorlik ostida dafn etilgan.

Godfrua de Blone (1869-1937) – XOQning vaqtincha prezident lavozimini 1916-1919 yillarda bajargan. Baron Godfrua de Blone 1869 yil 25 iyulda Nidershyontal' shahrida (Shveysariya) tavallud topgan. XOQ tarkibida 1899 yildan boshlab Shveysariya vakili sifatida faoliyat ko'rsatgan. Kuberten Birinchi jahon urushiga ketganda, prezident lavozimiga neytral davlat vakili G.de Blone tayinlangan. Godfrua de Blone Shveysariya olimpiya qo'mitasining asoschilaridan biri bo'lib, 1912-1915 yillarda shu qo'mitani boshqargan. 1937 yil 14 fevralda Biskra shahrida (Jazoir) vafot etgan.

Anri de Baye-Latur (1876-1942) – XOQning uchinchi Prezidenti. 1903 yilda Bel'giyadan XOQ a'zosi etib saylangan. Anri de Baye-Latur 1905 yilda XOQning III kongressini tashkiliy ishlariga katta hissa qo'shgan. 1906 yilda Bel'giya Milliy olimpiya qo'mitasi ta'sischilaridan biri bo'lgan. 1920 yilda Antverpenda VII yozgi Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining raisi bo'lgan. 1925-1942 yillarda XOQ Prezidenti etib saylangan. Baye Latur rahbarligida II, III qishki va IX, X, XI yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan.

Yuxannes Zigfrid Edstryom (1870-1969) – XOQning 1942-1952 yillarda faoliyat ko'rsatgan Prezidenti. 1921 yilda XOQ a'zosi, XOQ Ijroiya qo'mitasining a'zosi, 1931 yilda XOQning vitse- prezidenti etib saylangan. Yu.Edstrem havaskor sportni rivojlantirish tarafdori va olimpiya harakatida millatchilikning har qanday ko'rinishiga qat'iy qarshi edi. XOQning 1949 yildagi 44 sessiyasida Xalqaro olimpiya akademiyasini tashkil etish taklifini qo'llab- quvvatlagan. 1950 yilda XOQning 45-sessiyasida san'at tanlovlarini olimpiya dasturidan chiqarish, turli festivallar, ko'rgazmalari o'tkazish taklifini kiritgan. 1952 yil 16 iyulda Yu.Edstrem o'z iltimosi bilan iste'foga chiqqan va keyingi yillarda XOQning faxriy prezidenti bo'lib xizmat qilgan.

Eyveri Brendej (1887-1975) – XOQning 1952-1972 y. faoliyat ko'rsatgan beshinchi Prezidenti. 1909 y. AQSHning Illinoys shtati universitetini tugallagan. U yengil atletika ko'pkurashi bo'yicha AQSH birinchiligining 1910 yil sovrindori bo'lgan. 1912 y. Stokgol'm Olimpiadasida AQSH terma jamoasi tarkibida beshkurash bo'yicha 5-o'rinni egallagan. Keyin u gandbol bilan shug'ullangan va AQSHning eng yaxshi 10 ta o'yinchisi qatoriga kirgan. E.Brendej 1925-1927 yy. gandbol bo'yicha milliy qo'mita raisi, 1928-1935 yy. AQSH Havaskor atletika assotsiatsiyasi, 1928-1952 yy. AQSH Milliy olimpiya qo'mitasi prezidenti bo'lgan. 1930 y. Xalqaro havaskor yengil atletika federatsiyasi prezidenti, 1936 y. XOQ a'zosi, 1937 y. XOQ Ijroiya ko'mitasi a'zosi, 1945 y. XOQ vitse-prezidenti, 1946 y. birinchi vitse-prezidenti etib saylangan. E.Brendej birinchi bo'lib XOQning Oltin ordeni bilan taqdirlangan. E.Brendej 85 yoshida o'z ihtiyoriga ko'ra iste'foga

chiqqan, hayotining so'nggi yillarini Germaniyaning Garmish-Partenkirhen shahrida o'tkazgan.

Maykl Morris Killanin (1914-1999) – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1972- 1980 yillarda faoliyat ko'rsatgan oltinchi Prezidenti. 1950 y. Irlandiya milliy Olimpiya qo'mitasining Prezidenti, 1952 y. XOQ a'zosi, 1967 y. XOQ Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 1968 y. XOQning vitse prezidenti etib saylangan. Killanin XOQning Olimpiya birligi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish tashabbuskori bo'lgan. Uning rahbarligida XOQ Monreal va Moskvadagi yozgi Olimpiya o'yinlarini, Insbruk va Leyk Plesiddagi qishki Olimpiya o'yinlarini o'tkazgan. 1980 yilda Maykl Killanin iste'foga chiqqan.

Xuan Antonio Samaranch (1920–2011) – XOQning 1980-2001 yillarda faoliyat ko'rsatgan Prezidenti. U yoshligida boks, rolikli kon'kida hokkey bilan shug'ullangan. Keyinchalik Samaranch ustozlik qilgan Ispaniyaning rolikli xokkey jamoasi jahon chempioni bo'lgan. Samaranch universitetning tijorat fakul'tetini tugallagan, biznes faoliyatini sport ustozligi bilan qo'shib olib borgan. 1940-1950 yy. Samaranch Barselona munitsipalitetining rahbari, so'ng Ispaniya rolikli hokkey milliy federatsiyasining prezidenti lavozimida ishlagan. Samaranch 1955 y. Barselonada o'tkazilgan ikkinchi O'rta yer dengizi o'yinlarining tashkilotchilaridan biri bo'lgan. Samaranch 1956 y. qishki VII Olimpiada, 1960 yil XVII va 1964 yildagi XVIII yozgi Olimpiadalarda Ispaniya sport delegatsiyasining rahbari bo'lgan. 1963 yilda Samaranch Ispaniyaning sport oliy kengashi rahbari lavozimiga tayinlangan. 1967 yilda Samaranch Ispaniya milliy olimpiya qo'mitasining prezidenti etib saylangan. Samaranch 1968 yildan XOQ protokoli rahbari, 1970 yildan XOQ Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 1974 yildan XOQ vitse-prezidenti, 1977 yildan Ispaniyaning sobiq Ittifoq elchisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 1980 yilda XOQning 83-sessiyasida Samaranch XOQ Prezidenti etib saylangan. 2001 yilda Xuan Antonio Samaranch o'zining 20-yillik samarali faoliyatini yakunlab, iste'foga chiqqan.

Jak Rogge 1942 yil 2 may kuni Gent shahrida tug'ilgan. Jak Rogge tibbiyot fanlari doktori, jarroh, sport tibbiyoti mutaxassisi; ingliz, fransuz, nemis, golland va

ispan tillarini biladi. Rogge yelkanli kema sporti va regbi bilan shug'ullangan, yelkanli kema sporti bo'yicha Belgiya chempioni, Olimpiada (1968, 1972, 1976 yy.) o'yinlari ishtirokchisi. Jak Rogge Yevropa Olimpiya qo'mitasi Prezidenti (1989 y.) Insbruk, Kalgari shaharlarida o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari missiyasi rahbari, Moskva (1980), Los-Anjeles (1984) va Seul (1988) Olimpiadalari missiyasi rahbari bo'lgan. Dopingga qarshi Butunjahon Ittifoq agentligi (ADA) a'zosi, 1991 yildan XOQ a'zosi, olimpiada harakati, dasturi va komissiyasi a'zosi. XXVII va XXVIII Olimpiada o'yinlarini muvofiqlashtirish komissiyasining rahbari bo'gan. 2001–2013 yillarda XOQ Prezidenti lavozimida rahbarlik qildi. 2013 yilda Jak Rogge iste'foga chiqdi.

Tomas Bax 1953 yilda Vyurtsburg shahrida (Germaniya) tavallud topgan. Yoshligida futbolga qiziqqan, lekin ota onasi uni qilichbozlik seksiyasiga olib borgan. Bu sport turida Tomas Bax juda katta natijalarga erishdi, Germaniyaning ko'p karra chempioni va qilichbozlik (rapira) bo'yicha ikki karra Jahon chempioni bo'ldi. Tomas Bax XXI Olimpiya o'yinlarida (1976, Monreal, Kanada) Germaniya terma jamoasi tarkibida oltin medalga sazovor bo'lgan. Tomas Bax huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha Vyurtsburg universitetini tamomlagan. T. Bax XOQning Sport arbitraj sudi doping muammolari bo'yicha appelyatsiya bo'limini boshqargan. 2013 yil 10 sentyabrda Tomas Bax XOQ Prezidenti etib saylandi.

Nazorat savollari

- 1.Xalqaro olimpiya qo'mitasi tashkil qilinishi tarixi haqida ma'lumot bering?
- 2.Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi va uning ahamiyati nimalardan iborat?
- 3.XOQ da prezidentlik faoliyati haqida ma'lumot bering?
- 4.XOQ da O'zbekiston sport faoliyatining o'rni va ahamiyati haqida gapirib bering?

Adabiyotlar

- 1.Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Sharq", 2002.
- 2.Ernazarov E.Olimpiada–jahon sporti bayrami.Ilmii-ommabop risola.T.:2008.
- 3.Normurodov A., Morgunova I. Olimpiyskiye igri. T.: 2011.
- 4.Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.

5.2. O'ZBEKISTON MILLIY OLIMPIYA QO'MITASINING TASHKIL QILINISHI

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi (O'zMOQ) 1992 yil 21 yanvarda tashkil etildi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ)ning 1993 yil sentabrda Monakoda bo'lib o'tgan 101-sessiyasida O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi XOQ tomonidan tan olindi. XOQ xartiyasi asosida va jahon sport harakatining ilg'or tajribalariga tayangan holda MOQ Nizomi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi – nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifasi O'zbekistonda olimpiya harakatini boshqarish va rivojlantirishdan iborat. O'z MOQning asosiy ichki va tashqi vazifalarga ajratish mumkin, ular quyidagilardan iborat:

O'z MOQ faoliyatining asosiy **maqsadi**: olimpiya harakati va havaskorlar sportini rivojlantirish, Olimpiya xartiyasi asosida mamlakatda olimpizm tamoyillarini himoya qilishga yordam berish, Olimpiya o'yinlarida Respublika sportchilarining ishtirok etishini ta'minlashdan iborat.

O'z MOQning asosiy **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish;
- XOQ, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo'mitalari, Xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan hamkorlik qilish, XOQning "Olimpiya birdamligi" dasturida ishtirok etish;
- Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko'maklashish;
- Respublika aholisini jismoniy va ma'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlarini, nogironlar o'rtasida sportni rivojlantirishni ta'minlash;
- Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol kurashish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo'lish tamoyillari asosida tarbiyalash;
- O'zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ'ib qilish;

- Sport kadrlari o'rtasida tajriba almashish, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar tashkil etish.

O'zMOQ o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, XOQning Olimpiya xartiyasiga, O'zMOQ Nizomiga muvofiq amalga oshiradi. Nizomga ko'ra O'zMOQ faoliyatini yurituvchi Ijroqo'm, a'zolari, Olimpiya akademiyasi va boshqa tuzilmalar tashkil etilgan edi.

O'zMOQ **tarkibi**: O'zMOQ prezidenti, bosh kotibi, vitse-prezidentlari va a'zolari; Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport federatsiyalari vakillari; noolimpiya sport turlari va milliy sport federatsiyalari vakillari; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sport tashkilotlari vakillari; Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari bo'lgan sportchilar vakillaridan va boshqa alohida shaxslardan iboratdir.

O'zMOQning rahbar **organlari**: Bosh assambleya, Ijroiya qo'mita, hisoblanadi. Bosh assambleyalar oralig'ida O'zMOQ faoliyatiga Ijroiya qo'mita rahbarlik qiladi. O'zMOQning doimiy komissiyalari mavjud: Atletlar komissiyasi; Ayollar va sport komissiyasi; Sport va atrof-muhit komissiyasi. O'zbekiston MOQ xuzurida Olimpiya akademiyasi tashkil etilgan. O'zMOQ Nizomiga ko'ra uning ramzlari kiritilgan (2-rasm).

O'zbekiston MOQning birinchi prezidenti etib Obid Nazirov saylangan. MOQ vitse-prezidenti bo'lgan Sobir Ro'ziyev 1994 yilda O'zMOQning ikkinchi prezidenti etib saylangan.

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining (2015) 17-moddasi "O'zbekiston olimpiya harakati. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi"ga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi "O'zbekiston olimpiya harakati. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi", deb nomlanadi. Unda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining aniq vazifalari belgilangan, yani:

- olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga ko'maklashadi;

➤ XOQ Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O'zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi;

➤ Sportchilarni Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyorlashning zarur darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

➤ Sportda dopingning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish va zo'ravonlikning har qanday shakllari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi;

XOQ va O'zMOQ olimpiya ramzlari, shiori, bayrog'i, madhiyasidan, "olimpiya", "olimpiada" nomlaridan foydalanishga bo'lgan haquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta'minlaydi.

O'zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo'lib, uning maqsadi olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O'zMOQ o'zining rasmiy anjumanlarida eng muhim masalalarni muhokama qilmoqda. Bunda rejalarini tasdiqlash, xalqaro olimpiya harakatida ishtirok etish, olimpiya g'oyalarini keng yoyish, sportchilarni Osiyo, jahon chempionatlari, xalqaro turnirlar va Olimpiya o'yinlariga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib bormoqda. Davlat O'zMOQ nizomida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama ko'maklashgan holda O'zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo'llab-quvvatlaydi. O'zMOQ o'z vakolatlarini maxsus vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari va boshqa tashkilotlar bilan vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. O'zMOQ Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi – ANOKning teng huquqli a'zovidir.

O'zbekiston MOQ xodimlari, sport federatsiyalarning rahbarlari, mutaxassis olimlar va boshqa rasmiy kishilar XOQ joylashgan Lozzana va juda ko'p

mamlakatlarning MOQ huzurida bo'lib, Kongresslar, sessiyalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etmoqda.

1996-yil sentabrda Toshkentda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida mamlakatimiz sport tarixi, olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi.

Mustaqilikka erishilgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi, sportchilarimizning Olimpiya, Osiyo o'yinlari, qit'a va jahon chempionatlarida, xalqaro turnirlarda ishtirok etishi ta'minlandi. "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi,"¹- degan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Sportchilarimizning mustaqillik yillarida xalqaro maydonlarda erishgan g'alabalarini yurtboshimiz so'zlariga tasdiq sifatida misol qilish mumkin.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasining tashkil qilinishi tarixi haqida ma'lumot bering?
2. O'z MOQ faoliyatining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. O'z MOQ faoliyatining asosiy vazifalari haqida gapirib bering?
4. Mustaqilikka erishilgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun qanday shart-sharoitlarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Sharq", 2002.
 2. Ernazarov E. Olimpiada-jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: 2008.
 3. Normurodov A., Morgunova I. Olimpiyskiye igri. T.: 2011.
 4. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.
-

5.3. XALQARO PARALIMPIYA QO'MITASI VA O'ZBEKISTON MILLIY PARALIMPIYA ASSOTSIATSIYASINI TASHKIL QILINISHI

Paralimpiya harakatining rivojlanishida Nogironlar xalqaro sport tashkilotlarining birinchi bosh assambleyasi juda muhim vaqea bo'ldi. 1989-yilning 21-sentabrida Dyuseldorf shahrida u xalqaro paralimpiya qo'mitasini (XPQ) (International paralympic Committes IPC) ta'sis etdi. Mazkur qo'mita xalqaro notijorat tashkiloti sifatida butun dunyodagi ParaOlimpiya harakatiga yetakchilik qiladi. XPQning yuzaga kelishini milliy vakillikni kengaytirishga hamda asosan nogironlar sportiga yo'naltirilgan harakatni yaratishga tobora ortib borayotgan ehtiyoj taqozo etdi.

2000-yilda Xalqaro Olimpiya Qu'mitasi va Xalqaro paralimpiya Qu'mitasi hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzoladilar. Unda mazkur tashkilotlar orasidagi munosabatlarning tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan. Bir yildan so'ng "Bir talabnoma – bir shahar" amaliyoti joriy etildi: Olimpiada o'yinlarini o'tkazishga alabnoma avtomatik tarzda paralimpiya o'yinlariga ham tegishli bo'ladi. O'yinlarning o'tkazilishi esa bir necha sport obyektlarida bitta Tashkiliy qo'mitaning kuchi bilan amalga oshiriladi. Bunda paralimpiya musobaqalari Olimpiada o'yinlari tugaganidan ikki hafta o'tgach start oladi.

Birinchi bor "paralimpiya o'yinlari" atamasi 1964-yildagi Tokio O'yinlarining o'tkazilishi munosabati bilan tilga olindi. Rasman bu nom 1988-yilda, Insburk (Avstriya) shahridagi qishki o'yinlarda tasdiqlandi. 1988-yilgacha O'yinlar "Stok-Mandevil o'yinlari" (birinchi paralimpiya musobaqalari o'tkazilgan joyga muvofiq) deb atab kelingan. XPQning oliy organi – Bosh assambleya bo'lib, u ikki yilda bir marta yig'iladi. Bosh assambleyada XPQning barcha a'zolari ishtirok etadilar. XPQ-ning paralimpiya harakati masalalarini tartibga soluvchi asosiy yig'ma hujjati "XPQ qoidalari to'plami" (IPC Handbook) hisoblanib, u Olimpiya harakatidagi Olimpiya Xartiyasiga o'xshaydi.

2001-yildan XPQ prezidenti lavozimini Britaniya Olimpiya assotsia-tsiyasi boshqaruvi hamda Olimpiya va paralimpiya o'yinlari bo'yicha "London-2012" tashkiliy qu'mitasi a'zosi, aravachalarda basketbol o'ynash bo'yicha jahon

chempioni va ikki karra Yevropa chempioni, Xalqaro aravachadagi basketbol federatsiyasi sobiq prezidenti ingliz *ser Filipp Kraven* egallab kelmoqda.

Ser Filipp Kraven rahbarligi ostida 2002-yildan XPQ strategik maqsadlarini, boshqaruv tizimi va tuzilmasini qayta ko'rib chiqish jarayoni boshlangan edi. Yangicha yondashuv natijasida takliflar paketi, shuningdek, paralimpiya harakatiga yangicha qarashlar, uning vazifalari ishlab chiqildi, bu 2004-yilda XPQning amaldagi konstitutsiyasi qabul qilinishiga olib keldi.

Hozirgi paytda, Xalqaro paralimpiya qu'mitasi 162 Milliy paralimpiya qu'mitalari va 4 ixtisoslashtirilgan nogironlar sport federatsiyalaridan (IOSD) iborat. XPQ shtabi va rahbariyati Bonnda (Germaniya) joylashgan. XPQ tuzilmasi demokratik tamoyillarga asoslangan, rahbar organlar saylov asosida shakllantiriladi.

Paralimpiya o'yinlari 19 sport turiga bo'linadi, lekin 2005-yildan boshlab yangi tur kiritildi. 2008-yilda Pekindagi paralimpiya o'yinlarida bu tur bo'yicha ilk musobaqalar o'tkazildi.

Paralimpiya ramzi ilk bor 2006-yilda Turinda o'tkazilgan qishki paralimpiya o'yinlarida paydo bo'ldi. Markaziy nuqta atrofida joylashgan qizil, ko'k va yashil rangli uchta yarim aylana – uch agiatos (lotincha agito – "harakatga keltirish, harakatlantirish") logotipini tashkil etadi. Bu ramziy belgi XPQning o'z muvaffaqiyatlari bilan butun jahonni hayratga solib, unga ilhom bag'ishlayotgan nogiron sportchilarni birlashtirishdagi ahamiyatini aks ettiradi. Qizil, yashil va ko'k rangdagi uch yarim aylana – dunyo mamlakatlarining milliy paralimpiya bayroqlarida keng taqdim etilgan bo'lib, Aql, Tana va Ruhning ramzi hisoblanadi.

Paralimpiya bayrog'ida uning asosiy ramzi tasvirlangan bo'lib, oq matoning markaziga joylashtirilgan. paralimpiya bayrog'idan faqat XPQ tomonidan ruxsat etilgan rasmiy tadbirlardagina foydalanish mumkin.

Paralimpiya madhiyasi – bu "Putn de I Avenir" (kelajak madhiyasi) musiqiy orkestr asaridir. U 1996-yilda fransuz bastakori Tyerri Darni tomonidan yaratilgan va 1966-yilning martida XPQ boshqaruvi tasdig'idan o'tgan.

Paralimpiya shiori – "Spirit in Motion" ("Ruh – harakatda"). Shior paralimpiya harakatining mohiyatini – kelib chiqishi hamda darajasi turlicha bo'lgan

paralimpiyachi-sportchilarga sportdagi o'z yutuqlari bilan dunyoni ilhomlantirish va hayratlantirish imkonini taqdim etish zarur ekanini lo'nda, yorqin tarzda ifodalaydi.

Yozgi paralimpiya o'yinlari dasturiga quyidagi sport turlari kiradi: bochcha (koptokni nishonga aniq urish); chavandozlik; kamondan o'q otish; suzish (protezlarsiz); o'q otish; golbol; akademik eshkak eshish; og'ir atletika (pauerlifting); Yelkan va velosiped sporti. 2016-yildan sportchilar baydarkada eshkak eshish bo'yicha bellashadilar. Bu musobaqalarning hammasi sog'lom sportchilar uchun ishlab chiqilgan qoidalar asosida o'tkaziladi, faqat zaif ko'radigan yoki ko'zi ojiz sportchilar uchun yordamchilar talab etiladi. Dasturga ayrim o'zgarishlar bilan dzyudo kiritilgan – unda zaif ko'radigan va ko'zi ojiz sportchilar qatnashadilar. Asosiy farq "kumikata" qo'shimch ushlashda bo'lib, kurash shundan boshlanadi. Yengil atletika bellashuvlarida protezli, aravachada yuradigan va ko'zi ojiz sportchilar ishtirok etadilar, musobaqalar dasturiga turli predmetlarni uloqtirish, trassa, beshkurash, sakrash va marafon kiritilgan.

O'zbekiston nogironlar sporti Assotsiatsiyasi 1998-yil 18-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi, Solig'i, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" nodavlat fondi, "Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati fondi ko'magida ta'sis konferensiyasi qarori bilan tashkil etilgan. Assotsiatsiya nodavlat, notijorat jamoat tashkiloti hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, shuningdek, hayriya mablag'lari hisobiga faoliyat yuritadi. Assotsiatsiya faoliyatining asosiy maqsadi – jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida, shifokorlar, murabbiylar, sportchilar, pedagoglar, jamoatchilik vakillari, davlat rahbarlari sapy-harakatlarini birlashtirish, shu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda chuqurlashtirish yo'li orqali nogironlarni ijtimoiy moslashtirish bo'yicha insonparvarlik faoliyatini amalga oshirishdir.

Hozirda jahon hamjamiyatida jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni ijtimoiy moslashtirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar

faoliyatining faollashuvi kuzatilmoqda. O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi ham shunday tashkilotlar sirasiga kiradi.

U 2007-yil 27-fevralda qayta ro'yxatga olinib, O'zbekiston nogironlar sporti Assotsiatsiyasidan O'zbekiston Respublikasi Milliy paralimpiya Assotsiatsiyasiga aylantirildi. MPAning oliy boshqaruv organi Bosh Assambleya bo'lib, u 4 yilda bir marta chaqiriladi. Bosh Assambleyada rahbar organlarga saylovlar o'tkaziladi. MPA tuzilmasi ijroiya qo'mitadan tashkil topgan (rais, 2 nafar rais o'rinbosarlari, Bosh kotib, Ijroiya direktor, moliyaviy direktor va atletlar qu'mitasi raisi).

Bugungi kunda Assotsiatsiya O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida keng miqyosda ishlar olib bormoqda.

O'zbekiston Milliy Paralimpiya Assotsiatsiyasida respublikada nogironlar sportini tashkil qilish bo'yicha ijobiy ish tajribasi to'plangan: O'zbekistonning 7 viloyatida shunday tashkilot ochilgan; nogiron sportchilarimiz Paralimpiya, Deflimpiya va Osiyo o'yinlari, Osiyo va jahon chempionatlarida g'olib hamda sovrindorlar qatoridan o'rin egallab kelmoqdalar. O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi Yevropa paralimpiya qu'mitasi (YepQ) a'zosi hisoblanadi va u Osiyo mintaqasidan yagona vakil sanaladi. O'zbekiston MPA nogironlarni qamrab olish bo'yicha YepQ a'zolari bo'lgan o'nlab mamlakatlar orasida Belarus va Polshadan keyin 3-o'rinda turadi. 2002-yildan beri O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi Xalqaro paralimpiya qu'mitasi a'zosi hisoblanadi va ushbu tashkilotning teng huquqli ishtirokchisi sifatida XPQ tomonidan o'tkaziladigan barcha xalqaro sport tadbirlariga taklif etiladi.

Nazorat savollari

- 1.O'zbekiston milliy paralimpiya assotsiatsiyasini tashkil qilinishi tarixi haqida ma'lumot bering?
- 2.Hozirda jahon hamjamiyatida jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarni ijtimoiy moslashtirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyati haqida gapirib bering?
- 3.O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi Yevropa paralimpiya qo'mitasiga (YepQ) qachondan a'zo hisoblanadi?

4.Paralimpiya ramzlari haqida ma'lumot bering.

Adabiyotlar.

1.R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov- Jismoniy imkoniyati cheklangan o`quvchilarning sport mashg`ulotlariga moslashishi o`quv uslubiy qo`llanma.T-2014

2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o`yin qoidalari. Ch-2019

MUNDARIJA

	KIRISH
I-BOB	Olimpiya va paralimpiya xarakati tarixi faniga kirish
1.1.	Olimpiya xarakati tarixi
1.2.	O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi.
1.3.	Paralimpiya xarakati tarixi.
1.4.	O'zbekistonda paralimpiya harakatining rivojlanishi
II-BOB	Yozgi olimpiya va paralimpiya sport musobaqalari tarixi.
2.1.	Yozgi Olimpiya o'yinlarining rivojlanish tarixi
2.2.	O'zbekiston sportchilari yozgi Olimpiya o'yinlarida.
2.3.	Yozgi paralimpiya o'yinlari
III-BOB.	Qishki olimpiya va paralimpiya sport musobaqalari tarixi
3.1.	Qishki olimpiya o'yinlari va sport musobaqalari tarixi.
3.2.	Qishki olimpiya sport turlarining tavsifi
3.3.	Qishki paralimpiya o'yinlari va musobaqalar tarixi.
3.4.	Qishki paralimpiya o'yinlariga tavsif

- IV BOB. Adaptiv sport musobaqalari**
- 4.1. Surdolimpiya o'yinlari
- 4.2. Maxsus olimpiada
- 4.3. Bolalarni hrakatlarga o'rgatishning metodik usullari
- 4.4. Ko'rgazmali uslubga taaluqli usullar
- 4.5. So'zlab berish uslubiga taaluqli bulgan usullar
- 4.6. Amaliy uslubga ta'aluqli bo'lgan usullar
- 4.7. O'qish jarayonida bolalarda harakat malakalarini shakllantirish qonuniyatlari
- V-BOB.** Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Va Paralimpiya assotsiatsiyasining Tashkil Qilinishi
- 5.1. Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi.
- 5.2. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasining tashkil qilinishi
- 5.3. Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasi va O'zbekiston Milliy Paralimpiya Assotsiatsiyasini tashkil qilinishi

СОДЕРЖАНИЕ

- ВВОД**
- I-ГЛАВА Введение в историю олимпийского и паралимпийского движения**
- 1.1. История олимпийского движения
- 1.2. Развитие олимпийского движения в Узбекистане.
- 1.3. История Паралимпийского движения.
- 1.4. Развитие паралимпийского движения в Узбекистане
- II-ГЛАВА История летних олимпийских и паралимпийских спортивных соревнований.**
- 2.1. История развития летних Олимпийских игр
- 2.2. Спортсмены из Узбекистана в летних Олимпийских играх.
- 2.3. Летние Паралимпийские Игры
- III-ГЛАВА. История зимних Олимпийских и Паралимпийских спортивных соревнований.**
- 3.1. История зимних Олимпийских игр и спортивных соревнований.
- 3.2. Описание зимних олимпийских видов спорта

- 3.3. История зимних Паралимпийских игр и соревнований.
- 3.4. Описание зимних Паралимпийских игр
- IV** **Адаптивные спортивные соревнования**
- ГЛАВА.**
- 4.1. Сурдолимийские игры
- 4.2. Специальная Олимпиада
- 4.3. Методологические методы обучения к движению детей
- 4.4. Методы визуального стиля
- 4.5. Методы, относящиеся к методу речи
- 4.6. Методы, связанные с практическим методом
- 4.7. Закономерности формирования подвижных навыков у детей в процессе обучения
- V-ГЛАВА.** Создание организации Международного Олимпийского комитета и паралимпийской Ассоциации
- 5.1. Общая структура международной олимпийской системы.
- 5.2. Создание Национального олимпийского комитета Узбекистана
- 5.3. Создание Международного паралимпийского комитета и Национальной паралимпийской ассоциации Узбекистана

CONTENT

INPUT

- I-** **An Introduction to the History of the Olympic and**
- CHAPTER** **Paralympic Movement**
- 1.1. History of the Olympic Movement
- 1.2. Development of Olympic movement in Uzbekistan.
- 1.3. History of the Paralympic Movement.
- 1.4. Development of Paralympic Movement in Uzbekistan
- II-** **History of summer Olympic and Paralympic sports**
- CHAPTER** **competitions.**
- 2.1. History of development of the Summer Olympic Games
- 2.2. Athletes from Uzbekistan in the Summer Olympic Games.
- 2.3. Summer Paralympic Games
- III-** **History of Winter Olympic and Paralympic Games**
- CHAPTER**
- 3.1. History of Winter Olympic Games and Sports Competitions.
- 3.2. Description of Winter Olympic sports

- 3.3. The history of the Winter Paralympic Games and competitions.
- 3.4. Description of the Winter Paralympic Games
- IV- Adaptive sport competitions**
- CHAPTER**
- 4.1. Surdolimpic games
- 4.2. Special Olympics
- 4.3. Methodical methods of teaching children to actions
- 4.4. Methods related to visual style
- 4.5. Techniques related to the style of speech
- 4.6. Methods related to the practical method
- 4.7. The laws of formation of behavioral skills of children in the learning process
- V- Establishment of the International Olympic Committee and Paralympic Association**
- CHAPTER**
- 5.1. The overall structure of the international Olympic system.
- 5.2. Establishment of National Olympic Committee of Uzbekistan
- 5.3. Establishment of the International Paralympic Committee and National Paralympic Association of Uzbekistan

Amaliy tavsiyalar

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharofati bilan barcha soxalarda xar tamonlama yuksalish yuz berayotganini tub jismoniy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar umuminsoniy qadryatlar tizimida yangilanish, insonning barcha shaxsiy extiyojlari, talablari va ma'nfaatlari birinchi o'ringa ko'tarilayotganini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodlarning ma'naviy- axloqiy va jismoniy imkoniyatlari yanada oshayotgani bugungi kunda sir emas.

Shu munosabat bilan yangi insonni tarbiyalashning murakkab va ko'p qirrali muommosining muxim yo'nalishi xar bir kishida o'z sog'lig'i to'g'risida o'zi qayg'urish madaniyatni singdirishdir. Uni tarkib topish uchun oila, maktabgacha muassasalar, maktab, o'rta maxsus kasb xunar ta'lim tizimi, maxalla, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport tizimlarining xodimlari butun kuch quvvatini, g'ayratini ishga solib, bolaning ongiga yoshlikdan jismoniy tarbiyaga bo'lgan muxabbatni singdirib qo'yishlari darkor.

Respublikamizda har qanday soha vakillari zimmasiga sog'lom avlodni tayyorlash chora tadbirlari yuklatilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Olimpiya va Paralimpiya, nogironlar sportiga katta e'tibor berilmoqda. Sportchilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosidagi musobaqlarda yaxshi natijalarga erishilgan. Buni 2016 yil Reo de Janero shahrida o'tkazilgan XXXI yozgi olimpiya va XIIV yozgi Paralimpiada o'yinlari misolida ko'rish mumkin. Hamyurtlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan medallari shu sohada faoliyat olib borayotgan murabbiylarning mehnatining mevasi sifatida qabul qilish mumkin.

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommoviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, Olimpiya va paralimpiya o'yinlariga tayyorgarliklariga shart-sharoitlar yaratish, soxani malakali qadrlar bilan mustaxkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. – T. : SHarq, 1999. – 8-30 betlar.
2. Karimov I. A. “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat” 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. T., 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T., 1997 y.
5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., 2016.
6. Mirziyoyev. SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, 2017, - B. 145.
7. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T. 2017.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi (2015 yil yangi tahriri) Qonuni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 mayda "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni (2017 yil 18 fevral).

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori (2017 yil 3 iyun).

15. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom (2017 yil 19 iyul).

16. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Buyrug'i (2018 yil 18 iyun).

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustda "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 sonli Qarori.

18. Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi, "Nasaf", 2004.

19. Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. T.: 2006.
20. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Sharq", 2002.
21. Ernazarov E. Olimpiada–jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: 2008.
22. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.
23. John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 237 p.
24. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T: 2017.
25. R.S.Salomov, M.X.Mirjamolov- Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'quv uslubiy qo'llanma. T-2014
26. 2.M.X. Mirjamolov, S.A. Yunusov, N.K. Svetlichnaya –Paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari. Ch-2019